

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida  
UDK: 338.24:37c (c52)

**BOLTAYEV NURALI SHIRAMATOVICH**

**AGRAR TA'LIM TIZIMIDA KADRLAR TAYYORLASHNING  
BOSHQARUV MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.13 – “Menejment”

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini  
olish uchun tayyorlangan  
DISSERTATSIYA

**Ilmiy rahbar:** iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Maxmudov Nosir Maxmudovich

Toshkent shahri – 2023 yil

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB AGRAR TA'LIM TIZIMIDA KADRLAR TAYYORLASHNI BOSHQARISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....</b>	<b>13</b>
§ 1.1. Oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashni boshqarishning ilmiy-nazariy asoslari.....	13
§ 1.2. O'zbekistonda agrar ta'lim tizimida kadrlarni tayyorlash jarayonini samarali boshqarishning rivojlanish tendensiyalari.....	27
§ 1.3. Rivojlangan davlatlarda agrar ta'lim muassasalarini boshqarish bo'yicha ilg'or tajribalar va ulardan O'zbekistonda foydalanish yo'llari.....	38
<b>I bob bo'yicha xulosa.....</b>	<b>59</b>
<b>II BOB AGRAR TA'LIM TIZIMIDA KADRLAR TAYYORLASHDA BOSHQARUV FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA TAHLIL QILISH.....</b>	<b>60</b>
§ 2.1. Agrar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning hozirgi holati va uning tahlili .....	60
§ 2.2. Agrar ta'lim tizimida zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish yo'llari.....	74
§ 2.3. Agrar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashda boshqaruv samaradorligini baholash .....	88
<b>II bob bo'yicha xulosa.....</b>	<b>102</b>
<b>III BOB AGRAR TA'LIM TIZIMIDA KADRLAR TAYYORLASHNING BOSHQARUV MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....</b>	<b>104</b>
§ 3.1. Agrar ta'lim tizimida bozor mexanizmlari asosida kadrlar tayyorlashning asosiy yo'nalishlari.....	104
§ 3.2. Agrar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish.....	117
§ 3.3. Istiqbolda agrar ta'lim muassasalarining boshqaruv samaradorligini oshirish yo'llari.....	131
<b>III bob bo'yicha xulosa.....</b>	<b>140</b>
<b>XULOSA.....</b>	<b>142</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>146</b>
<b>ILOVALAR.....</b>	<b>159</b>

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonning rivojlangan mamlakatlarida ta'lim tizimi bo'yicha innovatsion texnologiyalarning joriy etishning jadallashuvi sharoitida sohalar bo'yicha malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirishda ta'lim integratsiyasi, innovatsiyasi hamda amaliyotlarni ishlab chiqarish bilan bog'lashga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Ta'lim darajasi bo'yicha dunyo reytingida Avstraliya - 0,939, Daniya - 0,923, Yangi Zelandiya - 0,917, Norvegiya - 0,916, Germaniya - 0,914, Irlandiya - 0,910, Islandiya - 0,906, AQSh - 0,900, Niderlandiya - 0,897, Buyuk Britaniya - 0,896 indeks bilan yuqori o'rinni egallab kelmoqda"<sup>1</sup>. Ammo, turli obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida, global Covid-19 pandemiyasining dunyo bo'yicha keng tarqalishi ta'lim tizimida bir qator munozarali vaziyatlar, ya'ni oliy va o'rta maxsus ta'lim, maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishdagi muammoli holatlarni yuzaga keltirdi. Shu bois, zamonaviy ta'lim tizimiga ega rivojlangan mamlakatlarda differensiyalashgan ta'lim tizimining joriy etilishi soha mutaxassisleri tayyorlashda mazkur usuldan foydalanish, tizimni rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, mavjud muammolarni bartaraf etish, zamonaviy boshqaruv tizimini joriy etishga keng e'tibor qaratilmoqda.

Globallashuv sharoitida aholi sonining ko'payishi natijasida dunyo mamlakatlari bo'yicha savodxonlik darajasini oshirib borishga qaratilgan ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Dunyo mamlakatlari ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirishda salohiyatli kadrlarni tayyorlash, yangi kasblarga yo'naltirish, ishlab chiqarishni ta'lim bilan uzviyligini ta'minlash, tizimni moliyalashtirishni mustaqil amalga oshirish, oliy ta'lim tizimini boshqarishda kadrlar tayyorlashning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, agrar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashda boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish, kadrlar tayyorlashda zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

---

<sup>1</sup> <https://www.statista.com/markets/411/topic/962/education-science/#statistic1>

O‘zbekistonda so‘nggi yillar ichida ta‘lim sohasida izchil amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida agrar soha uchun mutaxassis kadrlar tayyorlash ishlariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, hududlarda oliy va professional ta‘lim muassasalari soni oshib bormoqda. Bu albatta, respublika bo‘yicha faoliyat olib borayotgan oliy ta‘lim muassasalari oldiga mehnat bozori talablariga javob bera oladigan malakali kadrlar tayyorlash vazifasini qo‘yadi. “Mamlakatimiz bo‘yicha 2023-yilda oliy ta‘lim muassasalarida jami 1 mln.dan ortiq talabalar tahsil olayotgan bo‘lsa, shundan, agrar ta‘lim tizimida esa 30 mingdan ortiq mutaxassislar tayyorlanmoqda”<sup>2</sup>. Shuningdek, agrar ta‘lim tizimiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, sohaga zamonaviy boshqaruv usullarini tatbiq etish, ilm-fan, ta‘lim va ishlab chiqarish integratsiyasini amalga oshirish, kadrlar salohiyatini yuksaltirish, o‘zgaruvchan mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta‘minlash, ilmiy tadqiqot ishlarining samaradorligini oshirish hamda shu orqali agrar ta‘lim tizimini rivojlantirish va bozor mexanizmlarini joriy etishni talab qiladi. Shu bois, bugungi kunda mamlakatimizda ta‘lim tizimida yangi zamonaviy ta‘lim yo‘nalishlarini tashkil etish, sohani yangi rivojlanish bosqichiga olib chiquvchi omil sifatida e‘tirof etish hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ularni samarali boshqarish yo‘nalishida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish bugungi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son «Professional ta‘lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida», 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son «O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida», 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi farmonlari, 2023-yil 7-iyuldagi PQ-216-son «Agrar sohada ilm-fan, ta‘lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni

---

<sup>2</sup> <https://opendata.edu.uz/vazirlik/15.php>

oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2020-yil 30-iyuldagi PQ-4795-son «Agrar ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-dekabrda 788-son «Agrar ta’lim tizimining 2030-yilgacha innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya mavzusi respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Oliy ta’lim tizimida kadrlar tayyorlashning boshqaruv mexanizmlarining ilmiy-nazariy jihatlari ko‘plab xorijiy olimlardan N.Kononets, I.Vallas, E.Nilsson, S.Engler, M.Kretzer, S.Jill, N.L.Davis, Ye.Ch.Jozep, M.Meskon, M.Albert, F.Xedouri, T.Saati va boshqalarning<sup>3</sup> ilmiy-tadqiqot ishlarida yoritilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida N.A.Kovaleva, Ye.Yu.Xilova, T.T.Cherkashina, Ye.S.Meshenko, Ye.Ye.Chugunova, T.I.Shamov, P.I.Tretyakov, V.V.Gluxov, B.M.Kaparov, A.N.Boeva, M.V.Nikitin, A.V.Kozlov,

---

<sup>3</sup> Н.Кононец. Experience in implementing resource-based learning in agrarian college of management and law poltava state agrarian academy.// Turkish Online Journal of Distance Education-TOJDE April 2015 ISSN 1302-6488 Volume: 16 Number: 2 Article 12.: 13 p.; I.Wallace and E.Nilsson. The role of agricultural education and training in improving the performance of support services for the renewable natural resources sector.// The material that follows has been provided by Overseas Development Institute. Number 24, September 1997.: 10 p.; Steven Engler and Michael M. Kretzer. Agriculture and Education: Agricultural Education as an Adaptation to Food Insecurity in Malawi.// Universal Journal of Agricultural Research 2(6): 224-231, 2014 <http://www.hrpub.org> DOI: 10.13189/ujar.2014.020607.: 9 p.; Sarah Jill Page. Higher education system governance: an exploratory higher education system governance: an exploratory study of presidential decision making in the kentucky study of presidential decision making in the kentucky community and technical college system.// Dissertation University of Kentucky, Lexington, Kentucky 2016.: 227 p.; Natasha L. Davis. A constructive approach to managing faculty conflict: an action research study.// Dissertation. *University of Kentucky*. Lexington, KY 2021.: 159 p.; Esther Chitolie-Joseph. An Investigation into the Use of the Education Management Information System (EMIS) in Secondary Schools in St. Lucia – The Case of One Secondary School.// Dissertation. In the School of Education At The University of Sheffield November 2011.: 216 p.; Саати Т.Л. Принятие решений при зависимостях и обратных связях. Аналитические сети. – Москва: ЛКИ, 2008.

M.A.Parxomchuk kabi olimlarning<sup>4</sup> ilmiy tadqiqot ishlari oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ilmiy tadqiqiga bag'ishlangan.

Respublikamizda Q.X.Abduraxmonov, S.S.G'ulomov, N.Q.Yo'ldoshev, B.Yu.Xodiyev, A.Sh.Bekmurodov, M.X.Saidov, D.X.Nabiyev, G.A.Abduraxmanova, Sh.E.Qurbonov, E.A.Seytxalilov, A.T.Yusupov, O.S.Qahhorov, A.S.Kucharov, N.M.Maxmudov, A.A.Maxmudov, A.E.Norov, T.Z.Teshabayev, A.O.Ochilov, J.O.Kucharov va boshqa olimlar<sup>5</sup> tomonidan oliy

---

<sup>4</sup> Н.А.Ковалева. Развитие дополнительных образовательных услуг в системе высшего аграрного образования// Автореферат. Специальность 08.00.05-Экономика и управление народным хозяйством: экономика, организация и управление предприятиями, отраслями, комплексами (АП Кисельское хозяйство). Екатеринбург-2005.: 20 стр.; Е.Ю.Хилова. Формирование готовности будущих экономистов к экологическому менеджменту в системе высшего образования // Автореферат. 13.00.08-Теория и методика профессионального образования. Чебоксары-2009.: 23 стр.; Т.Т.Черкашина. Формирование коммуникативного лидерства в диалоговой системе высшего менеджмент-образования// Автореферат. Специальность: 13.00.02-Теория и методика обучения и воспитания. Москва-2011.: 56 стр.; Е.С.Мешенко. Совершенствование системы менеджмента качества в учреждении высшего профессионального образования: методология и практика// Автореферат. Специальность 08.00.05-Экономика и управление народным хозяйством: стандартизация и управление качеством продукции. Саратов-2010.: 49 стр.; Е.Е.Чугунова. Организационно-методическое обеспечение управления качеством образования в вузе// Автореферат. Специальность: 08.00.05-Экономика и управление народным хозяйством (экономика и управление качеством). Санкт-Петербург-2005.: 16 стр.; Никитин М.В. Модернизация управления развитием образовательных организаций. Монография. – Москва: Издательский центр – АПО., 2001. – 221с.; Боева А.Н. Оценка и пути повышения эффективности образовательной деятельности государственных высших учебных заведений: автореф. дис. канд. экон. наук. – Владивосток, 2011. – 23с.; А.В.Козлов Кадровое обеспечение сельского хозяйства в условиях инновационного развития. дис. док. экон. наук. – Москва, 2015. – 349 с.; М.А.Пархомчук Стратегия управления человеческими ресурсами в сельском хозяйстве. автореф. дис. канд. экон. наук. – Курск, 2010. – 43 с.

<sup>5</sup> Абдурахманов К.Х. и др. Современный менеджмент и реформирование системы образования в Узбекистане. – Тошкент, 2005.; G'ulomov S.S. Menejment asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: "Sharq", 2002. – 370 b.; Yo'ldoshev N.Q. Strategik menejment. Darslik – T., "Iqtisodiyot", 2019. – 121 b.; Ходиев Б.Ю. Инновационная образовательная стратегия в условиях преодоления мирового финансово-экономического кризиса. – Тошкент: Экономика, 2009. – 89 с.; Бекмуродов А.Ш. Информационно-ресурсное обеспечение высшего экономического образования: методика, содержание и техническое обеспечение. – Тошкент: Экономика, 2009. – 205 б.; Saidov M.X. Oliy ta'lim tizimida moliyaviy boshqaruv. O'quv qo'llanma. – T.: "Tafakkur-bo'stoni", 2011. – 431 б.; Набиев Д.Х. Совершенствование управления маркетингом образовательных услуг в условиях модернизации экономики. Автореф. докт. экон. наук. – Ташкент, 2009. – 48 с.; Abduraxmanova G.A. Inson resurslarini boshqarish. Darslik. – T.: "Fan", 2021. – 696 б.; Qurbonov Sh.E, Seytxalilov E.A. Ta'lim tizimini boshqarish. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2006. – 592 б.; Yusupov A.T. Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar davlat attestatsiyasi: metodologik-uslubiy, normativ-huquqiy va ilmiy-tashkiliy yo'nalishlari. – Toshkent, 2013. – 648 б.; O.S.Qahhorov. Ta'lim tizimida iqtisodchi kadrlarni tayyorlashning boshqaruv mexanizmini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida)//Avtoreferat. 08.00.13 – Menejment ixtisosligi. Toshkent-2017.: 52 bet.; A.S.Kucharov. Tadbirkorlik soxasi uchun oliy ma'lumotli mutaxassislarini tayyorlashda boshqarishning tashkiliy-iktisodiy omillarini takomillashtirish// Dissertatsiya 08.00.05-Menejment ixtisosligi. Toshkent-2006.: 219 bet.; N.Maxmudov, N.Rustamov. Qishloq xo'jaligi mahsulotlariningsifati va ularning raqobatbardoshligini oshirish. // "Iqtisodiyot" jurnali. Toshkent-2014.: 154 bet. A.A.Maxmudov. Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish// Avtoreferat. 08.00.07-Moliya, pul muomalasi va kredit ixtisosligi. Toshkent-2019.: 45 bet.; A.E.Norov. Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyat natijalarini tijoratlashtirishni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish// Avtoreferat. 08.00.13 – Menejment ixtisosligi. Toshkent-2021.: 65 bet.; T.Z.Teshabaev. Oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni axborot texnologiyalari asosida boshqarishni takomillashtirish// Avtoreferat. 08.00.13 – Menejment ixtisosligi. Toshkent-2019.: 83 bet.; A.O.Ochilov. Yuqori malakali kadrlar tayyorlashni boshqarish samaradorligini oshirish// Avtoreferat. 08.00.13 – Menejment ixtisosligi. Toshkent-2018.: 76 bet.; J.Kucharov. Qishloq xo'jaligini

ta'lim tizimini rivojlantirish, oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish masalalari o'rganilgan.

Ammo agrar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan ilmiy tadqiqot ishlariga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Bu esa o'z navbatida, mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini taqozo etib, tadqiqot ishi mavzusini tanlashga asos bo'ldi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot Toshkent davlat agrar universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** agrar ta'lim tizimida malakali kadrlar tayyorlashning boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

oliy ta'lim tizimini boshqarishda kadrlar tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari va rivojlanish tendensiyalarini o'rganish;

agrar ta'lim tizimini boshqarish bo'yicha rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalarini tahlil qilish;

agrar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashda boshqaruv faoliyatining samaradorligini baholash va tahlil qilish;

agrar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashda zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish yo'llari va boshqaruv samaradorligini baholash bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar berish;

agrar ta'lim tizimida bozor mexanizmlari asosida malakali kadrlar tayyorlashning asosiy yo'nalishlari bo'yicha takliflar tayyorlash;

agrar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

istiqbolda agrar ta'lim muassasalarining boshqaruv samaradorligini oshirish yo'llari bo'yicha takliflar berish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O'zbekiston Respublikasidagi agrar soha uchun kadrlar tayyorlayotgan asosiy oliy ta'lim muassasalari tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmetini** agrar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar majmui tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, tahlil va sintez, statistik guruhlash, monografik tahlil, qiyosiy tahlil, ekspert baholash, SWOT-tahlil, korrelyatsion-regression tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish, prognozlash usullari qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

agrar yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda faoliyat olib borayotgan ish beruvchi tashkilotlarda talabalar uchun muayyan miqdordagi ish o'rnini zahira sifatida ajratishga asoslangan "Talaba shtati" mexanizmini joriy etish orqali talabalarning o'quv-ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish, o'qishdan bo'sh vaqtlaridagi qisman bandligini ta'minlash hamda bitiruvchilarni ishga qabul qilish taklifi asoslangan;

ta'limning xalqaro standart tasniflagichi asosida qishloq xo'jaligi sohasini o'rta bo'g'in mutaxassislar bilan ta'minlash maqsadida professional ta'lim yo'nalishlari uchun kasblar klassifikatori "aqlli" qishloq xo'jaligi texnikalaridan tarmoqlar bo'yicha foydalanishning texnologik jarayonini tashkil etishga ixtisoslashgan operator-analitik kasbini joriy etish hamda kasbiy-mutaxassislik standartlarini ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan;

bitiruvchining o'zlashtirish ko'rsatkichlari, amaliyot obyektlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasi, agrar sohaning me'yoriy-huquqiy asoslariga doir bilimi, fikrlash kreativligi va liderlik xususiyatlari kabi yo'nalishlar bo'yicha kadrlar salohiyatini baholash uslubi agrar ta'lim tizimida sifat menejmenti talablari doirasida "yuqori samarali" [4,5-5,0], "o'rta samarali"



[3,5-4,4], “past samarali” [2,6-3,4], “samarasiz” [1,0-2,5] baholash mezonlariga ko‘ra takomillashtirilgan;

agrar yo‘nalishdagi oliy ta‘lim muassasalarining kadrlar tayyorlashda ilmiy salohiyat va o‘quv jarayoniga raqamli texnologiyalarning joriy etish omilini hisobga olgan holda Toshkent davlat agrar universiteti bitiruvchilari bandlik darajasining 2027-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ta‘lim tizimida kadrlar salohiyatini oshirish va ularni mehnat bozori talablariga moslash yo‘nalishlari asoslab berilgan;

respublikamizda agrar ta‘lim tizimini samarali boshqarishda xorijiy tajribalardan foydalanish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

agrar ta‘lim tizimida faoliyat olib borayotgan oliy ta‘lim muassasalarining ustuvor yo‘nalishlari ilmiy asoslangan, zamonaviy va samarali boshqarish natijadorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan;

agrar ta‘lim tizimida malakali kadrlar tayyorlashda ularning kuchli va zaif tomonlari SWOT tahlili orqali aniqlangan;

agrar ta‘lim muassasalarining buyurtmachi tashkilotlar bilan hamkorlikdagi bozor iqtisodiyotidagi keskin raqobat muhiti hamda mehnat bozorini raqamlashtirish sharoitida kadrlar tayyorlashni zamonaviy strategiyalarini shakllantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ushbu yo‘nalishda tadqiqotlar o‘tkazgan iqtisodchi olimlarning ta‘lim tizimida malakali kadrlar tayyorlash va mehnat bozori talablariga muvofiq malakali kadrlar tizimini tashkil etish bo‘yicha ilmiy-amaliy yondashuvlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan uslubiy yondashuv va usullarning asoslanganligi, ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, shuningdek, taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kadrlar salohiyatini baholashga oid

yondashuvlarning ishlab chiqilishi, kadrlar o'rtasidagi raqobat strategiyasining ularga xos bo'lgan asosiy xususiyatlarining asoslab berilishi, mehnat resurslarini boshqarishda sifatni ta'minlagan holda eng optimal ichki imkoniyatlarini matematik modellashtirish usuli orqali asoslanishi kuchli raqobat muhitida kadrlar salohiyatini oshirish strategiyalarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslarini boyitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati respublikada agrar ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning istiqbolli reja va dasturlarini tayyorlash, malakali kadrlar tayyorlashning boshqaruv usullari, tamoyillari, vazifalari, mezonlari, nazariy bilimlardan foydalanish, ta'lim muassasasini boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish hamda «Agrobiznesni tashkil etish va boshqarish», «Inson resurslarini boshqarish», «Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi», «Qishloq xo'jaligi menejmenti» kabi fanlardan darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Agrar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning boshqaruv mexanizmini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

agrar yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda faoliyat olib borayotgan ish beruvchi tashkilotlarda talabalar uchun muayyan miqdordagi ish o'rnini zaxira sifatida ajratishga asoslangan "Talaba shtati" mexanizmini joriy etish orqali talabalarning o'quv-ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish, o'qishdan bo'sh vaqtlaridagi qisman bandligini ta'minlash hamda bitiruvchilarni ishga qabul qilish taklifi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan agrar sohasida zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash jarayonlarini boshqarishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-apreldagi 03/14-466-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish orqali zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash, ilm-fan va ta'lim, ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash, ish beruvchi tashkilot va korxonalar faoliyatida kadrlar

yoʻqimsizligini oldini olish, malakali kadrlar zahirasi yaratish hamda bitiruvchilarning bandlik darajasini oshishga xizmat qilgan;

taʼlimning xalqaro standart tasniflagichi asosida qishloq xoʻjaligi sohasini oʻrta boʻgʻin mutaxassislar bilan taʼminlash maqsadida professional taʼlim yoʻnalishlari uchun kasblar klassifikatori “aqlli” qishloq xoʻjaligi texnikalaridan tarmoqlar boʻyicha foydalanishning texnologik jarayonini tashkil etishga ixtisoslashgan operator-analitik kasbini joriy etish hamda kasbiy-mutaxassislik standartlarini ishlab chiqish asosida takomillashtirish taklifi Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan kasbiy-mutaxassislik standartlari asosida oʻrta maxsus va professional taʼlim muassasalarida zamonaviy kasblar boʻyicha malakali mutaxassislar tayyorlash va taʼlim muassasalarini samarali boshqarishda foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-apreldagi 03/14-466-sonli maʼlumotnomasi). Natijada ishlab chiqilgan kasblar klassifikatori va kasbiy-mutaxassislik standartlari asosida agrar taʼlim tizimida qishloq xoʻjaligi boʻyicha zamonaviy kasblarni egallagan bitiruvchilar (mutaxassislar) ishlab chiqarish korxonalarida samarali mehnat faoliyatini tashkil etishi, agrar sohani barqarorligini taʼminlashda va oliy taʼlim muassasalariga oʻqishga qabul qilinishi, shu asosda oliy, oʻrta maxsus va professional taʼlim tizimining uzviy integratsiyasini taʼminlangan;

bitiruvchining oʻzlashtirish koʻrsatkichlari, amaliyot obyektlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasi, agrar sohaning meʼyoriy-huquqiy asoslariga doir bilimi, fikrlash kreativligi va liderlik xususiyatlari kabi yoʻnalishlar boʻyicha kadrlar salohiyatini baholash uslubi agrar taʼlim tizimida sifat menejmenti talablari doirasida “yuqori samarali” [4,5-5,0], “oʻrta samarali” [3,5-4,4], “past samarali” [2,6-3,4], “samarasiz” [1,0-2,5] baholash mezonlariga koʻra takomillashtirish taklifi Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan agrar taʼlim muassasalari faoliyatini yanada samarali boshqarishda kadrlar salohiyatini oshirishda hamda ilm-fan, taʼlim va ishlab chiqarish integratsiyasini taʼminlashda foydalanilgan (Oʻzbekiston

Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-apreldagi 03/14-466-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mehnat bozoriga malakali kadrlar tayyorlashda ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni va ta'lim sifatini oshirishga hamda kadrlar (talabalar) o'z ustida tinimsiz mehnat qilishga, mustaqil ta'lim olish imkoniyatidan to'liq foydalanish orqali yuqori samaradorlikka erishish imkonini bergan;

agrar yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarining kadrlar tayyorlashda ilmiy salohiyat va o'quv jarayoniga raqamli texnologiyalarning joriy etish omilini hisobga olgan holda Toshkent davlat agrar universiteti bitiruvchilari bandlik darajasining 2027-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari "Toshkent davlat agrar universitetining 2022-2027 yillarga mo'ljallangan o'rta muddatli strategik boshqarish va rivojlantirish dasturi"ga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-apreldagi 03/14-466-sonli hamda Toshkent davlat agrar universitetining 2023-yil 9-martdagi 1/4-1663-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida bitiruvchilarining bandlik darajasi 2027-yilda 2022-yilga nisbatan 1,6 foizga, ilmiy salohiyat 10 foizga, o'quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etilganlik darajasini 0,8 foizga ortishi prognoz qilingan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiyaning asosiy ilmiy va amaliy natijalari 8 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, o'z ichiga 25 ta jadval, 28 ta rasmni olgan. Umumiy hajmi 143 betni tashkil etadi.

## **I BOB. AGRAR TA'LIM TIZIMIDA KADRLAR TAYYORLASHNI BOSHQARISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI**

### **§ 1.1. Oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashni boshqarishning ilmiy- nazariy asoslari**

Yangi asr rivojlanishi ilm fanning yuksalishi bilan bevosita bog'liq bo'lishi, fanning taraqqiyoti kadrlarga bo'lgan talabning ortib borishi har bir soha uchun yosh, qobiliyatli, o'z sohasining professionallari kerakligini ko'rsatib bermoqda. Kadrlar bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish va ularni sohalar kesimida tayyorlash bugunning muhim dolzarb masalasi bo'lib qolmoqda. Ta'lim tizimida, kadrlar masalasi, mehnat bozori, ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash va ular o'rtasidagi integratsiyani uzluksiz tarzda yo'lga qo'yish uchun bir qator ilmiy-amaliy ishlar olib borishni taqozo etadi.


Ta'lim tizimini boshqarishni isloh qilish, yanada rivojlantirish, mehnat bozoriga raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda oliy ta'lim muassasalari tomonidan samarali boshqarish mexanizmlarini joriy etishni talab etadi. Shuningdek, xalqimizda "ta'lim va tarbiya – beshikdan boshlanadi", degan hikmatli so'z bor. Faqat ma'rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotiga yetaklaydi. Shu sababli, mamlakatimizda ta'lim sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimi prinsipiga asoslangan, bola tug'ilganidan boshlab, 30 yoshgacha bo'lgan davrda uni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o'rin topishi uchun ko'mak beradigan, yaxlit va uzluksiz tizim yaratishga harakat qilinayotgani bejis emas. Rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'liq sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi. Binobarin, inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart hisoblanadi<sup>6</sup>.

Bugungi kunda sohada ilmiy izlanish olib borgan olimlar va o'z tadqiqotlarini davom ettirayotgan tadqiqotchilar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash masalasini doim birinchi o'ringa qo'yishi, muammoli masalalar hali hanuz

---

<sup>6</sup> Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston Strategiyasi.// O'zbekiston nashriyoti. Toshkent-2021.: 224 bet.

saqlanib qolinayotganligidan dalolat beradi. Ta'lim tizimini zamonaviy dunyo bilan hamnafas tarzda hamda malakali kadrlarni mehnat bozoriga yetkazib berish oliy ta'lim muassasalari zimmasiga tushishi bilan bir qator quyidagi muammolarni keltirib chiqaradi (1.1-rasm).



**1.1-rasm OTMlarda kadrlar tayyorlashda yuzaga keladigan asosiy muammolar<sup>7</sup>**

Bu muammoli vaziyatlarni, har bir to'siqlarni ilmiy tomonlama yondashib bartaraf etish choralarini ko'rib chiqishimiz lozim bo'ladi. Xorij olimlarining ilmiy izlanishlari o'rganilib tahlil qilinganda, N.A.Kovaleva o'z tadqiqot ishida agrar

<sup>7</sup> Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

ta'lim tizimida qo'shimcha kasbiy ta'limni joriy etish va uning ijobiy tomonlari, qo'shimcha ta'lim tizimini ekspert baholash mezonlarini ishlab chiqdi. Tadqiqotlar natijasida N.A.Kovaleva agrar ta'limda qo'shimcha ta'lim xizmatlarini joriy etish g'oyasini ilgari surdi<sup>8</sup>. Bizning fikrimizcha, bu tizimning sohada qo'llanilishi kadrlarda qo'shimcha kasbga yo'naltirish imkonini hamda soha uchun tayyorlanayotgan kadrlarning kasbiy mahoratlarini oshirish imkoni paydo bo'ladi. Shuningdek, ishlab chiqarish va oliy ta'lim muassasalari bilan kadrlarga qo'yiladigan asosiy talablar ta'lim jarayonida bartaraf etib borilgan bo'lar edi.

Ye.Yu.Xilova o'z tadqiqotlarida kadrlarning kasbiy faoliyatini olib borishda ekologik jihatlarni hisobga olish, ekologiya kurslarini tashkil etish, kadrlarni atrof-muhit va ekologiyaga bo'lgan munosabatini ishlab chiqarish jarayonlarida, mehnat faoliyatida tadbiq etish bo'yicha o'z taklif va tavsiyalarini berib o'tgan.<sup>9</sup> Darhaqiqat kasbga yo'naltirishda nafaqat ishlab chiqarish sub'ektlari, shuningdek, atrof-muhitni ham muhofaza qilishni hisobga olish, sohalar bo'yicha ta'lim tizimida mavjud yo'nalishlarda "Ekologiya va atrof-muhit muxofazasi", "Xayot faoliyati xavfsizligi" hamda "Atrof-muhit iqtisodiyoti" kabi fanlar bilan chambarchas bog'lash orqali yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda mutaxassisligi bilan bir qatorda ekologik vaziyatni ham hisobga olishi, muammolarni bartaraf etish imkoniyatlari har bir kadrda shakllanadi. Ta'limni ekologiya bilan bog'lash, boshqaruv shaklidan qat'iy nazar asosiy strategiyani ishlab chiqish uchun zarur bo'ladi ya'ni boshqaruvda, ta'limda, ishlab chiqarishda kadrlar bilan asosiy ekologik muammoni munozarali tarzda tahlil qilib borish zarur hisoblanadi (1-ilova). Agrar soha uchun muhim hisoblangan bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi fanini olib borilishi natijasida kadrlarda ekologiya bo'yicha maxsus bilim, ko'nikma va tajriba shakllanishi, qaror qabul qilishda iqlim o'zgarishi va ekologik omillar ta'sirini hisobga olish muhim

---

<sup>8</sup> Н.А.Ковалева. Развитие дополнительных образовательных услуг в системе высшего аграрного образования// Автореферат. Специальность 08.00.05-Экономика и управление народным хозяйством: экономика, организация и управление предприятиями, отраслями, комплексами (АП Киселское хозяйство). Екатеринбург-2005.: 20 стр.

<sup>9</sup> Е.Ю.Хилова. Формирование готовности будущих экономистов к экологическому менеджменту в системе высшего образования//Автореферат. 13.00.08-Теория и методика профессионального образования. Чебоксары-2009.: 23 стр.

ahamiyat kasb etadi. Ye.Yu.Xilova tadqiqotlaridan kelib chiqib, kadrlarni tayyorlashda ularni atrof-muhit va ekologiya ta'sirida vujudga keladigan hodisalarni o'rgangan holda tayyorlashi tashkilotlar boshqaruvining imkon qadar osonlashishiga olib keladi. Chunki har bir inson ekologiya, tabiat resurslaridan oqilona foydalanish, energotejamkorlik masalalariga alohida e'tibor qaratishi va uning kelajakdagi mazmun-mohiyati to'g'risida yetarli darajada axborot hamda bilimga ega bo'lishga ahamiyat berilishi zarur hisoblanadi. Xususan, rivojlangan davlatlarda ta'lim tizimini boshqarishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida maktab ta'limidan boshlab bolalarga tabiatga bo'lgan munosabat va ekologik muammolar asosida tarbiyalanadilar.

Shu bilan bir qatorda, kadrlarda ishga bo'lgan ma'suliyatni oshirish, liderlikni shakllantirish muhim masala hisoblanadi. T.T.Cherkashina o'z ilmiy ishida yuqorida keltirib o'tilganidek yetakchilikni shakllantirish yo'nalishlari bo'yicha tadqiqot ishini olib borgan. T.T.Cherkashina kadrlarni bosqichma-bosqich kompetensiyasini shakllantirish, elita darajada bo'lishi, muomala, nutq madaniyatini rivojlantirish, retorik instrumental yondoshuvga asoslanishini ko'rsatib o'tgan. Shuningdek kadrlarni shakllantirishda ta'lim jarayonida asosiy tarkibiy qismlarni faollashtiradigan ijtimoiy-madaniy, kasbiy konteksga kiritilgan interfaol muloqot texnologiyalarini qo'llash lozimligini o'z tadqiqotida keltirib o'tgan<sup>10</sup>. Fikrimizcha, ta'lim jarayonlarini tashkil etishda kasbiy faoliyatidan qat'iy nazar kadrlarda nutq, muomala madaniyatini shakllantirish, qo'shimcha to'garaklar tashkil etilishi natijasida muloqot qilishda muammosi bo'lgan ta'lim oluvchilarni qayta tayyorlash, ish beruvchilar va kadrlar o'rtasidagi aloqaning yanada yaxshilanishiga erishish imkoniyati paydo bo'ladi. Inson tafakkurining shakllanishida tashqi muhitning ta'siridan kelib chiqib kadrlar masalasida ham alohida yondoshuv talab etadi. Toshkent davlat agrar universiteti bitiruvchi kurs talabalar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomada, umumiy ishtirok etgan 120 ta talabadan 62 nafari muomalada qiynalishini va o'z fikrini bayon qilishda

---

<sup>10</sup> Т.Т.Черкашина. Формирование коммуникативного лидерства в диалоговой системе высшего менеджмент-образования.// Автореферат. Специальность:13.00.02-Теория и методика обучения и воспитания. Москва-2011.: 56 стр.



muammolarga duch kelishini ta'kidlab o'tgan bo'lsa, 26 nafari esa muomala qilishda va o'z fikrini bayon qilishda erkin muloqot shakllanganligini ta'kidlab o'tgan. Shuningdek 32 nafar talabalar bu borada aniq fikrini bayon etib bera olishmagan. Natijalarga ko'ra, 51 % talabalar o'z taklif va tavsiyalarini erkin bayon etishda qiynalishi, 22 % talabalar bu borada erkin muhitda o'z qarashlarini bayon eta olishini ko'rgan bo'lsak, 27 % talabalar aniq fikrni bayon eta olmasligini so'rovnoma orqali ko'rishimiz mumkin. Bundan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, yo'nalishlar bo'yicha tayyorlanayotgan kadrlar uchun maxsus qo'shimcha kurslar tashkil etish va ularni nutq madaniyati va kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish uchun talabalarga bir oyda bir marta mahorat darslarini tashkil etish lozim bo'ladi.

N.Kononets o'z izlanishlarida agrar ta'lim tizimida axborot texnologiyalarni tadbiq etish va internet tizimidan foydalanish kerakli ma'lumotlarni onlayn tarzda olish imkonini sayt yaratishga imkon beruvchi resurslarni egallashi lozimligini ko'rsatib o'tgan<sup>11</sup>. Bizning fikrimizcha, amalda mavjud zamonaviy texnologiyalarning yildan yilga yangilanib borishi, zamonaviy bozor munosabatlarining raqamlashtirilayotganligi, boshqaruvda kadrlarni ishga tanlab olish va ularni iqtidorini baholashda kompyuter texnologiyasining alohida qayd etilishi zamon talabi ekanligini ko'rsatib beradi. Shu boisdan, ta'lim tizimida axborot kommunikatsion texnologiyalar bilan integratsiyalashgan kurslarni yaratish, o'qituvchi va talabalar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvini raqamlashtirish, elektron kutubxonalar, ma'lumotlarni tahlil qilish, saqlash, qimmatlilik darajasini farqlay olish ko'nikmalarini shakllantirish kadrlarga qo'yiladigan talablarning asosini ta'minlash imkoniyati ta'lim tizimining o'zida shakllanishiga zamin yaratilar edi.

Shunday qilib, ta'lim tizimida zamonaviy kadrlarni tayyorlashda quyidagi qobiliyatlarga ega bitiruvchilarni yetkazib berish vazifasini belgilab olishimiz zarur:

---

<sup>11</sup> H.КОНОНЕТС. Experience in implementing resource-based learning in agrarian college of management and law poltava state agrarian academy.// Turkish Online Journal of Distance Education-TOJDE April 2015 ISSN 1302-6488 Volume: 16 Number: 2 Article 12.: 13 p.

- kadrlarni bilim darajasi hamda hayotiy muammoli vaziyatlarga moslashuvchan tarzda moslashishini ta'minlash, zarur bilimlarni mustaqil ravishda egallash, axborot texnologiyalarini mohirona qo'llash;

- mustaqil, tanqidiy, kreativ fikr yuritish, ish jarayonida muammolarni oldindan ko'ra bilish va ularni zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda oqilona hal etish yo'llarini izlab topish;

- egallagan bilimlarini atrofdagi voqelikda qaerda va qanday qo'llash mumkinligini aniq bilishi;

- xushmuomala bo'lish, turli ijtimoiy guruhlarda aloqa o'rnatish, har qanday nizoli vaziyatlarning oldini olish yoki undan mohirona chiqib ketish;

- o'z odob-axloqi, aql-zakovati, nutq madaniyati, madaniy saviyasini rivojlantirish ustida mustaqil ishlash va hakoza.

Ta'lim jarayonida integratsiyani amalga oshirishda kadrlar va ishlab chiqarish tashkilotlarini uzviy aloqasini ta'minlash sohalar uchun ikki tomonning vazifalarini to'liq bajarilishi, belgilangan tartibda ish o'rni va kadrlar malakasi bo'lishi zarur hisoblanadi.

I.Vallas va E.Nilssonlar o'z tadqiqotlarida ishlab chiqarish tashkilotlari, banklar, kooperatsiyalar qishloq xo'jaligida ta'lim olishda o'z mutaxassis kadrlarini o'quv-kurslari, seminar-treninglar orqali o'qitish va ularning malakasini oshirish bo'yicha oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda tizim yaratilishi lozimligi to'g'risida o'z qarashlarini keltirib o'tgan<sup>12</sup>.


Kadrlarni ishga joylashgandan so'ng ularning malakasini oshirish, qayta tayyorlash, sohani rivojlantirish uchun yangi ma'lumotlarni egallashi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishi hamda mehnat bozori va integratsiya qilish jarayoniga olib keladi (1.2-rasm).

Kadrlar tayyorlashda hamkorlikni ta'minlash, mehnat bozorini yetuk kadrlar bilan ta'minlashning asosiy mexanizmlarini joriy etish, ta'limning asosiy bosqichlarini ham qamrab olish kadrlar buyurtmachilari uchun maqbul variantlarni

---

<sup>12</sup> I.Wallace and E.Nilsson. The role of agricultural education and training in improving the performance of support services for the renewable natural resources sector.// The material that follows has been provided by Overseas Development Institute. Number 24, September 1997.: 10 p.

tanlab olish va mehnat bozorining kadrlarga bo'lgan talabini qondirish imkoniyatini yaratib beradi.



**1.2-rasm. Ta'lim tizimining mehnat bozori va integratsiyasi uchun kadrlar tayyorlash jarayoni**<sup>13</sup>

S.Engler va M.Kretzer o'z tadqiqotlarida ta'lim olishda ijtimoiy-iqtisodiy himoya zarurligi, qishloq xo'jaligida ta'lim jarayonlarini olib borishda kundalik hayotda mavjud muammolar bilan uzviy bog'lash hamda rivojlangan qishloq xo'jaligi mamlakatlari bilan taqqoslash muhimligi to'g'risida ta'kidlangan<sup>14</sup>. Umuman olganda bu fikrdan kelib chiqib, tahlil qiladigan bo'lsak, rivojlangan mamlakatlar qishloq xo'jaligini o'rganish va ta'lim bilan bog'lash, iqlim

<sup>13</sup> Muallif ishlanmasi.

<sup>14</sup> Steven Engler and Michael M. Kretzer. Agriculture and Education: Agricultural Education as an Adaptation to Food Insecurity in Malawi.// Universal Journal of Agricultural Research 2(6): 224-231, 2014 <http://www.hrpub.org> DOI: 10.13189/ujar.2014.020607.: 9 p.

sharoitimizga mos agrotexnologiyalarni tahlil qilib borsak, kadrlarda shu orqali ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

S.Jill ham o'z tadqiqotlarida oliy ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari tashkiliy tuzilmasidagi o'zgarishlar boshqarishning xilma-xilligini ko'rsatib o'tgan. Shu bois, oliy ta'lim tizimida qarorlar qabul qilish, ishni muvofiqlashtirish va tizimni boshqarishni bir nechta kampuslar hamda tarkibiy qismlardan, shuningdek, professor-o'qituvchilar va xodimlar, vasiylar va jamoat rahbarlari bilan bog'liq muammolar mavjudligini tadqiq etgan<sup>15</sup>. Bu fikrlarni tahlil qilar ekanmiz, haqiqatdan bizning mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan oliy o'quv yurtlarini boshqarishda ko'plab muammolarning mavjudligi va ularni bartaraf etish uchun boshqaruv oliy ta'lim tizimi kontekstida ko'rib chiqilishi kerakligini alohida qayd etish mumkin.


Ta'lim jarayonlarini tashkil etishda rahbar va pedagog-xodimlar, talabalar o'rtasida turli xil nizolarning kelib chiqishi ham ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli bir qator olimlar ta'lim muasasalaridagi nizolarning kelib chiqishi va ularni bartaraf etish yo'llarini asoslab o'tgan.

N.L.Davis o'z ilmiy izlanishlarida universitet kampusida professor-o'qituvchilar va talabalar, boshqaruv kengashi yoki xodimlar o'rtasida ziddiyatlarning vujudga kelishi va ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqqan (1.3-rasm).

Bizning fikrimizcha, har bir tashkilotda juda ko'p yoki juda kam nizolar vujudga kelishi mumkin, bunda universitet rahbariyati yoki kafedra, dekanatlar aralashuvi natijasida bartaraf etish imkoni vaziyatga qarab intensivlikni kamaytirish yoki kuchaytirish kerak bo'ladi. Bunda rahbarning vazifasi nizolarni iloji boricha tezroq va samarali bartaraf etish yo'llarini izlab topishi zarur hisoblanadi.

---

<sup>15</sup> Sarah Jill Page. Higher education system governance: an exploratory higher education system governance: an exploratory study of presidential decision making in the kentucky study of presidential decision making in the kentucky community and technical college system.// Dissertation University of Kentucky, Lexington, Kentucky 2016.: 227 p.



**1.3-rasm. Oliy ta'lim muassasalarini boshqarishda ziddiyatlarni bartaraf etish bosqichlari<sup>16</sup>**

Ye.Ch.Jozep tadqiqot ishida ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash, ta'lim jarayonlarini olib borishda axborot tizimlarini keng qo'llash, kadrlar buyurtmachilar talabidan kelib chiqib o'quv jarayonlarini soddalashtirish yo'llarini ishlab chiqqan bo'lib, axborot tizimidan yetarli darajada foydalanilmaganda o'quv jarayonlarini olib borishda tashkiliy jihatdan cheklangan ma'lumotlarga ega bo'lishi ko'rsatib o'tilgan.<sup>17</sup> Fikrimizcha, har bir ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'inigacha axborot texnologiyalarini kiritmasak ta'limning uzviyligi bilan

<sup>16</sup> Natasha L. Davis. A constructive approach to managing faculty conflict: an action research study.// Dissertation. *University of Kentucky*. Lexington, KY 2021.: 159 p.

<sup>17</sup> Esther Chitolie-Joseph. An Investigation into the Use of the Education Management Information System (EMIS) in Secondary Schools in St. Lucia – The Case of One Secondary School.// Dissertation. In the School of Education At The University of Sheffield November 2011.: 216 p.

bog‘liq muammolarga duch kelishimiz, kadrlar tayyorlashda ularning sifati, ishchanlik qobiliyatining pasayishiga hamda ish joylarida moslashuvchanlikning yo‘qolishiga duch kelishimiz mumkin. Bugungi kundagi axborot asrining ajralmas qismi bo‘lgan zamonaviy texnologiyalar bilan birga yangi kasblarning paydo bo‘lishi, iqtisodiyotni raqamlashtirilishi, mehnat bozori talabidan kelib chiqib axborot tizimlarining yangi kontentini yaratish lozim bo‘ladi.

Rossiya olimlaridan Ye.S.Meshenko ham o‘z tadqiqotlarida ta’lim sifatini oshirishda biznes va jamiyat ham alohida ahamiyat kasb etishi, o‘quv jarayonlarini sifati, komponentlarning o‘zaro ta’sirini boshqarish modelini taklif etgan. Bu model ta’lim jarayonlarini mintaqa miqyosida bog‘lash ya’ni boshqaruv organlari, tadbirkorlar, jamiyat a’zolari, ishlab chiqaruvchilar hamda kadrlar bilan ta’lim jarayonining bog‘liqlik sturukturasini tashkil etadi.<sup>18</sup> Bizning fikrimizcha, ta’lim jarayonini tashkil etishda mintaqa bo‘yicha kadrlarga bo‘lgan talabni to‘liq o‘rganish, tahlil etish, qishloq xo‘jaligi tarmoqlari, boshqaruv organlari, tadbirkorlar talabidan kelib chiqib tadbir etish ijobiy samara berishi mumkin.

Ye.Ye.Chugunova ham o‘z izlanishlarida ta’lim muassasasini boshqarishda ta’lim sifatini oshirishning tashkiliy-metodologik jihatlarini tahlil etib, ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillar, kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etishda yetakchi oliy ta’lim muassasalari tajribasi bo‘yicha tahlil qilish yo‘nalishlarini ishlab chiqdi. Shu bilan bir qatorda, Ye.Chugunova sifatni baholashning eng keng tarqalgan usuli universitet reytingini hisoblash bo‘yicha uch xil yondashuvlar asosida 46 ta ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqdi.<sup>19</sup> Yuqoridagi fikrdan kelib chiqib, ta’lim sifatini boshqarishda kadrlarning ishga joylashish ko‘rsatkichi hamda universitet ta’lim sifatining xalqaro hamkorlik, ilmiy salohiyati va boshqa bir qator ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi oliy ta’limning boshqarilishi va uning jamiyatda muhim o‘rin tutishi bilan baholanadi.

---

<sup>18</sup> Е.С.Мешенко. Совершенствование системы менеджмента качества в усреждении высшего профессионального образования: методология и практика// Автореферат. Специальность 08.00.05-Экономика и управление народным хозяйством: стандартизация и управление качеством продукции. Саратов-2010.: 49 стр.

<sup>19</sup> Е.Е.Чугунова. Организационно-методическое обеспечение управления качеством образования в вузе// Автореферат. Специальность: 08.00.05-Экономика и управление народным хозяйством (экономика и управление качеством). Санкт-Петербург-2005.: 16 стр.

Soha bo'yicha ilmiy izlanish olib borgan xorij olimlari bilan bir qatorda mamlakatimiz olimlari ham ta'lim tizimini rivojlantirish va oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashda mavjud muammolar va ularning yechimlari bo'yicha o'z tadqiqotlarini olib borishgan.

O'zbekiston olimlaridan O.S.Qahhorov o'z ilmiy izlanishlarida iqtisodiyot kafedralari boshqaruv jarayoni samaradorligining integral baholash uslubini hamda kadrlar tayyorlashning boshqaruv samaradorligi va ularning iqtisodiyotga ta'siri o'rganilgan. Shuningdek, kasb-hunar ta'lim tizimi bitiruvchilarini ishga joylashtirish, oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishi bo'yicha iqtisodiy faol aholining yalpi hududiy mahsulotga ta'siri hisoblab chiqilgan.<sup>20</sup> Fikrimizcha, boshqaruvda kadrlar tayyorlashni asosiy vazifa qilib belgilansa, ularni ishga joylashtirilishi, sohalar bo'yicha hududlar talabi o'rganilishi natijasida ta'lim tizimidagi asosiy muammolarni vazirliklar, ishlab chiqarish korxonalarini, xalqaro grant loyihalar hamda oliy ta'lim muassasalari bilan bog'langan holda yechim topish imkoniyati yaratilar edi. Shu bilan bir qatorda ta'lim tizimini rivojlantirish va kadrlar tayyorlashda asosiy vazifa mutaxassislik kafedralari ekanligi sohalar uchun boshqaruv tizimini yaratilishida va kadrlar uchun qo'yilgan talablar kafedralarga asosiy ma'suliyatning yuklatilishi, oliy ta'limda boshqaruv jarayonida kafedralarning o'rni yuqori ekanligini ko'rsatib beradi. Shu bois, kafedra va talabalar o'rtasida aloqalarni uzviy bog'lash mexanizmini yaratish va ularni moddiy-ma'naviy qo'llab quvvatlash zarur hisoblanadi.

A.S.Kucharov o'z izlanishlarida oliy ta'lim muassasalarida boshqarish harajatlarini kamaytirishning uslubiy jihatlarini o'rganib tahlil qilgan hamda oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishning turli manbalarini va foydali manbalarni kengaytirish yo'llari taklif etilgan<sup>21</sup>.

Asosiy ishlarni amalga oshirishda, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ularni ijrosini ta'minlashda, mehnat bozori talabiga mos kadrlar yetishtirishda ta'lim muassasasining moliyaviy holati va nufuzi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu

---

<sup>20</sup> O.S.Qahhorov. Ta'lim tizimida iqtisodchi kadrlarni tayyorlashning boshqaruv mexanizmini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida).//Avtoreferat. 08.00.13 – Menejment ixtisosligi. Toshkent-2017.: 52 bet.

<sup>21</sup> A.Kucharov. Tadbirkorlik soxasi uchun oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlashda boshkarishning tashkiliy-iktisodiy omillarini takomillashtirish.// Dissertatsiya 08.00.05-Menejment ixtisosligi. Toshkent-2006.: 219 bet.

tizimni joriy etishda ko‘p omillarning ta’siri o‘rganilib ta’lim uchun manfaatli variant tanlab olinadi.

A.A.Maxmudov tadqiqot ishida “oliy ta’lim muassasalarida to‘lov-kontrakt asosida jalb etilgan mablag‘lar hisobidan ish haqi fondining 50 foizigacha bo‘lgan miqdorida boshqaruv, professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar, o‘quv yordamchi, texnik va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarni maxsus rag‘batlantirish fondini shakllantirish taklifi” hamda oliy ta’lim muassasasi faoliyatiga «kraudfanding» texnologiyasini tatbiq etish orqali moliyaviy resurslarni diversifikatsiyalash mexanizmi ishlab chiqilgan.<sup>22</sup> Yuqoridagi fikrimizni davomi sifatida qaraydigan bo‘lsak, moliyaviy holatni yillik smetasini to‘liqligicha tasdiqlash va moliyaviy holatni yanada yaxshilashni amalga oshirish bo‘yicha har bir oliy ta’lim muassasasi o‘zi moliyaviy manbalarni topishi va jalb qilish mexanizmini ishlab chiqishi lozim bo‘ladi. Kadrlar tayyorlash va boshqaruvni amalga oshirishda har bir jihatni e’tiborga olish lozim.

Sohada innovatsion muhitni shakllantirish va innovatsion boshqaruvni tatbiq etish natijasida zamonaviy ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish imkoni yaratiladi. A.E.Norov o‘z izlanishlarida innovatsiyalarni tijoratlashtirishning ta’lim sohasida yaratilgan ichki mexanizmi va innovatsiyalarni tijoratlashtirish samaradorligini ta’minlash uchun davlat tomonidan yaratilgan tashqi mexanizmlarni hisobga olib, oliy ta’lim muassasalarida innovatsiyalarni tijoratlashtirishni boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqdi<sup>23</sup>. Bizning fikrimizcha, innovatsion ta’limni joriy etish, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash moliyaviy manbalarni tejalishi bilan bir qatorda kadrlar salohiyatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, T.Z.Teshabaev ham o‘z ilmiy izlanishlarida ta’lim tizimini boshqarishda klaster yondoshuvini joriy etish, strategik maqsadlar asosida ichki innovatsion salohiyatni ta’lim jarayoniga to‘liq jalb etish hamda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning uslubiy yondashuvi davlat boshqaruvi takomillashuviga uyg‘un holda oliy ta’lim tizimining o‘zaro bog‘liqligini aniqlash

---

<sup>22</sup> A.Maxmudov. Oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy resurslarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish.// Avtoreferat. 08.00.07-Moliya, pul muomalasi va kredit ixtisosligi. Toshkent-2019.: 45 bet.

<sup>23</sup> A.Norov. Oliy ta’lim muassasalarida innovatsion faoliyat natijalarini tijoratlashtirishni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.// Avtoreferat. 08.00.13 – Menejment ixtisosligi. Toshkent-2021.: 65 bet.



bo'yicha o'z takliflarini ishlab chiqqan<sup>24</sup>. Bizning fikrimizcha, ta'lim tizimida boshqaruvga innovatsiyalarni kiritish, tizimni raqamlashtirish orqali ta'lim sifatini yaxshilash, manfaatlar to'qnashuvini oldini olish, zamonaviy ilm-fan texnologiyalarini qo'llash shu bilan bir qatorda talabalarda mustaqil fikr-mulohaza yuritishni shakllantirish imkoni paydo bo'ladi.

Mamlakatimizda tahsil olayotgan kadrlarning aksariyati o'rtacha 22 yoshdan oshmasligini inobatga olgan holda, bugungi kun ta'lim jarayonlarini yosh avlodga moslash, innovatsion texnologiyalar bilan sohani to'liq qamrab olish, yuqori reyting ko'rsatkichlariga ega bo'lgan oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda akademik mobillikni yo'lga qo'yish bugungi zamonaviy ta'limning asosi hisoblanadi.

A.O.Ochilov o'z tadqiqotida zamonaviy innovatsion iqtisodiyotda menejment tamoyiliga muvofiq «Butun umr davomida ta'lim» («life-learning») konsepsiyasiga o'tish va ta'lim tizimida fanlar sonini optimallashtirish, OTMLlarda o'qish muddatini bir yilga qisqartirish asosida bakalavrlar va magistrilar tayyorlashni boshqarish samaradorligini oshirish, oliy ta'lim sifatini oshirishni boshqarishning ko'p bosqichli modeli taklif etilgan.<sup>25</sup> Fikrimizcha, tajriba va joriy etish mexanizmining tenglikda qo'llanilishi ta'lim tizimini isloh qilish bilan bir qatorda uning rivojlanishiga yo'l ochib beradi. Shu bois, rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi ostida mamlakatimizga mos ta'lim tizimini qo'llashimiz kadrlar tayyorlashda ularning sifatini, bilimini, dunyoqarashini oshirishga zamin yaratiladi.

Qishloq xo'jaligida kadrlar tayyorlash jarayonini samarali tashkil etish, rivojlantirish, mutaxassis-kadrlarning mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Shu boisdan, J.O.Kucharov o'z ilmiy izlanishlaridan qishloq xo'jaligida talab etiladigan kadrlar soni me'yorlarini aniqlash uslubi mehnatning intensivligi, mehnat unumdorligi va mehnat tejamkor texnologiyalardan foydalanish ko'lamini hisobga olish, qishloq xo'jaligida malakali kadrlarni tayyorlash, fan-ta'lim va

---

<sup>24</sup> T.Teshabaev. Oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni axborot texnologiyalari asosida boshqarishni takomillashtirish.// Avtoreferat. 08.00.13 – Menejment ixtisosligi. Toshkent-2019.: 83 bet.

<sup>25</sup> A.Ochilov. Yuqori malakali kadrlar tayyorlashni boshqarish samaradorligini oshirish.// Avtoreferat. 08.00.13 – Menejment ixtisosligi. Toshkent-2018.: 76 bet.

amaliyot integratsiyasini ta'minlashni davlat tomonidan soliq, moliya va kredit dastaklari hamda autstaffing xizmatlarini rivojlantirish orqali rag'batlantirish, agrar ta'lim muassasalariga yangi ta'lim shakli va usullarini samarali joriy etish maqsadida "Qishloq xo'jaligida zamonaviy ta'lim shakllarini sinash va joriy etish markazi"ni tashkil etish va uni moliyalashtirish asosida faoliyatini yo'lga qo'yish taklif etilgan.<sup>26</sup> Fikrimizcha, qishloq xo'jaligida tayyorlanayotgan kadrlar zamonaviy bilimlarga ega bo'lishi uchun yangi ta'lim shakllari va usullarini samarali joriy etish asosida mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish mumkin bo'ladi. Ushbu ishlarni amalga oshirishda ta'lim muassasalariga xususiy sektorni jalb etish orqali ilm-fan ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash, ilmiy tadqiqot ishlarini jadallashtirish, moliyaviy resurslarni jalb etish orqali sohani jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi olimlarning fikrlaridan kelib chiqib, agrar ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, mehnat bozoriga yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun quyidagi muhim vazifalarni qamrab olish va amalga oshirish lozim bo'ladi:

- agrar ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kadrlarga bo'lgan talabni respublika miqyosida aniqlash;

- agrar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash va muassasaning boshqaruvida raqamli texnologiyalardan foydalanish;

- iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida samarali mehnat faoliyatini yo'lga qo'ya oladigan hamda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash darajasining oshishiga xizmat kiladigan zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan kadrlar tayyorlash;

- agrar ta'lim bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim muassasalarini zamonaviy laboratoriya jihozlari bilan ta'minlash;

- yoshlarda agrar soha bilan bog'liq bo'lgan faoliyatni rivojlantirish hamda yashil iqtisodiyot, ekologiya kabi tushunchalar to'g'risida ko'nikmalarni shakllantirish va boshqalar.

---

<sup>26</sup> J.Kucharov. Qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlantirish sharoitida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish yo'llari.// Avtoreferat. 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti ixtisosligi. Toshkent-2021.: 52 bet.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqqan xolda, agrar ta'limga tizim sifatida e'tibor berilsa, mazkur tizimning samarali faoliyati va takomillashishiga ta'sir etuvchi omillar, uni harakatlantiruvchi kuchlar ko'lamini kengligi namoyon bo'ladi. Buning uchun sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, halqaro grantlar va loyihalarni jalb etish, xorij tajribasini jalb etish maqsadida professor-o'qituvchilarni stajirovka va malaka oshirishlarga yuborish, talabalar almashinuvini joriy etish muhim masalalardan hisoblanadi.

## **§ 1.2. O'zbekistonda agrar ta'lim tizimida kadrlarni tayyorlash jarayonini samarali boshqarishning rivojlanish tendensiyalari**

So'nggi yillarda respublikamiz ta'lim tizimida jadal islohotlar olib borilmoqda. Ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqish maqsadida oliy ta'lim muassasalariga bir qator imtiyozlar berilib, globallashtirish sharoitida davlatimizning kelajagini tashabbuskor, strategik va kreativ fikr yuritadigan, bilimli va yuqori malakali yangi avlod kadrlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Mamlakatimiz mustaqilikka erishgandan so'ng ta'lim tizimi bo'yicha o'z yo'nalishlarini belgilab olishi, strategik jihatdan zamonaviy ta'lim prinsiplarini o'zlashtirishi shart ekanligi yaqqol namoyon bo'la boshladi. Shu bois, 1991 yildan boshlab bosqichma-bosqich ta'lim tizimini isloh qilishga e'tibor berildi. O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 2 iyuldagi "Ta'lim to'g'risida"gi 636-XII-sonli qonuni qabul qilishi tizim uchun yangi yo'nalishdagi imkoniyatlarni ochib berdi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 maydagi 203-son "O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida"gi qarori bilan mamlakatimizda oliy ta'lim tizimining boshlanish nuqtasi bo'lgan umumiy o'rta ta'lim va o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash masalasiga huquqiy asos yaratildi hamda sohani jadal rivojlantirishning samarali mexanizmlari joriy etila boshlandi<sup>27</sup>.

---

<sup>27</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 maydagi 203-son "O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida"gi qarori (hujjat o'z kuchini yo'qotgan). [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

Shu bilan bir qatorda, ta'lim tizimida olib borilgan islohotlar natijasini ko'rish va raqobatbardosh kadrlarni yetkazib berish bosh maqsad qilib belgilandi. Ta'lim tizimini isloh qilish, zamonaviy kasblar bo'yicha ta'lim yo'nalishlarini tashkil etish, oliy ta'limda yoshlar qamrovini kengaytirish, oliy ta'lim muassasalarining filiallari, qo'shma ta'lim dasturlari va nodavlat oliy ta'lim muassasalarining tashkil etilishi tizim uchun yaratilgan ishlarning namunasi bo'ldi. Bu oliy o'quv yurtlarida iqtidorli, dunyo qarashi keng, bilimli kadrlarning tarbiyalanishi turli sohalar uchun kadrlarga bo'lgan talabini to'laligicha ta'minlab bera boshladi.

Bugungi kunga kelib respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan ko'plab oliy ta'lim muassasalari tomonidan ijobiy ishlar amalga oshirilib dunyo reyting ko'rsatkichlarida ham yaxshi natijalarga erishmoqda. Shuningdek, dunyoda oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashda o'z nufuzi va o'rniga ega yetakchi bo'lgan oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik ishlari yo'lga qo'yilib, ular bilan tengma-teng raqobatlasha olishi mamlakatimizda ta'lim tizimining aniq strategiyasi ishlab chiqilganligini ko'rsatib beradi.

Umuman olganda, ta'lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirish borasida mustaqillikka erishganimizdan boshlab shu kunga qadar 3 ta qonun, 24 ta farmon, 146 ta qaror, 225 dan ortiq Vazirlar Mahkamasining qarori hamda 78 ta idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Shuningdek, agrar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash mexanizmlarini rivojlantirish va boshqarish maqsadida shu kunga qadar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 ta farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 6 ta qarorlari qabul qilingan.

Shundan kelib chiqib, ta'lim tizimini rivojlanish jarayonining bosqichlarini tahlil qiladigan bo'lsak, shu davrgacha ta'limning eng optimal variantlarini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish, xizmatlar sohasini rivojlantirish, ta'limning izchilligini oshirish, mehnat bozoriga raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va boshqa masalalariga e'tibor berilgan hamda amaliyotga joriy etib kelinmoqda. (1.1-jadval)

**O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini rivojlanish bosqichlari<sup>28</sup>**

<b>Bosqichlar</b>	<b>Bosqichlar davri</b>	<b>Belgilangan maqsad va vazifalar</b>
I-bosqich	1991-1997 yillar	Ta’limni isloh qilish, bizning mentalitetimizga mosligi, kadrlar salohiyati va ish o‘rinlarining mavjudligini o‘rgangan holda kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish davri
II-bosqich	1997-2004 yillar	Ta’lim tizimining samarali faoliyat yuritishi uchun me’yoriy-huquqiy bazani yaratish va mustahkamlash, o‘rta-maxsus, kasb-hunar va ikkinchi ta’limni yo‘lga qo‘yish davri
II-bosqich	2004-2017 yillar	Ta’lim tizimida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish, moliyalashtirish tizimini rag‘batlantirish, ta’limning to‘liq uzluksizligi ta’minlash davri
IV-bosqich	2017 yildan boshlab hozirgacha	Ta’lim olish imkoniyatlarini oshishi, sohaga masofaviy va raqamli texnologiyalarni joriy qilish, ta’lim muassasalariga akademik, tashkiliy va moliyaviy mustaqillik berish hamda ta’lim tizimi orqali Yangi O‘zbekistonni barpo etish davri

Rivojlanish bosqichlarini yillar kesimida ko‘rib chiqqanimizda 1991-1997 yillar mobaynida ta’limni isloh qilish, bizning mentalitetimizga mosligi, kadrlar salohiyati va ish o‘rinlarining mavjudligi kabi bir nechta omillar o‘rganilib, shu asosida kadrlar tayyorlashga e’tibor berilgan.

1997-2004 yillarda kadrlar tayyorlashda qo‘yiladigan asosiy talablarning belgilanishi, nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish, ta’lim tizimida uzviylikni ta’minlanishi, bepul ta’lim tizimining keng qo‘llanishi, iqtidorli yoshlarni chet el mamlakatlarida o‘qishini qo‘llab-quvvatlash jarayonlarining keng joriy etilishi ta’limning sezilarli darajada o‘shirishini ta’minlab berdi.

2004-2017 yillarda mamlakatimizda o‘rta maxsus tizimining 9 yillik qilinishi, xorij tajribasi asosida kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarni tashkil etilishi, ta’limning to‘liq uzluksizligi ta’minlanishi, xorijda talaba va mutaxassis kadrlar malakasini oshirilishiga alohida e’tibor qaratilgan.

Ta’limning rivojlanish bosqichining 2017 yil va hozirgi davriga qadar tub islohotlar negizida, Yangi O‘zbekiston rivojlanishining taraqqiyot bosqichiga chiqishi quyidagicha izohlanadi:

<sup>28</sup> Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

**birinchidan**, yangi ta'lim to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi, kasb-hunar kollejlari tugatilib professional ta'lim va kasb-hunar maktablarining tashkil etilishi;

**ikkinchidan**, ta'lim tizimida raqamli universitet loyihasini joriy etilishi, Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi (HEMIS-Higher Education Management Information Systems) ishlab chiqilishi axborot tizimi "Ma'muriy", "O'quv", "Ilmiy" va "Moliyaviy" jarayonlarini boshqarish modullari amaliyotga keng tadbiq etilishi;

**uchinchidan**, ta'lim jarayonlarini o'qitishda masofaviy, sirtqi, dual, inklyuziv va boshqa shakllarini joriy etilishi, ta'lim olish muddatlarining bakalavriat yo'nalishlari uchun kamida 3 yil, magistratura mutaxassisliklari uchun kamida 1 yil etib belgilanishi;

**to'rtinchidan**, respublika bo'yicha 30 dan ortiq oliy ta'lim muassasalariga akademik, moliyaviy, tashkiliy mustaqillik berilishi, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilinishi, intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etishilishi va h.k.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, amalga oshirilgan asosiy vazifasi ta'lim tizimi ijtimoiy-iqtisodiy o'sishining yangi bosqichga olib chiqish hamda kadrlarga qo'yiladigan talablarni bevosita nazoratga olish va mavjud muammolarni bartaraf etish imkonini beradi. Mamlakatimizdagi hozirgi strategik maqsadlaridan biri sifatida aholining ta'lim olish darajasini oshirish, intellektual salohiyatini mustahkamlash, malakali mutaxassislar sonini ko'paytirish va ta'lim sifatini oshirishga alohida yondoshish lozimligi ko'rsatib o'tilgan. Mamlakatimizda olib borilayotgan izchil islohotlarni hisobga olgan holda ta'lim tizimining uzviyligi va ushbu sohadagi davlat siyosatini amalga oshirishda jamiyatning yangi avlod oldiga qo'ygan qadriyatlari va maqsadlarni o'zida aks etgan. Ayni paytda ta'lim sifatining pasayishi, bilim berishda moliyaviy muammolarning yuzaga kelishi, kadrlar tayyorlash darajasining pastligi kuzatilmoqda. Bundan tashqari, ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlagan holda o'qitish insonni kelajkdagi mutaxassisligiga vizual tayyorlashga yordam bermaydi.

Shu jihatlardan kelib chiqib, agrar soha uchun kadrlar tayyorlab berishda yetakchi hisoblangan oliy ta'lim muassasalarida ham so'nggi yillarda tub islohatlar olib borilmoqda. Zero, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligida eksport ko'lamini kengaytirish, importni qisqartirish, agrar sohaga investitsiyalarni jalb etish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda sanoatni xom-ashyo bilan ta'minlash maqsadida agrar ta'limni rivojlantirish muhim masala bo'lib hisoblanadi. Sohada islohotlarni o'z vaqtida va sifatli ijro etilishida albatta oliy ma'lumotli kadrlarga ehtiyoj seziladi. Respublikamizda agrar soha uchun yuqori malakali va kreativ fikrlaydigan kadrlar tayyorlash esa shu sohada kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasalari zimmasiga tushadi. Shu boisdan, oliy ta'lim muassasalari faoliyatida kadrlar bilan ishlash jarayoni eng murakkab yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Kadrlar tayyorlashda oliy ta'lim muassasalari malakali kadrlar sifatiga alohida e'tibor berishi va ularning ish bilan ta'minlanish darajasini nazorat qilib borishi zarur hisoblanadi. Agrar soha uchun respublikamizda o'z faoliyatini olib borayotgan universitet, institut va filiallar o'z pozitsiyasidan va hududiy joylashuvidan kelib chiqib kadrlar tayyorlashni asosiy maqsad qilib belgilab olgan. Shu bilan bir qatorda mamlakatimiz tomonidan agrar sohaga alohida e'tibor qaratilishi barcha agrar ta'lim muassasalari uchun ijobiy ta'sir ko'rsatib o'z kadrlarini sohalar kesimida joylashishiga va ularning salohiyatini oshirishda malaka oshirish, seminar treninglar, qayta tayyorlash kurslarini yo'lga qo'yish orqali tayyorlanayotgan kadrlarini yanada tajribasini oshirishga bor e'tiborini qaratib kelmoqda. Yurtimizda agrar ta'limni rivojlantirish va oliy ta'lim muassasalari mavqeini oshirish maqsadida qabul qilingan qonun va qonun osti hujjatlar asosida tubdan isloh qilish negizida eng samarali usullar yordamida mehnat bozoriga kadrlar yetkazib berish provard maqsad qilib belgilandi.

Agrar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashni rivojlantirish bo'yicha sohada olib borilgan izchil o'zgarishlar o'z natijasini berib kelmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 3 noyabrdagi 311-sonli "Qishloq va suv xo'jaligi tarmoqlarini oliy ma'lumotli yuqori malakali kadrlar bilan

ta'minlashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori<sup>29</sup> qabul qilinishi agrar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash jarayonini isloh qilish uchun muhim omil bo'lib hisoblanadi. Qarorga asosan:

qishloq va suv xo'jaligi tarmoqlarining zarur ixtisosligi va ma'lumot darajasiga ega bo'lgan oliy ma'lumotli yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash, qishloq va suv xo'jaligi sohasidagi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ular egallagan mutaxassislikka muvofiq ishga joylashtirish ishlarini takomillashtirish;

yetakchi olimlar va tajribali mutaxassislarni o'quv jarayoniga jalb etish, qo'shma tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish, keyinchalik ularning natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish yo'li bilan qishloq va suv xo'jaligi bo'yicha ta'lim, fan va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining integratsiyasini chuqurlashtirish;

qishloq va suv xo'jaligi sohasidagi oliy ta'lim muassasalarining yetakchi xorijiy oliy ta'lim va ilmiy muassasalar bilan hamkorligi mustahkamlanishiga ko'maklashish, o'quv jarayonini yanada takomillashtirish hamda professor-o'qituvchilar tarkibining pedagogik va kasbiy saviyasini oshirish uchun xalqaro grantlarni jalb etish, axborotlarni va to'plangan amaliy tajribani keng ayirboshlash;

qishloq va suv xo'jaligi bo'yicha o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'limning izchilligi va uzluksizligini ta'minlash, o'qituvchilar tarkibining kasb darajasini va o'quv jarayoni sifatini oshirishda, o'quv va metodik adabiyotlar tayyorlashda qishloq va suv xo'jaligi bo'yicha akademik litseylar va kasb-hunar kollejlariga amaliy yordam ko'rsatish;

qishloq va suv xo'jaligi sohasidagi ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini yanada rivojlantirish hamda ularni zamonaviy o'quv-laboratoriya asbob-uskunalari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan jihozlash kabi vazifalarning belgilanishi agrar ta'lim uchun yangi bosqichni boshlab berdi.

Oldinga qo'yilgan maqsadlarni davom ettirish va belgilangan vazifalarni tizimli amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

---

<sup>29</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 3 noyabrdagi 311-sonli "Qishloq va suv xo'jaligi tarmoqlarini oliy ma'lumotli yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)



2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi<sup>30</sup>, 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi<sup>31</sup>, 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-sonli “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi<sup>32</sup> farmonlari, 2020 yil 30 iyuldagi PQ-4795-sonli “Agrar ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi<sup>33</sup>, 2021 yil 24 dekabrda PQ-60-sonli “Davlat oliy ta‘lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi<sup>34</sup>, 2023 yil 7 iyuldagi PQ-216-son “Agrar sohada ilm-fan, ta‘lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi<sup>35</sup> qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 15 dekabrda 788-sonli “Agrar ta‘lim tizimining 2030 yilgacha innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi<sup>36</sup>, qarori agrar ta‘lim tizimini bosqichma-bosqich jadal rivojlantirish uchun dasturu amal bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan bir qatorda, mamlakatimiz rahbari ham agrar ta‘limni rivojlantirish va kadrlar masalasiga alohida to‘xtalib o‘tib 2022/2023-o‘quv yilidan Xalqaro

---

<sup>30</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.

<sup>31</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son.

<sup>32</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-sonli Farmoni // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 24.10.2019 y., 06/19/5853/3955-son.

<sup>33</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 iyuldagi “Agrar ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4795-sonli Qarori // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.07.2020 y., 07/20/4795/1129-son.

<sup>34</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabrda “Davlat oliy ta‘lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-60-sonli Qarori // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 25.12.2021 y., 07/21/60/1177-son.

<sup>35</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 7 iyuldagi “Agrar sohada ilm-fan, ta‘lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-216-sonli qarori // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 10.07.2023 y., 07/23/216/0457-son.


<sup>36</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 15 dekabrda “Agrar ta‘lim tizimining 2030 yilgacha innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 788-sonli qarori // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 16.12.2020 y., 09/20/788/1634-son.

qishloq xo'jaligi universitetini tashkil etilishi hamda u yerga chet ellik o'qituvchilarni jalb qilish, mahalliy murabbiylarning malakasini oshirish zarurligini ta'kidladi. Shuningdek, Toshkent davlat agrar universitetiga 17 million AQSh dollari kredit va grant jalb qilingan. Buning hisobiga universitet laboratoriyasi 129 turdagi zamonaviy asbob-uskuna bilan jihozlanadi, bog'dorchilik, sabzavotchilik, chorvachilik, mexanizatsiya, oziq-ovqat sanoati kabi 20 ta yo'nalish bo'yicha yangi tajriba uchastkalari tashkil etiladi, xorijiy mutaxassislar jalb qilinadi. Bundan tashqari soha uchun o'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlash ham muhimligini ta'kidladi. Buning uchun oliy ta'lim bilan texnikumlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlash kerak. Shu bois mutasaddi vazirliklarga o'rta maxsus o'quv dasturlari, darsliklar va amaliyot tizimini soha korxonalarida talablari asosida qayta ko'rib chiqish muhimligi ta'kidlab o'tdi<sup>37</sup>. Bunday izchil islohotlar natijasi esa agrar ta'lim uchun eng samarali yo'nalish hisoblanadi.

Mazkur belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali nafaqat oliy ta'lim muassasalari o'rtasida raqobat muhitini yaratish, balki tahsil olayotgan talabalarda ham agrar sohaga qiziqishini oshirishi, xorijga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishi bilan aholihida ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, xorijdan jalb etilayotgan mutaxassislarga imkoniyat yaratish, ularni respublikamizda faoliyat olib borishi uchun sharoit yaratish orqali agrar ta'lim tizimini rivojlanishiga turtki bo'ladi. Kelgusida agrar ta'lim muassasalarida boshqaruvni samarali tashkil etishda ushbu xorijlik mutaxassislarni jalb etilishi, albatta bu o'z natijasini berishi mumkin bo'ladi. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida zamonaviy menejment tamoyillari asosida agrar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning rivojlanish tendensiyalarini ishlab chiqish va uni ta'lim tizimini samarali tashkil etish jarayonida amalga oshirish pirovard maqsad bo'lib xizmat qiladi (1.4-rasm).

---

<sup>37</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 27 aprel kuni "Qishloq xo'jaligida loyihalarni amalga oshirish hamda ta'lim sifatini yaxshilash masalalari bo'yicha o'tkazgan yig'ilishi", «Xalq so'zi», 28.04.2022 y., 88 (8150).



**1.4-rasm. O'zbekistonda agrar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning rivojlanish tendensiyalari<sup>38</sup>**

<sup>38</sup> Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Xulosa qilib, mazkur ishlab chiqilgan rivojlanish tendensiyalarini izchillik bilan oliy ta'lim muassasalari faoliyatini olib borishda tadbiq etilsa, albatta bu o'z natijalarini qisqa muddatlarda namoyon etadi hamda kadrlar salohiyatini mehnat bozori talablariga javob beradigan mutaxassislar qilib tayyorlashga xizmat qiladi. Shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlarida raqamli texnologiyalarni qo'llash, resurstejamkor texnologiyalardan samarali foydalanish, iqlim o'zgarishi natijasida turli xil hodisalarni vujudga kelishi hamda yashil iqtisodiyotga o'tish bosqichida ta'lim muassasalarini boshqarishda sog'lom raqobat muhitini shakllantirib, malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash orqali agrar sohani rivojlantirish, aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish hamda aholini ish bilan bandligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida qishloq xo'jaligida ilmiy-tadqiqot, ta'lim va maslahat xizmatlarining ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan bilim va ma'lumotlarni tarqatishning samarali shakllarini qo'llashni nazarda tutuvchi ilm-fan, ta'lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish bo'yicha alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Shu bois, qishloq xo'jaligida ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash, inson resurslarini rivojlantirish va uning salohiyatidan samarali foydalanish, ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot va raqamli texnologiyalarni joriy etish, hududlarni rivojlantirish istiqbollari hisobga olgan holda ilg'or xorijiy tajriba va agrotexnologiyalar bo'yicha yetarli bilim va malakalarga ega bo'lgan kadrlar tayyorlash hamda kafolatli mehnat bozorini shakllantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining 2023 yilning 7 iyuldagi "Agrar sohada ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-216-sonli qarori<sup>39</sup> qabul qilindi. Mazkur hujjat bilan Agrar sohada ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiyalash hamda uning samaradorligini oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ham tasdiqlandi.

---

<sup>39</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 7 iyuldagi "Agrar sohada ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-216-sonli qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.07.2023 y., 07/23/216/0457-son.

Ushbu qarordan kelib chiqib, agrar soha uchun kadrlar tayyorlayotgan ta'lim muassasalari oldiga "Universitet 3.0" va "Universitet 4.0" modeli asosida faoliyat ko'rsatishini taqozo etadi. Bu modellar asosiy maqsadi fan-ta'lim bilan bir qatorda innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirish, ishbilarmon doiralar vakillari bilan samarali muloqot o'rnatish, universitetda texnologik startaplar yaratish, raqamlashtirish va biznes jarayonlari avtomatlashtirish, yuqori texnologiyali sanoatni rivojlantirish, ommaviy ishlab chiqarishdan iste'molchilarning individual talablari asosida xizmatlar ko'rsatish orqali oliy ta'lim muassasalari mahalliy va xalqaro darajada nufuzini va ishonchini oshirishga e'tibor qaratishdan iborat. Shuningdek, rivojlangan davlatlardagi oliy ta'lim muassasalari tajribalaridan kelib chiqib, soha va hududlar iqtisodiyoti yaxshilashda ularning ishtirokini ta'minlash, ishlab chiqarish korxonalarini bilan doimiy ravishda integratsiya qilish orqali zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash mumkin bo'ladi.

Bundan tashqari, globallashtirish jarayonida raqamlashtirish, yashil iqtisodiyotga o'tish, zamonaviy boshqaruv usullari yordamida oliy ta'lim muassasalarida xarajatlarni maksimal darajada kamaytirish va daromadlarni oshirish vazifasi dolzarb hisoblanadi. Buning uchun esa, o'quv rejalaridagi fanlar sonini optimallashtirish, amaliyotlarni samarali tashkil etish, o'qish davrida talabalarning ish beruvchi tashkilotlarda bandligini ta'minlash orqali kadrlar salohiyatini oshirish kabi bir qator vazifalarni amalga oshirish zarur bo'ladi. Shuningdek, agrar oliy ta'lim muassasalarida yangicha boshqaruv tizimini joriy etish, mavjud bo'linmalarning faoliyatini optimallashtirish, xalqaro reytinglarda nufuzini oshirish, mehnat bozori talablariga javob bera oladigan kadrlar tayyorlash, o'quv jarayoni va ta'lim sifati samaradorligini oshirish, boshqaruv jarayoni samaradorligini oshirish maqsadida qarorlarni qabul qilish bo'yicha boshqaruvni markazdan o'rta va quyi bo'g'inga tushirishga e'tibor berilishi agrar ta'lim tizimini rivojlantirish tendensiyalarini amalga oshirishda ham muhim hisoblanadi.

### **§ 1.3. Rivojlangan davlatlarda agrar ta'lim muassasalarini boshqarish bo'yicha ilg'or tajribalar va ulardan O'zbekistonda foydalanish yo'llari**

Jahonda olib borilayotgan ilmiy-nazariy qarashlar natijasida dunyo aholisini ta'lim jarayonlariga e'tibor qaratishi va aholining savodxonlik darajasi oshishi sababli ta'lim xizmatlari ko'rsatishning tubdan o'zgartirib yuborilishiga olib kelindi. Bugungi kunda dunyo bo'yicha Yevropa ta'lim tizimi alohida andoza qilib olinadi. Yevropa ta'lim tizimining mamlakatlar hayotida iqtisodiy-ijtimoiy kontekstida muhim rol o'ynaydi. Butun qit'ada juda ko'p turli xil ta'lim tizimlari mavjud bo'lib, ularning har biri o'z aholisini o'qitishga bo'lgan munosabati va yondashuvlariga ega. Mamlakatlar kelajagining eng muvaffaqiyatli ta'lim tizimlari bu shubhasiz yangi texnologiyalarga eng tez moslasha oladigan va o'quvchilariga raqamli infratuzilmaga kirishni taklif qiladigan tizimlar bo'ladi. Shu bilan bir qatorda yevropacha ta'lim tizimi yosh kadrlarni tayyorlashda davlat standartiga mos model asosida ish olib boriladi.


Yevropada Finlandiya, Estoniya, Germaniya, Gollandiya, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlar ta'lim jarayonlarini ilg'or texnologiyalar asosida tadbiq etishi kadrlar tayyorlashning uzviylikini bog'lagani bilan namoyon bo'ladi. Tadqiqotimiz davomida natijalar shuni ko'rsatdiki, estoniyalik talabalar Yevropada eng yaxshi ma'lumotga ega bo'lgan hamda barcha uch toifa (ijtimoiy, siyosiy va tabiiy fanlar) bo'yicha birinchi o'rinni egallagan. Skandinaviyadagi qo'shnilar bilan bir qatorda, Estoniya maktablari ham sinflarida yangi texnologiyalardan eng yaxshi foydalanish imkoniyatiga ega, ularning o'rta maktablarining 91 foizida Wi-Fi tarmog'i mavjud bo'lsa, Yevropada o'rtacha 67 foizni tashkil etadi.

Estoniyada yalpi ichki mahsulotining anchagina qismi ta'limga sarflanadi, ya'ni YaIMning 5,8 foizi, Yevropa Ittifoqida bu o'rtacha 4,6 foizni tashkil etadi. Yevropada ta'limga eng ko'p xarajat qilgan davlat Shvesiya bo'lib, YaIMning 6,8 foizini tashkil qilgan bo'lsa, ta'limga eng ko'p xarajat qilgan davlat esa, ta'lim xarajatlari har yili o'n foizga oshgan Latviya bo'ldi. 2018 yil holatiga ko'ra, yosh yevropaliklarning taxminan 40 foizi ilmiy darajaga ega bo'ldi, Litvada 30-34 yoshli bitiruvchilarning eng yuqori ulushi 57,6 foizni tashkil etdi. Yevropada

Oksford va Kembrij kabi dunyodagi eng nufuzli universitetlar joylashgan bo‘lib, ular 2020 yilda Yevropadagi eng yuqori reytingga ega universitetlar bo‘lgan.

Ta‘lim statistikasi milliy markazi (IES NCES) ma‘lumotlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, dunyo mamlakatlari aholisining yosh kesimida oliy ma‘lumot darajasi ko‘rsatkichlari, oliy ta‘lim muassasalarida o‘quv yilida qabul qilinadigan talabalar soni, doktorantura yoki unga tenglashtirilgan darajani olish ko‘rsatkichlarining nisbati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni quyidagilar orqali ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida dunyo bo‘yicha oliy ma‘lumotli aholi yoshi va ularning guruhlari bo‘yicha eng yuqori ta‘lim darajasini olib borayotganlar sifatida belgilanadi. Dunyo bo‘yicha ta‘lim oliy ma‘lumotli aholi soni bo‘yicha yetakchi mamlakatlar qatorida Janubiy Koreya, Kanada, Rossiya, Yaponiya kabi mamlakatlar hisoblansa, Janubiy Afrika, Hindiston, Meksika, Kolumbiya singari davlatlarda oliy ma‘lumotli kadrlar ko‘rsatkichi past hisoblanadi. Oliy ma‘lumotli kadrlarni yosh kesimida tahlil qilganimizda, 25 dan 34 yoshgacha bo‘lganlar orasida Janubiy Koreyada 70 foizni, Kanadada 64 foizni, Rossiyada 63 foizni tashkil etgan bo‘lsa, Yaponiyada bu ko‘rsatkich 62 foiz etib qayd etilgan (1.5-rasm).



**1.5-rasm. Dunyo mamlakatlari aholisining yosh kesimida oliy ma‘lumot darajasi ko‘rsatkichlari (2020-2021 yy)<sup>40</sup>**

<sup>40</sup> Manba: <https://nces.ed.gov/>

Shu bilan bir qatorda eng past ko'rsatkichni J.Afrika 14 foiz, Indoneziya 18 foiz, Hindiston 20 foizni qayd etgan. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, rivojlangan mamlakatlardagi ta'lim tizimi, ijtimoiy muhofaza va aholi qatlamining tengligi aholi savodxonligiga bevosita ta'sir etgan.

**1.2-jadval**

**Oliy ta'lim muassasalarida o'quv yilida qabul qilinadigan talabalar soni<sup>41</sup>**

№	Davlatlar nomi	Yillar				
		2017 y	2018 y	2019 y	2020 y	2021 y
1	Janubiy Koreya	85000	87000	87600	88000	90000
2	Saudiya Arabistoni	89000	90500	92400	93100	94500
3	Angliya	91200	92100	93500	94700	96000
4	Yaponiya	91400	92800	94000	95000	97000
5	Gollandiya	92000	93500	95000	96500	98000
6	Finlandiya	93500	95000	96500	98000	99500
7	Germaniya	94000	95500	97000	98500	100000
8	Italiya	94000	95500	97000	98500	100000
9	Slovakiya	95000	96500	98000	99500	101000
10	Gresiya	95500	97000	98500	100000	101500
11	Indoneziya	96300	97800	99300	100800	102300
12	Latviya	96500	98000	99500	101000	102500
13	AQSh	96700	98200	99700	101200	102700
14	Avstriya	96950	98450	99950	101450	102950
15	Fransiya	97000	98500	100000	101500	103000
16	Shvesariya	97200	98500	100000	101500	103000
17	Xitoy	97000	98500	100000	101500	103000
18	Belgiya	97100	98600	100100	101600	103100
19	Ispaniya	97500	99000	100500	102000	103500
20	Izroil	97600	99100	100600	102100	103600
21	Kanada	97800	99300	100800	102300	103800
22	Norvegiya	97900	99400	100900	102400	103900
23	Yangi Zelandiya	98000	99500	101000	102500	104000
24	Luksemburg	98500	100000	101500	103000	104500
25	Estoniya	99500	101000	102500	104000	105500
26	Avstraliya	102000	103500	105000	106500	108000
27	Hindiston	103000	104500	106000	107500	109000
28	Turkiya	108000	109500	111000	112500	114000
29	Rossiya	109000	110500	112000	113500	115000
<b>Jami</b>		<b>2804150</b>	<b>2847250</b>	<b>2889850</b>	<b>2930650</b>	<b>2974850</b>

*Izoh: Ushbu ko'rsatkichlar mamlakatlardagi ta'lim jarayonidagi maxsus indekslar asosida hisoblab chiqilgan. Bunda boshlang'ich, o'rta, o'rta ta'limdan keyingi ta'lim hisobga olingan.*

Globalashuv jarayonida ta'limni davlatlar tomonidan o'rta maktab, litsey va kollejlarni tamomlaganda ularni to'g'ri maqbul sohalarga yo'naltirish asosiy maqsad hisoblanib, bunda ularning qiziqishlari, yashash muhiti ham inobatga olinadi. Universitet bosqichiga o'tish va ularni oliy ma'lumotli kadrlar qilib

<sup>41</sup> Manba: <https://nces.ed.gov/>



tayyorlashda hamda kasbga yo'naltirishda maxsus dasturlar qabul qilingan bo'lib, maktab va universitet integratsiyasi tizimli yo'lga qo'yilgan. Jahon tajribasidan bizning ta'lim tizimimizda qo'llash mumkin bo'lgan asosiy yo'nalishlarni alohida belgilab olishimiz kelgusida rivojlangan mamlakatlar andozasi asosida ta'limni yo'lga qo'yish imkoniyati yaratiladi. Oliy ta'lim muassasalarida dunyo bo'yicha qabul jarayoni turlicha tizimda amalga oshirilishi kvotalarini mustaqil universitetlarning o'zi belgilashi ko'pgina mamlakatlarda talabalar sonining nisbiy hisoblash imkonini beradi. Bunda ko'pgina mamlakatlar qabul jarayonini universitetga topshiradigan talabalar sonini o'z indeksleri asosida hisobga oladi (1.2-jadval).

Shu bilan bir qatorda, universitetni tamomlagan bitiruvchilar hamda mutaxassis kadrlarni keyingi ta'limni davom ettirish ko'rsatkichlarini tahlil qilganimizda doktorantura va unga tenglashtirilgan darajani olish qoloq mamlakatlarda ko'rsatkichning pastligi bir tomondan to'g'ridan-to'g'ri ta'lim sifatiga ham ta'sir ko'rsatishini ko'rishimiz mumkin (1.3-jadval).

### 1.3-jadval

#### Doktorantura yoki unga tenglashtirilgan darajani olish ko'rsatkichlarining nisbati (erkaklar va ayollar)<sup>42</sup>

№	Davlatlar nomi	Doktorantura yoki unga tenglashtirilgan darajani olish, erkaklar	Doktorantura yoki unga tenglashtirilgan darajani olish, ayollar
1	Chili	0,18	0,14
2	Luksemburg	0,2	0,2
3	Latviya	0,23	0,22
4	Estoniya	0,46	0,6
5	Portugaliya	0,51	0,62
6	Finlandiya	0,63	0,6
7	Avstraliya	0,68	0,7
8	Ispaniya	0,84	1
9	Belgiya	0,98	0,8
10	Chexiya	1	0,8
11	Avstriya	1	0,63
12	Gollandiya	1,05	1,18
13	Daniya	1,2	1,13
14	Shvetsariya	1,28	1,14
15	Angliya	1,35	1,19
16	Germaniya	1,77	1,63

<sup>42</sup> Manba: <https://nces.ed.gov/>

Jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, Chilida daraja olish 0,18 ga 0,14; Luksemburg 0,2 ga 0,2; Latviya 0,23 ga 0,22 ni tashkil etgan bo'lsa, eng yuqori ko'rsatkich Daniya 1,2 ga 1,13; Shvetsariya 1,28 ga 1,14; Angliya 1,35 ga 1,19; Germaniyada esa 1,77 ga 1,63 ni tashkil etgan. Daraja olish har bir mamlakat o'z ta'lim sohasini rivojlantirish ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish sohalar integratsiyasini oshishiga olib keladi.


Bugungi kunda texnologiya, huquqshunoslik, IT sohalari, tibbiyot, iqtisodiyot, pedagogika ta'lim yo'nalishlariga Yevropa, Amerika qit'alarida talabning judayam ko'pligi bilan alohida ajralib turadi. Bundan tashqari agrar ta'lim yo'nalishlarining mavjudligini ham alohida e'tibor qaratish lozim. To'g'ri, bugungi kunda dunyo reytingi TOP 1000 talikda agrar ta'lim muassasalarini uchratish qiyin, ammo oziq-ovqat havfsizligini ta'minlashda va sohaga yetuk kadrlarni tayyorlashda bu oliy ta'lim muassasalarining o'rni alohida ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda rivojlangan mamlakatlar ta'lim sohasini ko'rib chiqamiz. Germaniya Federativ Respublikasi Yevropada o'z ta'lim tizimining mukammalligi bilan ajralib turadi.

Germaniya ta'lim tizimi asosan o'z pozitsiyasidan kelib chiqib yoshlarning qadr-qimmatini va ularni kelajagini o'ylagan holda tashkil etilgan. Germaniyada 2009-2010 o'quv yilida 424273 nafar talaba birinchi kursga qabul qilingan. 2020-2021 o'quv yilida esa 490204 nafar talaba qabul qilingan. 2020 yilda 2009 yilga nisbatan talabalar qabuli o'rtacha 1,15 barobar ko'proq qabul amalga oshirilgan. Shuning bilan bir qatorda 2011 yildan 2019 yilgacha qabul ko'rsatkichi 500 mindan kam bo'lmagan. Bu esa oliy ta'lim muassasalariga talabalar oqimining kamayishini ko'rsatadi (1.6-rasm).

Mamlakatda ta'lim jarayonlarini boshqarishda yuqori turuvchi organ va vazirliklar sifat darajasiga alohida e'tibor qaratishi natijasida bugungi kunga qadar Germaniya ta'lim jarayoni o'zgacha yondoshuv natijasi asosida faoliyat olib bormoqda. Shuningdek, ta'lim muassasalarini boshqaruv tizimini ham doimiy ravishda takomillashtirish, zamonaviy menejment usullaridan foydalanish, ish

beruvchilar bilan hamkorlikni yanada kengaytirish ustida ish olib boradi hamda natijada malaka kadrlar tayyorlashda ijobiy natijalarga erishishi bilan izohlanadi.




**1.6-rasm. Germaniyada 2009-2021 yillarda birinchi kurs talabalari soni<sup>43</sup>**

Yuqoridagi fikrimizni to'ldirish va Germaniya universitetlarining dunyo va mamlakat reytingida alohida ahamiyatga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Birgina mamlakatning 20 dan ortiq universitetlari TOP-1000 talik reytingda mavjudligi ham xalqaro maydonda ham o'z o'rniga ega ekanligini ko'rsatib beradi.

Germaniyada kuchli universitetlar reytingi asosan bitiruvchilarning ishga joylashish ko'rsatkichi, ilmiy salohiyat, qabul kvotasi, moliyaviy tomondan mustaqilligi hamda pul mablag'larini universitet hisobiga kelib tushishi (ihtirolar, konsalting, xizmat ko'rsatish, amaliyot, seminar treninglar tashkil etish) orqali, shuningdek xalqaro hamkorlik ko'rsatkichlari orqali baholanadi. Shu bois, universitetlarni boshqaruv tuzilmasining aniq va raqamlashtirilgan tizimda ishlashi ham universitet reytingida alohida o'rin egallaydi (1.7-rasm). Germaniyada faoliyat olib borayotgan TOP-20 reytingda yetakchi universitetlar tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkichni Lyudvig Maksimliana Universiteti 77,8 % ko'rsatkich

<sup>43</sup> <https://www.statista.com/topics/7319/education-in-germany/>


bilan yetakchi hisoblanib bu universitet asosan, gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy fanlar bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlaydi.



**1.7-rasm. Germaniyaning Top-20 reytingida yetakchi universitetlar ro'yxati (2022 y)<sup>44</sup>**

Yuqori reytingga ega bo'lgan universitetlar boshqaruv tuzilmasi va ularning faoliyati tahlil qilinganda boshqaruvda kengashning mavjudligi va ularning boshqaruvida prezident lavozimining mavjudligi hamda boshqaruv jarayonlarining bitta bo'g'ida birlashmasligini ko'rishimiz mumkin. Hisobotni asosan kengashga yoki kengaytirilgan boshqaruv kengashiga taqdim etilishi va boshqaruvdagi muammolarni to'liqligicha bartaraf etilishi universitet boshqaruv tuzilmasining universalligini ko'rsatib beradi (1.8-rasm). Shuningdek, ushbu jarayonlar malakali kadrlar tizimini oqilona yo'lga qo'yish va ish beruvchi tashkilotlar bilan muntazam ravishda hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishni talab etadi. Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni tashkil etish va olib borishda Germaniya ta'lim muassasalarini tajribasini boshqa davlatlar ta'lim tizimini boshqarishda qo'llash mumkinligi to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi.

<sup>44</sup> <https://www.statista.com/topics/7319/education-in-germany/>




**1.8-rasm. Lyudvig Maksimiliana universitetining boshqaruv tuzilmasi<sup>45</sup>**

Shu bilan bir qatorda, Germaniya oliy ta'lim muassasalarini tamomlash va ishga joylashish ko'rsatkichi so'ngi yillarda ijobiy natijaga erishib kelmoqda. Shuningdek, Germaniyada oliy ta'limni tamomlash 8 yilgacha cho'zilishi va bakalavriat bosqichini 3 yoki 4 yilda tamomlash ko'rsatkichi judayam yuqori

<sup>45</sup> <https://www.lmu.de/en/>

hisoblanmaydi. Bugungi kunda ishlab chiqarish va ta'limni bog'lash Germaniya andozasi asosida tadbqiq etish eng maqbul variantlardan biri hisoblanadi. 2021 yilda Germaniya oliy ta'lim muassasalarini 236472 nafar bitiruvchi kadrlar tamomlagan bo'lsa, 2010 yilda bu ko'rsatkich 61820 nafarni tashkil etgan. 2021 yilda 2010 yilga nisbatan 386,9% ga oshganini ko'rishimiz mumkin. Ammo 2016-2020 yillar mobaynida bitiruvchi talabalar soni 2021 yilga nisbatan 0,01% ga ortiq bo'lgani kuzatilgan (1.9-rasm). Buning asosiy sabablaridan biri sifatida 2021 yilda dunyo bo'yicha kuzatilgan pandemiya, xalqaro aloqalarning qisman to'xtatilishi bilan izohlash mumkin. 2020 yilda barqarorlashuv natijalari orqali bu ko'rsatkichlarning oshishi prognoz qilingan.



**1.9-rasm. 2010-2021 yillarda Germaniyada bitiruvchilar soni<sup>46</sup>**

Bitiruvchilar sonini umumiy hisobda oshishining yana bir sabablaridan biri ta'limning sifatli ekanligi hamda universitetlarning aniq soha bo'yicha ixtisoslashuvi nodavlat hamda davlat tasarrufidagi oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi kuchli raqobat muhitining shakllanishi va kadrlar bilan ta'minlash darajasi eng yuqori bo'lgan universitetlarga bo'lgan talab nafaqat Germaniya balki butun dunyo abituriyentlarini o'ziga jalb etadi. Germaniya ta'lim jarayonlarining oddiy, sodda, tartibli tashkil etilishi bitiruvchilar o'rtasida o'zaro raqobat muhitining shakllanishi, mehnat bozorida kadrlarga bo'lgan talab yillar kesimida oshib borishi har bir universitet mavqeini oshishiga olib kelmoqda. Yuqoridagi


<sup>46</sup> <https://www.statista.com/topics/7319/education-in-germany/>

fikrimizni isboti sifatida eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan universitet saytlarida bitiruvchi kadrlar uchun mehnat bozori va ish beruvchilar o'rtasida kontakt yo'lga qo'yilganligi bitiruvchilar o'quv jarayoninin tugatish arafasida ish bilan ta'minlanishi va ularga qo'yiladigan talab ish beruvchilar tomonidan shaffof tarzda e'lon qilinishi imkoniyatlarning kengayishi va kasbga bo'lgan intilishni belgilab beradi.

Agrar ta'lim bo'yicha Germaniyadagi eng nufuzli universitet doimiy ravishda qishloq xo'jaligiga yetuk mutaxassis kadrlar ta'minlash bilan bir qatorda ikki kampusdan tashkil topgan Weihestephan-Triesdorf amaliy fanlar universitet hisoblanib, universitet 7 ta fakultetni o'z ichiga oladi (1.10-rasm). Universitetda 19 ta bakalavriat va 18 ta magistratura mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlab keladi. Ikkala kampusda Weihestephan va Triesdorfdan kadrlar tayyorlashda o'qitish va tadqiqot bo'yicha keng ko'lamlil amaliy tajribani taklif etadi:

Mazkur universitetda ham boshqaruv jarayonlarini o'ziga xos xususiyatlarda tashkil etilganligi bilan ajralib turadi. Jumladan, universitet boshqaruv kengashi, kansler, senat va markaziy bo'limlarning uzviy aloqalarda vazifalarni amalga oshirishi natijasida qishloq xo'jaligi uchun malakali kadrlar tayyorlanib kelinmoqda. Shuningdek, ushbu universitetda kadrlar buyurtmachilari, talabalar, abituriyentlar, ota-onalar va aholi uchun ta'lim xizmatlari ko'rsatishning yuksak namunasini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Bu albatta, universitet nufuzi va mavqeini oshirishda, ta'lim xizmatlari bozorida xizmat ko'rsatishning ustuvor yo'nalishlaridagi vazifalar ijrosini ta'minlash, ko'zlangan maqsadga samarali boshqaruv usullari yordamida erishishda muhim hisoblanadi.

Bitiruvchilarni muvaffaqiyatga erishishlari to'g'ridan-to'g'ri ilmiy-amaliy yo'nalishlarda ishlab chiqaruvchi korxonalarda amaliyot o'tashlari asosida yetuk kadr bo'lib shakllanishiga olib keladi. Bu orqali agrar ta'lim kadrlarini to'g'ridan-to'g'ri mehnat bozoriga chiqishiga imkoniyat yaratib beradi. Universitet institutlar, uyushmalar, sanoat va kichik biznes korxonalari bilan bog'liq holda o'z faoliyatini yo'lga qo'yib, dual ta'lim tizimidan foydalanib kelmoqda.



**1.10-rasm. Weihenstephan-Triesdorf amaliy fanlar universitetining boshqaruv tuzilmasi<sup>47</sup>**

Universitet globallashtirish jarayonida bitiruvchi kadrlarni mehnat bozoriga moslashtirish maqsadida chet elda xalqaro ikki darajali dasturlar ishlab chiqilgan hamda dunyo bo'ylab 80 dan ortiq ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatgan.

<sup>47</sup> Manba: [www.hswt.de](http://www.hswt.de)




Shu bilan bir qatorda, agrar ta'lim muassasalarining o'zgacha uslub yondashuv asosida rivojlanish strategiyasiga ega mamlakat Gollandiya ham qishloq xo'jaligini rivojlantirishda kadrlarga bo'lgan talabni to'liq qondirish asosida agrar oliy ta'lim muassasalarini boshqarishga o'zgacha yondashilgan. Gollandiya ta'lim tizimi ham Yevropaning bir qator davlatlari kabi standart asosida olib boriladi hamda Germaniya ta'limiga juda o'xshash lekin agrar soha bo'yicha kadrlar yetkazib berishda yevropada alohida o'ringa ega.

Gollandiya universitetlari orasida (agrar ta'lim muassasasi) yetakchi o'rinlarda turuvchi Wageningen universiteti hisoblanib universitet yiliga 3 000 dan ortiq bitiruvchilar o'z mutaxassisligi bo'yicha o'qishni tamomlaydi. Universitetning asosiy kuchi tadqiqot institutlari va universitetning o'ziga xos kombinatsiyasidir. Bu orqali ilmiy faoliyatni va talabalarni to'g'ridan-to'g'ri bog'lash orqali sohalar uchun professional kadrlar tayyorlash imkoniyati yaratiladi. Turli xil tabiiy, texnologik va ijtimoiy fanlar bo'yicha amalga oshirilayotgan hamkorlik ilmiy yutuqlarning amaliyot va ta'limga tez aylanishini ta'minlaydi. Bu yondashuv "Wageningen yondashuvi" deb atalib, shu orqali hukumat, biznes hamkorlar va nodavlat, notijorat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatining to'liq yaratilishi eng muhim ajralmas qism hisoblanadi. Bu asosiy muammolarni yechimini topish va ularni davlat miqyosida bartaraf etish imkonini beradi. Wageningen universiteti va tadqiqot domeni uchta asosiy yo'nalishlardan iborat:

**Biologik asosda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasi bo'yicha:** Oziq-ovqat, yem-xashak va biomahsulotlar yetishtirishda asosiy yo'nalishlarni belgilab olish, barqaror ishlab chiqarish va qayta ishlashni, xalqaro oziq-ovqat zanjirlari va tarmoqlarini, oziq-ovqat xavfsizligi va aholi sog'lig'i bo'yicha muhim jihatlarni o'z ichiga oladi.

**Tabiiy resurslar muhiti sohasi bo'yicha:** Asosiy hududlar bo'yicha tabiiy resurslar muhiti va tabiat, landshaft, yerdan foydalanish, suv, dengiz va tabiiy resurslarni boshqarish va biologik xilma-xillikning asosiy qismlarini o'z ichiga oladi.

**Jamiyat farovonligi va aholini qishloq joylarida yashash muhitini yaxshilash sohasi bo'yicha:** Jamiyat farovonligini yaxshilashda qishloq joylari infrastrukturasi takomillashtirish, aholining yashash muhiti, turmush tarzi, shuningdek, institutlar va boshqaruv mexanizmlarini tashkil etish, bozor va ijtimoiy innovatsiyalarni o'z ichiga oladi.




**1.11-rasm. Wageningen universitetining boshqaruv tuzilmasi<sup>48</sup>**

<sup>48</sup> <http://www.wur.nl>

Gollandiya oliy ta'lim tizimida mavjud muammolar universitet yoki institut kengashlari orqali ko'rib chiqilishi, menejmentning zamonaviy tamoyillari asosida qaror qabul qilinishi alohida jihatlardan biri sanaladi. Qishloq xo'jaligiga aloqador bo'lgan oliy ta'lim muassasalari ham shu prinsip asosida ish yuritishlari kadrlar salohiyatiga ta'sir etishini ko'rsatib beradi. Kadrlarning ta'lim muassasasiga kirishi va ishlab chiqarish korxonalariga ishga joylashishi ularning to'g'ri ta'lim yo'nalishlariga yo'naltirilganligi boshqaruvning mukammalligi bilan talaba bilan universitetning o'zaro hamkorligi boshqaruv uslubining bir bo'g'ini hisoblanadi. Gollandiya qishloq xo'jalik universiteti va dunyoda o'z mavqeiga ega bo'lgan Wageningen universiteti tashkiliy tuzilmasida tadqiqot universitetlarining mavjudligi kadrlarni tayyorlashda ishlab chiqarish korxonalarining bog'langanligi markaziy bo'limlar, fakultetlar hayotida maqbul yechimlarni ta'minlanishi, moliyaviy mustaqil harakatlanishini ta'minlaydi (1.11-rasm).

Wageningen universitetida boshqaruv kengashining moliyaviy resurslarni nazorat qilishi va ularning tushumini oshirish maqsadida bir qator tizim tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan. Shu o'rinda bir savol tug'iladi universitet mablag'larni jalb qilishda va uni sarflashda nimalarga ahamiyat beradi va bu o'zini oqlaydimi? Universitetning bu darajada yaxshi tizimni yo'lga qo'ya olishi avvalo samarali boshqaruvda raqamlashtirish tizimining joriy etilishi asosida yuzaga kelgan. Universitet 2018-2021 yillar davomida 400 mln. yevrodan ortiq mablag'ni o'ziga jalb qilib kelmoqda. Bu kadrlarni tayyorlashda universitetni modernizatsiyalashda va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. 2021 yilda universitet to'g'ridan-to'g'ri davlat mablag'lari hisobidan 270 mln. yevro, davlat tomonidan ajratilgan bilvosita mablag'lar esa 36 mln. yevroni tashkil etgan (1.12-rasm).



**1.12-rasm. 2021 yilda Wageningen universiteti tomonidan ishlab topilgan va jalb etilgan mablag'lar (mln.yevro)<sup>49</sup>**

Umumiy hisobda 431 mln. yevro mablag' universitet tomonidan ishlab topilgan bu birgina universitet uchun yuqori summa hisoblanadi. Shuning negizida zamonaviy, kreativ fikrlaydigan kadrlar tayyorlash imkoni yaratiladi, bunda so'nggi zamonaviy texnologiyalar, nobel mukofoti laureantlari, dunyo tan olgan olimlar, top 10 talik reytingdagi universitetlar bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yilishi ham alohida o'rin tutadi. Shu bilan birga bu mablag'lar universitet ilmiy salohiyatini oshirish va malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Universitetda 2021/2022 o'quv yilida 13153 nafar talaba tahsil olib, 19 ta bakalavriat, 31 ta magistratura mutaxassisliklari, 46 yo'nalishda ochiq onlayn kurslar mavjud bo'lib, 200 nafardan ortiq professorlar sohalar bo'yicha kadrlar tayyorlanishida o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Yevropa mamlakatlari ta'lim jarayonlari bilan bir qatorda Osiyoda ham ta'limning eng zamonaviy usullari asosida o'qitiladi. Jumladan Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Singapur kabi mamlakatlar Osiyo mamlakatlari o'rtasida yetakchi hisoblanadi. Xitoy oliy ta'lim tizimini ko'rib chiqadigan bo'lsak, so'nggi yillarda Xitoylik bakalavriat yo'nalishi bosqichidagi talabalar orasida eng ko'p ma'qullangan mutaxassisliklar moliya, fuqarolik ishlari, elektrotexnika va mashinasozlik, xalqaro savdo, iqtisod, buxgalteriya, tibbiyot, huquq bo'ldi. Shu

<sup>49</sup> <http://www.wur.nl>

bilan birga, mashhur, yuqori raqobatbardosh ta'lim sohalari ham har doim ham o'qishni tugatgandan so'ng tez va muvaffaqiyatli ishga joylashishni kafolatlamaydi. Bu kadrlar o'rtasida mehnat bozorining shakllanishi bilar bir qatorda kuchli raqobat muhitini uyg'otadi.


Xitoyda bitiruvchilarning ishga joylashish ko'rsatkichi juda ijobiy baholanadi o'qishni tugatgandan keyin yarim yil ichida bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanish darajasi so'nggi yetti yil ichida Xitoyda odatda barqaror bo'lib, o'rtacha 90 foizdan oshdi. Xitoyda bitiruvchilarning asosiy qismi ish topishda qiynalmasligi bilimli to'liq kasbiy salohiyatga ega ekanligi birinchi sabab bo'lib ko'rsatilsa, ish topishda qiynalayotganlar esa odatda kamroq muloqotga ega bo'lishganligi, texnik, ilmiy tomonlama tajribasizligi tanqidiy fikrlash va boshqaruv qobiliyatlariga ega emasliklari asosiy sabab qilib ko'rsatilgan. Xitoy universitetlarining bitiruvchilari o'rtacha oylik ish haqi so'nggi o'n yil ichida 120 foizdan oshdi. Ammo, Pekin yoki Shanxay kabi shaharlarda yuqori ijara va yashash xarajatlari ko'pincha yosh bitiruvchilarni o'z shaharlariga qaytishga yoki ikkinchi va uchinchi darajali shaharlarda ish qidirishga majbur qiladi.

Universitetlar ichida birgina Xitoy qishloq xo'jaligi universitetini ko'rib chiqadigan bo'lsak, Xitoy qishloq xo'jaligi universitetida hozirda 11500 dan ortiq bakalavr talabalari tahsil oladi. Universitetda qishloq xo'jaligi fanlari, muhandislik, iqtisodiyot, menejment, huquq kabi 7 ta soha bo'yicha 67 ta bakalavriat yo'nalishlari mavjud. Xitoy qishloq xo'jaligi universiteti 1905 yilda tashkil etilgan bo'lib, dastlab Jingshi Daxuetang qishloq xo'jaligi universiteti sifatida o'z faoliyatini boshlangan. 1949 yil sentabrida Pekin universitetining qishloq xo'jaligi kolleji, Tsingxua universitetining qishloq xo'jaligi kolleji va Shimoliy Xitoy universitetining qishloq xo'jaligi kolleji birlashib, Pekin qishloq xo'jaligi universitetini tashkil qildi.

Uzoq vaqt davomida universitet Xitoy bo'yicha eng nufuzli oliy ta'lim muassasasi sifatida e'tirof etib kelinmoqda. Universitetda talabalarga birlik, soddalik, haqiqatni izlash va innovatsiyalarni yaratish bo'yicha chuqur tahlil etadigan kadrlarni yaratishda ham samarali faoliyat olib bormoqda.

2021 yil holatiga ko‘ra, Xitoy qishloq xo‘jaligi universiteti bitiruvchilarining umumiy bandlik darajasi 94,6 foizni tashkil etgan bo‘lsa, shundan bakalavriat bitiruvchilarining bandlik darajasi 93,5%, magistratura bitiruvchilarining bandlik darajasi 96,03%, doktorantura bitiruvchilari bandligi 95,75% ni tashkil etgan. O‘tgan yillarga nisbatan Xitoyda ta‘limning keyingi bosqichida o‘qishni davom ettirayotgan talabalar soni ortib bormoqda. Bu aynan qishloq xo‘jaligi sohasiga bo‘lgan talabning ortib borishi mamlakat bo‘ylab kadrlarning taqsimlanishi ijobiy tomonga o‘zgarishi bilan izohlanadi.

Shuningdek, universitetda bitiruvchilar o‘rtasida ta‘limning keyingi bosqichlarida o‘qishni davom ettirishga intilishlari ko‘zga tashlanadi.



**1.13-rasm. 2021 yilda Xitoy qishloq xo‘jaligi universiteti bitiruvchilarining bandlik ko‘rsatkichi<sup>50</sup>**

Universitet bitiruvchilarining ko‘rsatkichlariga e‘tibor beradigan bo‘lsak, 15 foiz bitiruvchilar chet elda o‘qishini davom ettirayotganligi, 36 foiz bitiruvchilar o‘qishni tugatib o‘z yo‘nalishlari ishlayotganligi, 42 foiz bitiruvchilar ta‘limning keyingi bosqichlari magistratura va doktoranturada o‘qishini davom ettirishi hamda 7 foiz bitiruvchilar boshqa faoliyat bilan shug‘ullanishlarini ko‘rishimiz mumkin (1.13-rasm).

Xitoy qishloq xo‘jaligi universiteti bitiruvchilarining aksariyati o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha ish bilan band bo‘lishi kadrlar o‘rtasida raqobatning keskin

<sup>50</sup> <http://www.cau.edu.cn>

oshishiga va ularga qo'yilayotgan talablarning ish beruvchilar tomonidan qat'iy tartibda belgilanishi, universitetlarning shu talablar asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etishga undamoqda. Xitoy qishloq xo'jaligi universitetining 2021 yilgi ma'lumotlariga ko'ra, bakalavriat bitiruvchilari 67 ta yo'nalishni, magistratura bitiruvchilari 110 ta, doktorantura bitiruvchilari esa 69 ta yo'nalishni o'z ichiga olgan.

Bakalavriat va magistratura yo'nalishlari bitiruvchilarini asosiy qismi ko'proq nimaga e'tibor berishi ularning qiziqishlari va sohalar kesimidagi talabga bog'liq bo'ladi. Ushbu yo'nalishlarni bitirganlarning bandlik ko'rsatkichi bakalavriat, magistratura yo'nalishlarining asosiy qismi ishlab chiqarish sohalarida faoliyat yuritayotgan bo'lsa, doktorantura mutaxassisliklarida esa ilmiy tadqiqot ishlariga kollej va universitetlarda faoliyat yuritib kelmoqda (1.4-jadval).

#### 1.4-jadval


#### Xitoy qishloq xo'jaligi universiteti bitiruvchilari uchun bandlik yo'nalishlari to'g'risida ma'lumot (2021 yil bo'yicha)<sup>51</sup>

Bandlik yo'nalishlari	Bakalavriat (%)	Magistratura (%)	Doktorantura (%)	Jami (%)
Davlat va hukumat organlari	9	13	7	<b>29</b>
Ilmiy-tadqiqot ishlari	5	3,1	42,7	<b>19</b>
Kollejlar va universitetlar	5	4,3	30,6	<b>39,9</b>
Biznes sohasida	10	15	10,9	<b>67,7</b>
Ishlab chiqarish korxonlari	59	57	5,6	<b>121,6</b>
Boshqa faoliyatlar	12	7,6	3,2	<b>22,8</b>

Yevropa va Osiyo mamlakatlari agrar ta'lim tizimida eng yuqori natijaga erishishi, kadrlar bandligini to'la qonli ta'minlay olishi shuningdek, ta'limni rivojlantirishdagi tajribasini mamlakatimizda qo'llash imkoniyatini yaratishimiz va jahon andozasi asosida ta'lim jarayonlarimizni tashkil etishimiz va kadrlar almashinuvini yo'lga qo'yishimiz mumkin bo'ladi.

<sup>51</sup> <http://www.cau.edu.cn>

Shuningdek, tadqiqot ishimizda Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlari o'rtasida nufuzli o'ringa ega bo'lgan S.Seyfullin nomidagi Qozog'iston agrotexnika tadqiqotlari universiteti bitiruvchilarining bandlik darajasi tahlil qilindi (1.13-rasm). Ushbu universitet ham Qozog'istonda agrar soha uchun malakali kadrlar tayyorlashda yetakchi ta'lim muassasasi sifatida faoliyat ko'rsatib, asosan kadrlar buyurtmachilari bilan uzviy integratsiya aloqalarini o'rnatganligi bois ijobiy natijalarga erishib kelmoqda.



#### **1.14-rasm. S.Seyfullin nomidagi Qozog'iston agrotexnika tadqiqotlari universiteti bitiruvchilarining bandlik ko'rsatkichi<sup>52</sup>**

Universitet bitiruvchilarining ko'rsatkichlariga e'tibor beradigan bo'lsak, 3 foiz bitiruvchilar chet elda o'qishini davom ettirayotganligi, 45 foiz bitiruvchilar o'qishni tugatib o'z yo'nalishlari ishlayotganligi, 12 foiz bitiruvchilar ta'limning keyingi bosqichlari magistratura va doktoranturada o'qishini davom ettirishi hamda 40 foiz bitiruvchilar boshqa faoliyat bilan shug'ullanishlarini ko'rishimiz mumkin (1.14-rasm).

O'zbekistonda agrar yo'nalishlarda kadrlar tayyorlanayotgan oliy ta'lim muassasalarida samarali boshqaruv usullarini joriy etish, jahonda ilg'or hisoblangan texnologiyalardan foydalana oladigan mutaxassis kadrlar tayyorlashda xorij mamlakatlaridagi qo'llanib kelinayotgan ijobiy natijalardan foydalanilsa, samarasi yanada yuqoriroq bo'lishiga zamin yaratiladi. Bundan tashqari, agrar

<sup>52</sup> <https://kazatu.edu.kz/>.



ta'lim tizimining o'ziga xosligidan kelib chiqib, tabiiy omillar ta'sirini kamaytirishda ham hisobga olish zarur hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi respublikamizda agrar ta'lim tizimini samarali boshqarishda xorijiy tajribalardan foydalanishning muhim jihatlari keltirib o'tildi (1.5-jadval).

### 1.5-jadval

#### Respublikamizda agrar ta'lim tizimini samarali boshqarishda xorijiy tajribalardan foydalanishning muhim jihatlari<sup>53</sup>

№	Xorijiy tajribalar tahlili	Xorijiy tajribalarni mamlakatimizda qo'llashning muhim jihatlari
1	<p><b>Germaniya</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- oliy ta'lim muassasalari veb-saytlarida bitiruvchi kadrlar uchun mehnat bozori va ish beruvchilar o'rtasida uzviy aloqaning yo'lga qo'yilganligi;</li> <li>- oliy ta'lim muassasalari boshqarish zamonaviy va raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilganligi;</li> <li>- oliy ta'lim muassasalari dunyoda TOP universitetlar tarkibiga kirganligi hamda bitiruvchilarning diplomlarini tan olinishi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-laboratoriya jihozlari bilan ta'minlash, ularning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari va veb-saytlarini muntazam ravishda takomillashtirish orqali ta'lim xizmatlari ko'rsatishning samarali usullaridan foydalanish lozim. Shuningdek, ta'lim tashkilotlarini boshqarishda zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy qilish;</li> <li>- boshqaruv jarayonlarini quyi bo'g'inga tushirish va bu orqali ish samaradorligini oshirishga erishiladi. Bu jihat o'z navbatida jamoaning barcha xodimlarida mas'uliyat hissini yanada rivojlantiradi;</li> <li>- oliy ta'lim muassasalarini dunyoda e'tirof etilgan universitetlar bilan hamkorligini yo'lga qo'yish, shu orqali qo'shma dasturlarni tashkil etishni rag'batlantirish, talabalarni xorijga chiqish imkoniyatlarini oshirish hamda maktab va o'rta maxsus ta'lim muassasalari bitiruvchilarini xorijiy tillarni o'rganishga qiziqishni yanada kuchayishishga xizmat qiladi.</li> </ul>
2	<p><b>Gollandiya</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlashda biologik asosda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishga e'tibor berilganligi;</li> <li>- hududlar bo'yicha tabiiy resurslar muhiti va tabiat, landshaft, yerdan foydalanish, suv, dengiz va tabiiy resurslarni boshqarish va biologik xilma-xillikning asosiy qismlarini o'z ichiga olishi;</li> <li>- jamiyat farovonligini yaxshilashda qishloq joylari infrastrukturasi takomillashtirish, aholining yashash muhiti, turmush tarzi, shuningdek, institutlar va boshqaruv mexanizmlarini</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- bugungi globallashtirish sharoitida barcha davlatlarning asosiy maqsadi aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari hamda bandligini ta'minlashga e'tibor berilmoqda. Shu boisdan, oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlashda aholini organik mahsulotlarga bo'lgan talabini hisobga olish, sof biologik mahsulot yetishtirishda agrotexnik tadbirlarni to'g'ri amalga oshirish, o'simliklarning nav xususiyatlariga alohida e'tibor berish;</li> <li>- agrar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashda hududlarning tuproq-iqlim sharoitini hisobga olish, iqlim o'zgarishlariga e'tibor qaratish, dehqonchilikni tashkil etishda rayonlashtirilgan navlardan foydalanish, almashlab ekish tizimidan oqilona foydalanish kabi jihatlarga alohida e'tibor berish orqali, o'quv jarayonlarini tashkil etib, kadrlarni</li> </ul>

<sup>53</sup> Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

	tashkil etish, bozor va ijtimoiy innovatsiyalarni o'z ichiga olganligi.	salohiyatli qilib tayyorlash; - agrar sohani sanoat darajasiga olib chiqish maqsadida kadrlar samarali boshqaruv usullari asosida tayyorlash, ilm-fan, ishlab chiqarish integratsiyasini uzviyligini ta'minlashga erishiladi.
3	<p><b>Xitoy</b></p> <p>- bitiruvchilarning ishga joylashish ko'rsatkichi juda ijobiy baholanishi hamda o'qishni tugatgandan keyin yarim yil ichida bitiruvchilarning ish bilan ta'minlash choralarini ko'rilishi;</p> <p>- bitiruvchilar o'qishni tugatgandan keyin chet elda o'qish imkoniyatlarining yaratilganligi;</p> <p>- bitiruvchilar o'rtasida juda kuchli raqobat muhitining mavjudligi.</p>	<p>- bitiruvchi kadrlarni ish beruvchilar talablari asosida tayyorlash, ish beruvchi tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish, sayyor darslarni ko'paytirish hamda ulardan zamonaviy va kreativ fikrlay oladigan mutaxassislarni jalb etish orqali bitiruvchilarni bandlik darajasini oshirish;</p> <p>- bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bitiruvchilarini uchun ta'limning keyingi bosqichlarida tahsil olish imkoniyatlarini kengaytirish, shu asosda xorijiy davlatlarda ta'lim olishga qiziqayotgan bitiruvlarni rag'batlantirish, shuningdek, ularni o'qishni tugatgandan keyin yurtimizda ish faoliyatlarini olib borishni qo'llab-quvvatlash;</p> <p>- bitiruvchilar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, innovatsion texnologiyalarni qo'llay olish darajasini o'rganib borish, sohalarni rivojlantirishda qaror qabul qilish ko'nikmalarini paydo qilish imkoniyati yaratiladi.</p>
4	<p><b>Rossiya</b></p> <p>- ta'lim tizimida professor-o'qituvchilarni kasbiy malaka oshirish kurslarining muntazam yo'lga qo'yilganligi;</p> <p>- ta'lim muassasalarida ishlab chiqarish korxonalarining tashkil etilganligi hamda ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish ishlarini samarali yo'lga qo'yilganligi;</p> <p>- boshqa davlatlardan kelib tahsil oluvchilar uchun keng imkoniyatlarni mavjudligi.</p>	<p>- mamlakatimiz ta'lim tizimida rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini oshirishda aniq chora-tadbirlarini belgilash, shuningdek, elektron portfolio tizimiga ma'lumotlarni kiritib borishni nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish;</p> <p>- kafedralar qoshida ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish, professor-o'qituvchilarni ilmiy-tadqiqot ishlarini tijoratlash tizimini samarali yo'lga qo'yish asosida xizmat ko'rsatishni yanada rivojlantirish;</p> <p>- agrar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashda xorij fuqarolarini keng miqyosda jalb etish ishlarini jadallashtirish, oliy ta'lim muassasalarida xorijiy fuqarolar uchun bir qator imtiyozlarni joriy etish orqali universitet reytingini oshirishga erishish, shuningdek, professor-o'qituvchilarni xorijiy tillarni bilish darajasini oshirish kabi vazifalarni amalga oshirish lozim.</p>

## **I bob bo'yicha xulosa**

Agrar sohada kadrlar tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, agrar oliy ta'lim muassasalarini boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha quyidagi xulosalar shakllantirildi:

agrar ta'lim tizimini boshqarish hamda rivojlantirishda asosiy resurslardan samarali foydalanish bilan bir qatorda, sohadagi mavjud muammolar va ularning yechimlari bo'yicha tahlillar o'tkazildi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Agrar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashda ishlab chiqaruvchilar, korxonalar, idoralar asosiy ish beruvchilar ekanligi bu esa O'zbekiston Respublikasida qonun yo'li bilan to'liq ta'minlanganligi bunda mamlakatimizdagi agrar ta'lim muassasalari asosiy kuch sifatida e'tirof etildi, kadrlarni ish bilan ta'minlash va mustaqil boshqaruv strukturasi ega ta'lim muassasasini joriy etilishi mustaqil sub'ekt sifatida tadqiq etildi;

agrar ta'lim muassasalarini boshqaruv va moliyaviy strategiyasi o'rganilib, kadrlar tayyorlashda hamkorlikni ta'minlash, mehnat bozorini yetuk kadrlar bilan ta'minlashning asosiy mexanizmlarini joriy etish, ta'limning asosiy bosqichlarini ham qamrab olish kadrlar buyurtmachilari uchun maqbul variantlarni tanlab olish va mehnat bozorining kadrlarga bo'lgan talabini qondirish imkoniyati hamda ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlik integratsiyasi hisobga olingan holda tahlil qilindi va amaliy takliflar berildi;

agrar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning rivojlanish tendensiyalarini aniqlandi hamda rivojlanish tendensiyalarini izchillik bilan oliy ta'lim muassasalari faoliyatini olib borishda tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar berildi;

Germaniya, Gollandiya, Xitoy, Rossiya davlatlarining agrar sohada kadrlar tayyorlash bo'yicha ustuvor yo'nalishlari tahlil qilindi hamda ularni respublikamiz agrar ta'lim muassasalarini samarali boshqarish jarayonida foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

## **II BOB. AGRAR TA'LIM TIZIMIDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHDA BOSHQARUV FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA TAHLIL QILISH**

### **§ 2.1. Agrar ta'lim tizimida malakali kadrlar tayyorlashning hozirgi holati va uning tahlili**

Ta'lim tizimini yanada rivojlantirish va uni isloh qilishda davlatning bosh islohotchi bo'lishi ta'limni yuksaltirishda eng maqbul yechim hisoblanadi. O'tgan yillar davomida agrar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashda bir nechta muammolar saqlanib kelgani to'g'ridan-to'g'ri kadrlar tayyorlashning boshqaruv samaradorligiga ta'sir o'tkazganligini ko'rishimiz mumkin. Mustaqillikka erishgandan so'ng bir qator tizimlar bilan birga agrar sohada ham tubdan yangilanishning amalga oshirilishi ta'lim tizimiga ham bevosita o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bu esa ta'lim sohasining rivojlanishiga xalqaro ta'lim jarayonlarining respublikamiz bo'yicha tadbiiq etilishiga zamin yaratildi. 2010-2014 yillarda O'zbekistonda davlat oliy ta'lim muassasalari soni 66 tani tashkil etgan bo'lsa, 2022 yil ma'lumotlariga ko'ra bu ko'rsatkich 154 tani tashkil etmoqda (2.6-jadval). ShU bois, ta'lim tizimidagi islohotlar mamlakat ravnaqi uchun xizmat qilishi bilan bir qatorda sohalardagi kadrlar muammosi bartaraf etilishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat olib borayotgan tashkilotlar, fermer, dehqon xo'jaliklari, qishloq xo'jaligida faoliyat yurituvchi korxonalar, agrofimlar, klasterlar o'z faoliyatini yetuk kadrlar bilan to'ldirishda asosiy tayanch OTMlar, ya'ni agrar ta'lim muassasalari muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim muassasalarining aksariyati davlat OTMlari bo'lib, hususiy va xorijiy ta'lim muassasalarining ulushining kamligi bir tomondan ta'limga kiritilgan investitsiyalar bilan bog'liqligi bo'lsa, ikkinchi tomondan davlat OTMlariga bo'lgan talabning yuqoriligini ko'rsatib beradi.

2.6-jadval

Oliy ta'lim tashkilotlari faoliyati va soni to'g'risida ma'lumot<sup>54</sup>

Ko'rsatkichlar	2013 / 2014	2014 / 2015	2015 / 2016	2016 / 2017	2017 / 2018	2018 / 2019	2019 / 2020	2020 / 2021	2021 / 2022	2022/ 2023
<b>Oliy ta'lim tashkilotlari soni, birlik</b>	<b>66</b>	<b>68</b>	<b>69</b>	<b>70</b>	<b>72</b>	<b>98</b>	<b>119</b>	<b>127</b>	<b>154</b>	<b>191</b>
shu jumladan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari	6	7	7	7	7	10	16	18	25	26
ularda talabalar, ming kishi	259,3	261,3	264,3	268,3	297,7	360,2	441,0	571,5	808,4	1042,1
kunduzgi	258,9	261,0	263,9	267,9	287,5	313,0	360,1	441,9	553,9	622,6
kechki	-	-	-	-	-	1,2	7,3	11,5	26,5	37,7
sirtqi	0,4	0,3	0,4	0,4	10,2	46,0	73,6	118,1	228,0	381,8
10 000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan oliy ta'lim tashkilotlari talabalari	85	84	84	84	93	110	130	165	229	289
Oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar, ming kishi	62,3	64,1	63,0	61,2	63,0	114,5	138,1	174,9	235,9	282,4
Oliy ta'lim tashkilotlarini bitirgan mutaxassislar, ming kishi	63,1	67,6	66,3	64,1	67,4	70,3	70,8	83,9	103,9	102,4

<sup>54</sup> Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari 2022 yil. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

2013-2014 yillarda mamlakatimizda 66 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat yuritgan bo'lsa, 2022-2023 yillarga kelib bu ko'rsatkich 191 tani ya'ni 289 % ga oshganini ko'rishimiz mumkin. 2022-2023 yillarda xorijiy oliy ta'lim muassasalari soni 26 tani tashkil etgan. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, so'nggi yillarda ta'limga bo'lgan e'tibor kadrlar salohiyatini oshirish va OTM lar nufuzini ko'tarishga bo'lgan asosiy harakat hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklariga 2013 yilda 62,3 ming talaba qabul qilingan bo'lsa, 2022 yilga kelib 282,4 ming nafar talaba (453%) qabul qilingan. Talabalar kontingentidan kelib chiqib, bitiruvchi kadrlar misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, 2013 yilda 63,1 ming nafar kadrlar tamomlagan bo'lsa, 2022 yilda bu ko'rsatkich 102,4 ming nafarni tashkil etgan. Umumiy hisobda tizim tashkilotlariga kadrlar yetkazib berish ko'rsatkichi 162% ga oshganini hamda yillar davomida sohalar uchun yetuk kadrlarga bo'lgan talabni ta'minlanayotganini ko'rishimiz mumkin. Shu bois, mehnat bozorini tahlil qilgan holda, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash har bir oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Globalashuv jarayonida hozirgi dunyo sanoat rivojlanishidan keyingi raqamlashtirish davriga o'tdi. Hozirgi paytda har qanday mamlakatning raqobatbardoshligi tabiiy va moddiy boyliklarining mavjudligiga juda kam darajada bog'liq, aholi o'rtasida intellektual salohiyatning mavjudligi ko'proq ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlar intellektual salohiyati va yetuk bilimli kadrlar tufayli jahon bozorida yetakchi o'rinlarni egallashgan. Yuksak texnologik intellektual mahsulotdan foydalanish uchun yangi murakkab ilmiy texnologiyalarni yaratish va o'zgartirish, ishlab chiqarishning yangi texnologik darajasini ta'minlash, axborot muhiti sharoitlariga moslashish qobiliyatlari rejaning birinchi qatoriga chiqarildi.

Shak-shubhasiz, aqliy salohiyatni o'stirmasdan, samarali ta'lim tizimini yaratmasdan turib iqtisodiyot va jamiyat modernizatsiyasi masalalarini hal etib bo'lmaydi. Jahonda oliy ta'lim muassasalari talabalari sonining oshish tendensiyasi mavjud. Rivojlangan mamlakatlarda intellektual salohiyat 70-80% ga yetadi. Bu esa o'z navbatida har bir sohada kadrlarning to'g'ri taqsimlanganligi bilan ifodalanadi.

Shu bois, mamlakatimizda ham ta'lim va tarbiya masalalari davlatning doimiy diqqat-e'tiboridadir. Bu haqda mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev: "Taraqqiyotga erishish uchun, raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda" deb ta'kidlangan<sup>55</sup>. Shu bois, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish maqsadida «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasi qabul qilingan. Bu esa, o'z navbatida ta'lim muassasalariga malakali kadrlar tayyorlash jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalari shakllantirish, barcha bo'g'indagi rahbar va pedagog xodimlarda ham raqamli texnologiyalardan erkin foydalana olishi uchun yetarli darajada shart-sharoit yaratishi lozim bo'ladi. Mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan xolda ta'limni boshqarishni avtomatlashtirish, ta'lim muassasasi faoliyati natijalarini oshkoraligini ta'minlash, mehnat resurslaridan samarali foydalanish hamda moliyaviy mablag'larni tejash orqali har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish muhim hisoblanadi.

Bugungi raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali ta'lim tizimida ham o'quv jarayonini raqamlashtirish, raqamli ta'limni rivojlantirish, axborot xavfsizligini ta'minlash, har bir tuman va shaharlarda yoshlar va ayollar uchun raqamli texnologiyalar o'quv markazlari tashkil etish, shuningdek, biz tadqiq etayotgan agrar ta'lim tizimida ham qishloq xo'jaligini raqamlashtirish jarayoni jadal sur'atlar bilan amalga oshirilayotganligi ko'rishimiz mumkin. Ushbu jarayonlarda albatta, raqamli texnologiyalardan foydalana oladigan malakali qishloq xo'jaligi kadrlarga ehtiyoj seziladi. Agrar ta'lim muassasalari tomonidan zamonaviy menejment usullaridan foydalanib hamda raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish doirasida ta'lim

---

<sup>55</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar. "Xalq so'zi" gazetasi 2020 yil 25-yanvar № 19(7521).

muassasasini boshqarishda kadrlarga quyidagi belgilangan vazifalarni amalga oshirish zarur hisoblanadi:

- ijodiy rivojlanishi va kompyuter dasturlash asoslarini o'rganishi uchun mavjud resurslarini safarbar etish;

- axborot texnologiyalarini chuqurlashtirib o'qitishga e'tibor berish;

- ta'lim pog'onasining boshlang'ich nuqtasidan boshlab raqamli texnologiyalarni taqdim etish orqali raqamli ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratish;

- tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, kelajakda zarur bo'ladigan keng ko'lamlı raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarga bilim va ko'nikmalar berish;

- yagona masofaviy ta'lim platformasini kelajakda ta'limning barcha yo'nalishlarida tatbiq etish maqsadida yaratish va amalga oshirish;

- texnologik kasblar va innovatsion faoliyat sohasida o'qishni tashkil etishga qaratilgan yuqori samarali xalqaro amaliyotni ta'lim tizimiga joriy etish;

- ta'lim muassasalarida «Buyumlar interneti», robototexnika, sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash va o'rganish bo'yicha laboratoriyalar, shuningdek, xorijiy korxonalarini ushbu sohaga jalb qilishni tashkil qilish;

- xalqaro yirik korxonalarining markazlari bilan hamkorlikda raqamlashtirish yo'nalishidagi milliy kadrlar malakasini oshirish mexanizmini tatbiq etish;

- inson kapitalini rivojlantirish, shu jumladan, ixtisoslashgan ta'limni rivojlantirish hamda IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish, IT-korxonalar uchun institutsional sharoitlarni yaxshilash va ma'muriy to'siqlarni kamaytirish<sup>56</sup>.

Ushbu belgilangan vazifalar ya'ni, raqamli texnologiyalardan foydalanish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish nuqtai nazaridan kelib chiqib, kadrlar salohiyatini oshirishga, ularda bilim, malaka va ko'nikmani shakllantirishga hamda ishlab chiqarish jarayonida muhim va tezkor qarorlarni qabul qila olish ko'nikmasi shakllanadi.

---

<sup>56</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi "«Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son farmoni. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06/22/134/0407-son, 23.08.2022 y., 06/22/194/0766-son).



O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Qishloq joylarda aholining 60% ga yaqini yashaydi. 2022 yilda ichki yalpi mahsulotning 25.1% ni qishloq xo'jaligi mahsulotlari tashkil etgan. Shu yili qishloq xo'jaligida mashg'ul bo'lganlar soni o'rtacha 3.5 mln kishidan iborat. Xalq farovonligi va mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash qishloq xo'jaligining rivojlanishi darajasiga bog'liq. Qishloq xo'jaligi taraqqiyotiga erishish, mamlakatni modernizatsiyalash bo'yicha masalalarni hal etish raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni talab etadi, bunga jahon ta'lim standartlariga javob beruvchi va jahon ta'lim tizimi bilan uyg'unlashgan ta'lim tizimini joriy etmasdan, o'qitishning yangi texnologiyalarini tatbiq etmasdan erishib bo'lmaydi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi fani va oliy agrar ta'limi yaxshi rivojlangan mamlakatlarda agrar sektor samaradorligi yuqori darajada hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi taraqqiyotida, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda va xalq farovonligini oshirishda malakali kadrlar tayyorlash ishi muhim o'rin tutganligi uchun oliy agrar ta'limning rivojlanish tarixi, asosiy yo'nalishlarining shakllanishi, oliy agrar ta'lim muassasalarining kadrlar tayyorlaydigan yo'nalishlari va mutaxassisliklari to'g'risidagi bilimlar katta qiziqish uyg'otmoqda. Ana shu masalalar bo'yicha ma'lumot berish ushbu tadqiqot ishimizning asosiy vazifasidir.

O'zbekistonda agrar oliy ta'lim respublika oliy ta'lim tizimining katta ulushiga ega. Respublikada asosiy agrar ta'lim yo'nalishlari bo'yicha oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlaydigan OTMLar (Toshkent davlat agrar universiteti, TDAU Samarqand filiali, Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti, Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti) kunduzgi bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga umumiy qabul parametrlari tahlil qilindi (2.7-jadval). 2017 yilda jami respublika bo'yicha 66316 nafar qabul kvotalari ajratilgan bo'lsa, shundan agrar ta'lim muassasalariga 3425 nafar qabul kvotalari ajratilgan. Shuning bilan birga, 2023 yilda 2017 yilga nisbatan agrar ta'lim muassasalariga 187 %ga (6400 nafar) qabul kvotalari oshganligini ko'rishimiz mumkin.

2.7-jadval

**Qishloq xo‘jaligi vazirligi tasarrufidagi OTMlarga bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari kunduzgi shakl bo‘yicha  
2017-2023 yillarda qabul parametrlari<sup>57</sup>**

№	Oliy ta‘lim muassasalari nomi	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2017 yilda 2023 yilga nisbatan, %
<b>Respublika bo‘yicha jami</b>		<b>66316</b>	<b>69200</b>	<b>80 430</b>	<b>103 575</b>	<b>113 530</b>	<b>123060</b>	<b>127259</b>	<b>192</b>
<b>Shundan: (Q/x vazirligi tizimidagi OTMlar bo‘yicha)</b>		<b>3425</b>	<b>1850</b>	<b>2450</b>	<b>4150</b>	<b>4639</b>	<b>6454</b>	<b>6400</b>	<b>187</b>
1	<b>Toshkent davlat agrar universiteti</b>	1495	750	885	1350	1681	2858	2575	172
	Bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari soni	18	20	20	25	32	41	37	206
2	<b>TDAU Samarqand filiali</b>				475	450	600	550	
	Bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari soni				16	16	18	16	
3	<b>Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti</b>	1000	500	735	1150	1179	1327	1375	138
	Bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari soni	14	12	19	26	29	39	38	271
4	<b>Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti</b>	300	300	450	600	702	802	775	258
	Bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari soni	9	13	18	19	19	25	17	189
5	<b>Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti</b>	630	300	380	575	627	867	1125	179
	Bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari soni	17	19	19	21	22	29	24	141

<sup>57</sup> Manba: O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi ma‘lumotlari asosida tayyorlangan <https://www.lex.uz/> .


Bu albatta, agrar soha uchun kadrlar tayyorlash muhim hisoblanishi, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan kadrlarga ehtiyoj mavjud ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, ushbu oliy ta'lim muassasalarida 2018-2019 yillarda tor ixtisosliklar bo'yicha malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilishi natijasida qabul parametrlari va bakalavriat ta'lim yo'nalishlarini bir necha barobarga kamayganligini ham alohida ta'kidlash joizdir.

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, agrar ta'lim yo'nalishlari oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish hamda malaka kadrlar tayyorlash parametrlarini oshirish, shuningdek, agrar soha bo'yicha zamonaviy kasblar bo'yicha zamonaviy bilimga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash zarurdir. Chunonchi, agrar sohani zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan, kreativ fikrlay oladigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan hamda o'z sohasining haqiqiy jonkuyarlarini tarbiyalash lozimdir.

Agrar ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan oliy ta'lim muassasalarining kadrlar tayyorlashda asosiy ta'sir etuvchi omillarni ham hisobga olish, mavjud muammolarni yaxlit bartaraf etish kerak bo'ladi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari tomonidan mehnat bozoriga malakali kadrlar tayyorlash va boshqaruv faoliyatini to'g'ri tashkil etishda turli ta'sir etuvchi omillar mavjud (2.15-rasm). Barcha omillar bir biriga uzviy bog'liqligi, kadrlarga qo'yiladigan talabning aniq bajarilishi uchun ta'lim muassasalarining asosiy vazifasini ko'rsatib beradi. Ushbu ta'sir etuvchi omillarni alohida o'rganish, iqlim o'zgarishini inobatga olish, bitiruvchi kadrlarni malakali mutaxassis bo'lib shakllanishida muhim hisoblanadi.

Ta'sir etuvchi omillar to'g'ridan to'g'ri kadrlar bilan bog'liqligi va OTM ning salohiyatiga hamkorlik darajasiga to'liqligicha qamrab olinishi eng muhim sabab bo'lib hisoblanadi. O'zbekistonda mavjud OTMlarning kadrlar tayyorlashda yuzaga keladigan qiyinchiliklar ham ta'sir etuvchi omillarga bog'liqligi, agrar sohada esa bir nechta ta'sir etuvchi omillarning yuzaga kelishi bilan izohlash mumkin. Agrar oliy ta'lim muassasalarini taqqoslaganda Toshkent, Samarqand, Andijon, Termiz va Nukus shaharlarida joylashgan asosiy ta'lim dargohlarining bir

maqsadda kadr tayyorlashi mavjud bo'lsada, ammo ularning ta'lim berish prinsipi hamda ta'sir etuvchi omillari turli darajada bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Shu bois, aynan zamonaviy jamiyatdagi ta'lim tizimi nafaqat mamlakat uchun balki inson mehnatining eng muhim takror ishlab chiqaruvchisiga aylanishi kerak.



**2.15-rasm. Agrar sohada kadrlar tayyorlash jarayoniga ta'sir etuvchi omillar<sup>58</sup>**

Bizning fikrimizcha, ta'sir etuvchi omillarni to'g'ri baholash, ta'lim jarayonlarini kuchaytirish, amaliyotni ta'lim jarayonlariga bog'lash bilan quyidagi dolzarb muammolarni hal qilish mumkin:

*birinchidan*, ta'limning amaliy va nazariy jihatdan yo'naltirilganligini kuchaytirish, o'quv dasturlariga amaliy fanlarni va ularni o'tish jarayonlarini ko'proq nazoratga olish, o'quv jarayonini ishlab chiqarish tashkilotlarida tashkil etish, amaliyot o'tashlarida mutaxassis kadrlarni ko'proq jalb etish orqali ta'limning amaliyotga yo'naltirilganligini kuchaytirish imkonini beradi.

*ikkinchidan*, ta'lim tizimining ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik imkoniyatlarini saqlab qolish va rivojlantirish. Bu innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish uchun oliy ta'lim muassasalarida mahalliy ilmiy-texnik

<sup>58</sup> Manba: Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

ishlanmalarini jihozlash va ulardan samarali foydalanish muammosini hal qilishga yo‘naltirilganligini anglatadi.

***uchinchidan***, professional ta‘lim, akademik litsey va maktab bitiruvchilarining qiziqishi va faolligini qo‘llab-quvvatlagan holda, o‘qishga qabul qilingan talabalar bilimini raqamlashtirilgan texnologiyalar asosida xolis baholash tizimini yo‘lga qo‘yish, shu orqali talabalarda ijodkorlik, kreativ fikrlash xususiyatlarini rivojlantirish.

***to‘rtinchidan***, ta‘lim muassasalari infratuzilmasini rivojlantirish va mehnatga haq to‘lash uchun davlat budjetidan qo‘shimcha moliyaviy mablag‘lar ajratish hamda tegishli mutaxassislik va ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha professor-o‘qituvchilar uchun ilmiy salohiyatiga ko‘ra rag‘batlantirishni tashkil etish va rivojlantirish.

***beshinchidan***, tarkibiy ishsizlik muammolarini hal qilish uchun yangi kasblar uchun kadrlar tayyorlash va kadrlar malakasini oshirish, qayta tayyorlash muassasalari infratuzilmasini kengaytirish.

***oltinchidan***, oliy ta‘limni xalqaro tashkilotlar bilan bog‘lash, o‘qituvchilar va talabalarining harakatchanligini oshirish hamda kengroq tajriba almashish imkoniyatlarini ta‘minlash orqali xalqaro ta‘lim integratsiyasi jarayonlarini oshirish.

Qishloq xo‘jaligi vazirligi tasarrufida faoliyat olib borayotgan hamda respublikamizda agrar soha uchun kadrlar tayyorlashni o‘z zimmasiga olgan oliy ta‘lim muassasalarida 26 mingdan ortiq talabalar tahsil olayotganligi ko‘rishimiz mumkin (2.8-jadval). Ushbu talabalarni bugungi kunda agrar sohada amalga oshirilayotgan izchil islohotlarni samarali joriy etish, mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda faoliyat olib borayotgan qishloq xo‘jaligini sub’ektlariga oliy ma‘lumotli kadrlarni o‘z sohasining yetuk mutaxassislarini tarbiyalashda o‘zlarining yuksak bilim va tajribalarini 1200 dan ortiq professor-o‘qituvchilar faoliyat ko‘rsatmoqda.

2.8-jadval

**Qishloq xo‘jaligi vazirligi tasarrufidagi oliy ta‘lim muassasalarining faoliyati to‘g‘risida  
MA‘LUMOT<sup>59</sup>**

№	Amalga oshirilgan choratadbirlar nomi	Jami			Toshkent davlat agrar universiteti		Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filiali		Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti		Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti		Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti	
		2020 yil	2022 yil	farqi, +/-	2020 yil	2022 yil	2020 yil	2022 yil	2020 yil	2022 yil	2020 yil	2022 yil	2020 yil	2022 yil
1	Ta‘lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari soni	98	131	33	58	81	16	41	31	51	43	61	19	34
	shundan: ta‘lim yo‘nalishlari soni	59	76	17	25	44	16	19	21	28	20	34	19	24
	magistratura mutaxassisliklari soni	39	55	16	33	37	11	22	10	23	15	27	0	10
2	OTMda faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchilar soni	1154	1280	126	565	571	52	81	161	182	285	297	91	149
3	Oliy ta‘lim muassasalarida talabalar soni	19660	26503	6843	8992	10636	383	1491	2726	3452	5374	7694	2185	3230
	Shundan, bakalavrlar soni	17153	27784	10631	8382	13207	313	1322	2570	3257	3703	7366	2185	2632
	Shundan, magistrlar soni	1055	1182	127	610	397	70	169	156	195	219	315	0	106
4	OTMning ilmiy salohiyati	43,3	46,2	3,0	62,6	66,2	45	47	39,2	42,7	43,8	45,1	25,8	30,2
5	OTMda bitiruvchilar soni	3055	2489	-566	1385	972			569	482	1101	702		333
6	OTMlarda talabalarning ishga joylashishi ko‘rsatkichlari	83,7	86,8	3,1	87	91			79	84	85	87		85,1

<sup>59</sup> Manba: Oliy ta‘lim muassasalari ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Shu bilan birga, mazkur oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyati o'rtacha 46,2% ni tashkil etadi. Respublikamiz ta'lim tizimidagi amalga oshirilayotgan islohatlarning tub zaminida mehnat bozoriga kirib kelayotgan yangi ish va xizmat turlarini samarali ijro eta oladigan kadrlar bajarishini inobatga olib, 2020 yilga nisbatan 2022 yilda agrar ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari soni 98 tadan 131 taga yetganini yoki 133% ga ortganini ko'rishimiz mumkin. Bu esa o'z navbatida, agrar ta'lim tizimida ham bir qator ijobiy natijalar amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi.


Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga ko'maklashish, qishloq xo'jaligida muammoli vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish asosida sohani rivojiga o'z hissasini qo'shish maqsadida bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lgan bitiruvchi kadrlar tayyorlash ko'rsatkichi ham 2020 yilga nisbatan 2022 yilda 134 foizga ko'payib, qishloq xo'jaligida sifatli mahsulot yetishtirish, eksportni kengaytirish, soha oldidagi muhim vazifalarni amalga oshirish uchun mehnat bozoriga malakali kadrlar tayyorlanmoqda.

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligini rivojlantirish va ustuvor vazifalarning belgilanishi natijasida zamonaviy dunyo qarashga ega kadrlarga bo'lgan talabning ortishi natijasida OTMLar ham ta'lim tizimini jahon standartlari asosida o'tishga moslashtirdi. O'zbekistonda kadrlar tayyorlashning milliy modeli murakkab ijtimoiy sohada jahonda erishilgan barcha yutuqlarni to'liq o'zida qamrab olgan holda amalga oshirmoqda.

Agrar ta'lim tizimida tayanch hisoblangan Toshkent davlat agrar universitetining 2017-2021 yillarda qishloq xo'jaligi bo'yicha bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida jami 6343 nafar yetuk bitiruvchi kadrlar tayyorlangan bo'lib, ularning 1525 nafari davlat granti asosida bitirgan talabalarning 31 % o'z yo'nalishlarida, 30,7 % boshqa sohalarda, 25 % oliy ta'limning ikkinchi yoki magistratura bosqichlariga o'qishga kirganligi, 13,4 % esa ishga joylashish yoki iqtisodiy faol bo'lmagan bitiruvchilar ekanligi qayd etilgan (2.16-rasm).

Shu bois, agrar oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan bitiruvchi kadrlarni o'z sohalariga ishga jalb etish, agrar sohaning o'ziga xos xususiyatlari va

jozibadorligi hisobga olib, ushbu sohada faoliyat olib borishga undash talab etiladi. Bitiruvchi kadrlar salohiyatiga ham alohida e'tibor berish maqsadida mehnat bozori talablarini o'rganish, asosiy kadrlar is'temolchilari bilan uzviy aloqani olib borish, ayniqsa, davlat granti asosida bitirgan talabalarni qishloq xo'jaligi sohasidagi tashkilotlarga ishga yo'naltirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.



### 2.16-rasm. Toshkent davlat agrar universitetida 2017-2021 yillarda bakalavriat ta'lim yo'nalishlarini davlat granti asosida bitiruvchilarini ishga joylashish ko'rsatkichlari<sup>60</sup>

Bizning fikrimizga, ushbu vazifalarni amalga oshirishga ta'lim muassasalarida yetarlicha tajriba mavjudligini hisobga olib, ilm-fan ishlab chiqarish integratsiyani ta'minlash, kadrlar tayyorlashda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, kadrlar salohiyati baholash kabi bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim hisoblanadi. Shuningdek, agrar ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqish maqsadida hukumat tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda berilgan topshiriqlarni samarali ijrosini ta'minlash, xorij tajribasini ilg'or yutuqlarini o'zimizning mos yo'nalishlarimizga qo'llash

<sup>60</sup> Manba: Toshkent davlat agrar universiteti ma'lumotlari asosida tayyorlangan.



imkoniyatlarini o'rganib chiqish orqali bitiruvchi kadrlarni o'z sohasida ish bilan bandligini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbek modeli umuminsoniy qadriyatlarga tayanadi va quyidagi tuzilish xususiyatlari bilan ifodalanadi: "Ta'lim tizimidagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari: o'qish va ta'lim-tarbiyaning gumanistik, demokratik xarakterligi; ta'limning uzluksizligi va davomiyligi; umumiy o'rta hamda o'rta maxsus, professional kasbiy ta'limning barcha uchun teng berilishi; ta'lim yo'nalishi va kasb-xunar dasturlarini tanlashga yondashuvda umumiylik va farqlilikning mavjudligi; bilimli va iste'dodli mutaxassislarning rag'batlantirilishi; ta'lim tizimida davlat va jamoatchilik boshqaruvining integratsiyalashuvidadir"<sup>61</sup>. Shu bois, davlat, odatda, uning moliyalashtirilishini va xarajatlarning katta qismini hamda boshqaruv funksiyalarini o'z zimmasiga olishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim tizimini boshqarishga davlat aralashuvining ikkita sababi mavjud bo'lib, bozor iqtisodiyotidagi davlat funksiyalaridan kelib chiqadi. *Birinchi*dan, ta'lim-tarbiya berishga mablag' yo'naltirish uzoq muddatli, istiqbolli xususiyatga egadir. Shunday ekan, davlat amaliy, fundamental loyihalar, tadqiqotlarni amalga oshirish uchun malakali mutaxassislarni tayyorlash hamda strategik fan-texnika dasturlarini kadrlar bilan ta'minlashni, mudofaa, xavfsizlik, ijtimoiy sohani moliyalashtirishni o'z zimmasiga oladi. *Ikkinchi*dan, davlat tomonidan ijtimoiy funksiyaning bajarilishi aholi savodxonligini oshirish, aholini, o'qishga pul to'lash uchun mablag'larga ega bo'lmagan shaxslarni (yetimlar, ko'p farzandli oilalarning bolalari va hokazolar) himoyalashni o'z zimmasiga oladi. Oliy ta'lim tizimida malakali kadrlar tayyorlash va OTMLar boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirib borish, bugungi globallashtirish va tez o'sib borayotgan respublikamiz iqtisodiyoti tarmoqlariga kreativ fikrlay oladigan oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash jarayonida bir qator mezonlarga alohida e'tibor qaratilishi lozim (2.17-rasm).

---

<sup>61</sup> Kucharov A.S., Isamuxametov Sh.A., Muminova M.B., Kucharova N.A. Kadrlar tayyorlashda davlatning roli. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. – T., 2014 yil. № 6-son.



### **2.17-rasm. Oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashdagi asosiy mezonlari<sup>62</sup>**


Bu orqali mehnat bozorida sog'lom raqobat muhiti yaratilishi hamda ta'lim olish jarayonida talabalar o'rtasida bilim olishga bo'lgan qiziqishni yanada oshirishga, shuningdek, OTMlarda professor-o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi, qolaversa ish beruvchi va OTM o'rtasida kuchli hamkorlikni yaratilishiga xizmat qiladi.

### **§ 2.2. Agrar ta'lim tizimida zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish yo'llari**

XXI asrda dunyoda ta'lim jarayonlarini tashkil etishning zamonaviy shakllarini paydo bo'lishi intellektual qobiliyatli yoshlarni shakllanishiga zamin yaratildi, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalarida ham tub burulish yaratilishi natijasida, aholi farovonligi va yoshlarning kelajagini ta'minlashda asosiy omil va kadrlar sifatini yaxshilashda global yo'nalishga aylanmoqda. Zamonaviy iqtisodiyotning rivojlangan tarmoqlarini raqamli transformatsiyalashuvi sharoitida, yuqori salohiyatli, bilimli malakali kadrlar tayyorlash sifati har doimgidek dolzarb masalalardan biri sifatida e'tirof etilishi

<sup>62</sup> Muallif ishlanmasi.

bugungi raqobatbardosh mehnat sharoitda asosiy sabab qilib ko'rsatilishi hech kimga sir emas. Yuqori malakali kadrlar mamlakat huquqiy-siyosiy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy jihatdan rivojlanishini ta'minlashga, har tomonla muammoli vaziyatlarni tezkor ravishda tahlil eta olish, shu bilan bir qatorda tashkiliy-huquqiy shakli va faoliyat turidan qat'iy nazar, har qanday tashkilot raqobatbardoshligini oshirishga bevosita ta'sir etuvchi asosiy manba va hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu bois, nafaqat respublikamizda, balki jahon hamjamiyatida yetakchilik qilayotgan mamlakatlar kadrlarni tayyorlash hamda ularni o'qitish sifatiga, oliy ta'lim rivojiga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida e'tibor qaratib, keng ko'lamdagi ishlarni amalga oshirayotganligini ko'rish mumkin. Ammo shunga qaramay, yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida oliy ta'lim sohasida ayni vaqtda hal qilinishi lozim bo'lgan dolzarb muammo va kamchiliklar mavjud. Shu bois, ta'lim tizimi zamonaviy talablarga javob berishi, istiqbol rejalarini belgilashi va kelajakka intilishi lozim. Barcha mamlakatlar singari bizda ham oliy ta'lim jamiyatning asosiy o'zagidir. Jahonda inson faoliyatining turli sohalarida global o'zgarishlar yuz berib, ularda innovatsion g'oyalar va usullar qo'llaniladi, shuning uchun kadrlar (bitiruvchi)lar sifatli tayyorlangan va chuqur bilimlar bilan qurollangan bo'lishi kerak. Raqobatbardosh mutaxassis bo'lish uchun esa mustaqil ta'lim hamda amaliyotning uzviy bog'lashni muntazam yo'lga qo'yish, o'z-o'zini takomillashtirish, yuqori maqsadlar belgilash va ularga erishish lozim. O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash davrida OTMlarida ish beruvchi tashkilotlarning yuqori malakali kadrlarga ehtiyojlarini qondirish, aholi bandligini ta'minlash uchun yangi ish o'rinlarini yaratish hamda mehnat sharoitlarini yaxshilash bilan birga mehnat resurslari intellektual salohiyatini oshirish vazifalari hozirgi davrning dolzarb masalasidir. Shu sababli, oliy ta'lim muassasasi faoliyatini samarali boshqarishda ta'limning sifatiga alohida e'tibor berish lozim bo'ladi (2.18-rasm).



**2.18-rasm. OTMni samarali boshqarishda ta'lim sifatini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari<sup>63</sup>**

Ta'lim jarayonida sifat alohida ahamiyat kasb etadi chunki, kadrlar salohiyati, bilimi, kasb mahorati to'g'ridan to'g'ri sifatning qandayligiga bog'liq bo'ladi. Jahon amaliyotida muayyan mutaxassislar kasbiy kompetentligini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda ta'lim boshqaruvi natijaviyligiga alohida e'tibor berilgan bo'lib, bunda asosiy urg'u ta'lim sifati menejmentiga qaratilmoqda. Bu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar oliy ta'lim tizimini boshqarishning nazariy-metodologik asoslari, sifat menejmenti va ta'lim sifati monitoringini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish hamda ta'lim sifati va samaradorligi uyg'unligini ilmiy jihatdan asoslovchi takliflarni ishlab chiqish, oliy ta'lim sifatini baholash tizimini takomillashtirish masalalariga qaratilgan.

Yuqori malakali kadrlarning aqliy va ma'naviy ehtiyojlarini yuksaltirish hamda ularning ishchanlik va bilimdonlik qobiliyatlarini shakllantirish va oshirishda ta'limning muhim xususiyatlari shaxs, davlat va jamiyat darajasida tavsiflanadi. Bu tavsiflash mezoniga ko'ra, davlat mamlakat aqliy va ilmiy salohiyatining rivojlanishi hamda aholining ma'naviy boyligi va huquqiy madaniyati oshirilishigi xizmat qiladi.

<sup>63</sup> Muallif ishlanmasi.

Agrar ta'limning o'ziga xos xususiyatlari va mavsumiyligi, tabiiy omillarning ta'sirida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda bir qator muammolar kelib chiqishi bilan boshqa sohalar farq qiladi. Ushbu muammoli vaziyatlarda agrar sohada faoliyat olib borayotgan boshqaruv xodimlari va mutaxassislari ko'zlangan maqsadga erishish uchun zamonaviy menejment usullaridan foydalanishi zarur hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida iqtisodiyotni modernizatsiyalash va raqamlashtirish samarali rivojlanishiga hamda boshqaruv mexanizmlarining raqamlashtirilishiga erishish imkonini beradi. Boshqaruv usullarini keng qo'llash sharoitida rahbar va kadrlar o'rtasida xarakter jihatidan tizim yaratiladi. Ammo, menejment usullarining ko'pligi va aniq boshqaruv vazifalarini ijrosini ta'minlashda boshqaruv usullaridan ma'qulini tanlab olishni yanada qiyinlashtiradi. Fikrimizcha, agrosanoat majmuasida yuqori natijalarga erishishda qishloq xo'jaligi sohasi uchun tayyorlanayotgan oliy ta'lim muassasalarida ta'limning uzviyligi va natijadorligiga e'tibor berish va innovatsiyalarni joriy etishdagi ustuvor vazifalar hal etishni talab etadi. Shu sababli agrar ta'lim tizimida hamda tizim tashkilotlarida innovatsion g'oyalar asosida tizim yaratish va joriy etish bo'yicha ustuvor vazifalarni belgilab olish lozim bo'ladi. Bunda, ta'lim tizimini innovatsion rivojlanish mexanizmini yaratish va xorijiy tajribalarni qo'llash, ta'lim tizimini samaradorligini baholash va uzluksizligini oshirib borish, ta'lim tizimining me'yoriy- huquqiy bazasini muntazam ravishda takomillashtirish kabi ustuvor vazifalarga ahamiyat qaratilishi zarur hisoblanadi.

Agrar ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni tadbiq etish orqali tayyorlanayotgan kadrlarda mehnat faoliyatini olib boruvchi tizim tashkilotlarni (vazirlik, qo'mita, agentlik, klaster, firma, fermer xo'jaligi, bo'lim, laboratoriya, kompaniya va h.k.) boshqarishda zamonaviy va raqamli texnologiyalar asosida faoliyatini olib borishda bilim, ko'nikma, tajribani shakllantirish zarur hisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, barcha iqtisodiyot tarmoqlarida boshqaruv usullarini mohiyati yoki amalga oshirish mexanizmiga ko'ra aniq standart talablarga to'la javob beradigan ko'rsatma, tavsiyalar yoki takliflar mavjud emas. Chunki

boshqaruv jarayonida kadrlar salohiyatidan kelib chiqib, tashkilot mavqei hamda boshqaruv prinsiplarini qo'llashda bir tekisda faoliyat ko'rsatishi qiyin jarayon hisoblanadi. Mehnat bozorini oliy ma'lumotli malakali kadrlar bilan ta'minlashda ta'lim muassasalari tomonidan boshqaruvning uzviyligini quyidagi boshqaruv usullarini joriy etish, takomillashtirib borish hamda doimiy ravishda qo'llash talab etiladi:


**birinchidan**, OTMni tamomlagan kadrlarni ishga joylashtirishda yo'nalish va mutaxassisligidan kelib chiqib, korxonada, tashkilot boshqaruv personaliga asoslangan tashkiliy-ma'muriy usullarini qo'llash;

**ikkinchidan**, kadrlarni moddiy-ma'naviy tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun tashkilotlarda ijtimoiy-iqtisodiy me'yorlashtirishga asoslangan iqtisodiy usullarni joriy etish;

**uchinchidan**, kadrlarni ish jarayoniga to'liq moslashishi uchun OTMlari bilan hamkorlikda ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida qo'llaniladigan ijtimoiy – psixologik usullarni ishlab chiqish.

Shu bilan bir qatorda agrar ta'lim tizimida kadrlarni ishga joylashtirishda rahbar va xodimlar o'rtasida boshqaruv amaliyotidagi vujudga keladigan xilma-xil muammolar orasida, albatta, birinchi o'rinda rahbar faoliyatining mazmuni, rahbarning individual fazilatlari bilan bog'liq masalalar majmui egallaydi. Zamonaviy lider har qanday tashkiliy tizimda markaziy va eng muhim rol o'ynaganidek, bu faoliyatni tashkil etish ob'ektiv ravishda boshqaruv nazariyasining asosiy muammosi hisoblanadi. Bunda mehnat sharoitlari - bu faoliyatning ijtimoiy, psixologik va sanitariya-gigienik xususiyatlari tizimini to'g'ri tashkil etish va shart-sharoitlar yaratish har bir rahbarning kun tartibidagi vazifasi bo'lishi lozim. Xodimlarni tanlash va kasb mahorati bo'yicha ularni yetuk mutaxassis qilish avvalo zamonaviy boshqaruv usullariga, tashkilotning madaniyati va qadriyatlariga, jamoaning yaxshi shakllanganligiga bog'liq bo'ladi. Shu bois, tashkilotni samarali boshqarishda xodimlarning o'z ishlariga munosabatini o'rganish, ularning taklif va tavsiyalariga e'tibor berish muhim hisoblanadi. Ta'lim tizimida esa, boshqaruv xodimlari va pedagog kadrlar

salohiyatini yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, malakali mutaxassis qilib tayyorlashda turli xil usullardan foydalaniladi. Xususan, agrar ta'lim muassasalari mehnat bozorining talablarini inobatga olgan kadrlar tayyorlash bo'yicha o'zlarining asosiy funksiyasini belgilab olishi zarur hisoblanadi (2.19-rasm).



**2.19-rasm. Kadrlar tayyorlashda ta'lim muassasasining funksiyasi<sup>64</sup>**

Oliy ta'lim muassasasi mehnat bozoriga raqobatbardosh malakali, inson kapitalini rivojlantirish va intellektual salohiyatga ega bo'lgan mutaxassislar kadrlar tayyorlashda o'zlari belgilab olgan missiyasidagi vazifalar ijrosini belgilangan muddatlarda amalga oshirishi zarur hisoblanadi. Izchil islohatlar natijasida agrar oliy ta'lim muassasalarida yetuk mutaxassislar tayyorlash jarayoniga ta'sir ko'rsata oladigan OTM rahbar va pedagog kadrlarining o'rnini alohida ta'kidlash lozim. Bugungi kunda ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda inson kapitalini ustuvor yo'nalish sifatida belgilab olgan har bir rahbar xodim, professor-o'qituvchilar dars mashg'ulotlarini olib borishda o'quv dasturidagi belgilangan vazifalarni talabalarga yetkazib bera olishi muhim hisoblanadi. Ushbu vazifalarni oliy ta'lim muassasasida to'laqonli, sifatli amalga oshirish, zamonaviy boshqaruv usullaridan samarali foydalanish o'zining ijobiy

<sup>64</sup> Muallif ishlanmasi.

natijasi berib, mehnat bozoriga malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi (2.9-jadval).

## 2.9-jadval

### Oliy ta'lim muassasasida qo'llaniladigan zamonaviy boshqaruv usullari<sup>65</sup>

Usul nomi	Tavsifi
Tashkiliy-ma'muriy usuli	– bu usul orqali oliy ta'lim muassasasi ushbu sohada faoliyatni olib borish bo'yicha qabul qilingan normativ xujjatlariga, yuqori pog'onadagi tashkilotlarning uslubiy va axborot-direktiv xujjatlariga, stragiylar, yo'l xaritalar, chora-tadbirlar, loyihalar, dasturlar, boshqaruv organi tomonidan berilgan vazifalarga tayangan holda boshqaruvchilar boshqaruv obyektiga ta'sir o'tkazadi hamda faoliyatni amalga oshiradi.
Iqtisodiy-rag'batlantirish usuli	– bu usul orqali ta'lim sifati va o'quv jarayoni samaradorligini oshirish, OTMning moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash, mehnat bozoriga raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda ish beruvchi tashkilotlar bilan bozor mexanizmlari asosida manfaatli hamkorlik qilish, tizimni rivojlantirish, rahbar va pedagog kadrlarni iqtisodiy tomondan qo'llab-quvvatlash qaratilgan. OTMni samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda eng maqbul variantlarni tanlab olish, xizmat ko'rsatish sohasini ilg'or yutuqlarini ko'rsatib berish, xodimlarni rag'batlantirish orqali yakunda mehnat bozoriga malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni o'z ichiga oladi.
Ijtimoiy-psixologik usuli	– ushbu usul orqali oliy ta'lim muassasasi ko'zlangan missiyasiga erishishda rahbar va pedagog kadrlarning barkamol shaxs sifatida rivojlantirish, boshqaruvda ularni ishtirokini ta'minlash, jamoaning ijtimoiy rivojlanishi, ma'naviy rag'batlantirish, tashkilotda sog'lom raqobat muhitini yaratish orqali yuksak salohiyatga ega bo'lgan kadrlar tayyorlashga asoslangan. Professor-o'qituvchilar muntazam ravishda o'zini rivojlantirishi va shu asosda bo'lajak kadrlarga ta'lim olayotgan mutaxassisliklari bo'yicha yetuk kadr bo'lishiga, sohani rivojlantirishga oid qarorlar qabul qila oladigan bo'lib shakllanishiga zamin yaratadi.

Shu jihatdan kelib chiqib, ta'lim jarayonlarini sifatini oshirish va ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash uchun moddiy-texnik ta'minot yuqori darajada bo'lishi zarurdir. Shu bois, mehnat bozoriga raqobatbardosh malakali kadrlar tayyorlashda oliy ta'lim muassasasi rahbar va pedagog kadrlari yuqorida sanab o'tilgan zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalangan holda ish jarayonlari va o'quv mashg'ulotlarini olib borishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek,

<sup>65</sup> Muallif ishlanmasi.



faoliyatning ichki xususiyati uning ruhiy tartibga solish jarayonlari va mexanizmlarini, uning tuzilishi va mazmunini, uni amalga oshirishning operativ vositalarini tavsiflashni o'z ichiga oladi. Talabalarda kelgusi faoliyatining asosiy tarkibiy qismlari-bu maqsad, motivatsiya, axborot asosi, qaror qabul qilish, reja, dastur, sub'ektning individual psixologik xususiyatlari va jarayonlar (kognitiv, hissiy, irodali), shuningdek, nazorat qilish mexanizmlari kabi psixologik shakllanishlar, tuzatish, ixtiyoriy tartibga solish kabi muhim vazifalarni shakllantirish zarur hisoblanadi. Har bir shaxs o'z faoliyatini tizimli amalga oshirishining asosiy vositasi tinimsiz mehnat, zamonaviy bilimlarni egallash va uni amaliyotga joriy etish hamda to'xtovsiz harakatlar majmuidir.

Zamonaviy menejment va ilm-fan yutuqlaridan foydalanishga asoslangan harakatlar tizimining kundalik qo'llanilishi tashkilot faoliyati samaradorligiga sezilarli tarzda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, ta'lim tashkilotlarida ham boshqaruvni zamonaviy usullar yordamida olib borilishi hamda malakali kadrlar tayyorlashda quyidagilar alohida ahamiyat kasb etadi:

OTM faoliyatini prognoz qilish va rejalashtirish, rivojlanish strategiyalarni ishlab chiqish;

Yangi ta'lim yo'nalishlari tashkil etish va mavjudlarini optimallashtirish;

Malakali kadrlarni tayyorlash orqali sifat standartlariga muvofiq mahsulot ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish;

Kadrlarni mehnat bozorida joy-joyiga oqilona ko'yish, vazifalarni taqsimlash, ish beruvchilar bilan muntazam hamkorlik qilish;

Ta'limga oid ma'lumotlardan foydalanish samaradorligini oshirish;

Har tomonlama nazorat, tahlil, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishni ta'minlash;

OTM rahbar va pedagog xodimlarining malakasi va mahoratini oshirib borish va boshqalar.


Dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari tajribasi shuni ko'rsatadiki, ular raqobat jarayonida o'z pozitsiyalarini tubdan o'zgartirish orqali muvaffaqiyatga erishadilar: ular tavakkal qilishadi; belgilangan me'yor va

qoidalarni takomillashtirish; mehnat bozorini egallashning noan'anaviy usullaridan foydalanish. Bunda, moslashuvchanlik va yangi sharoitlarga moslashuvchanlikni namoyon etish, muvaffaqiyat keltiradigan hamma narsani o'rganish, samarali strategiyalarning shakllanishiga xulq-atvorning stereotiplari o'rganish va tahlil qilish, shu jumladan, qisqa muddatli maqsadlarga erishish, xavf-xatarlardan qochish va tashabbuskorlik va boshqalar. Shuningdek, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar, mehnat bozoriga zamonaviy bilimlar ega bo'lgan kadrlar tayyorlashda axborot-kommunikatsion texnologiyalari va usullari joriy etilmoqda. Agrar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash jarayonida qishloq xo'jaligini raqamlashtirish texnologiyalari va zamonaviy usullarini joriy etish bo'yicha bir qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, ta'limning kredit-modul tizimi joriy etildi, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar hamda seminarlarni «onlayn» kuzatish va o'zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek, masofadan turib foydalanish imkonini beruvchi elektron kutubxona tizimini joriy etildi, ta'lim jarayoni ishtirokchilari faoliyati samaradorligini monitoring qilishning elektron tizimini joriy etilmoqda<sup>66</sup>. Yuqoridagi sanab o'tilgan, bir qator ijobiy natijalar bilan birgalikda hanuzgacha yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud. Shu bois, agrar ta'lim tizimining o'ziga xosligidan kelib chiqib, kadrlar tayyorlashning boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish talab etiladi. Agrar ta'lim tizimida tahsil olayotgan talabalarning o'qishini tamomlagandan keyin ishga joylashish jarayonida sohadagi muammolarni tahlil qilish, ushbu vaziyatlarda qaror qabul qilishi, zamonaviy bilimlarga ega ekanligini ko'rsatishi, nazariya va amaliyotning yuksak namunasini namoyon etishi, asosiysi o'qish davomida foydali mashg'ulotlar bilan band bo'lishini hisobga olib, vazirliklar, davlat qo'mitalari, davlat boshqaruvining boshqa organlari va xo'jalik birlashmalarida hamda ularning tarkibiy bo'linmalarida talabalarni ish bilan bandligini ta'minlash, darsdan bo'sh vaqtlarida rasmiy tarzda ishga qabul qilish maqsadida istiqbolda talaba shtatini

---

<sup>66</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-son Farmoni. <https://www.lex.uz>.


joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bunda, joriy etilayotgan talaba shtatiga oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoki bitiruvchi kurs talabalari stajor lavozimlariga ishga qabul qilish va zarur mehnat sharoiti bilan ta'minlash zarur hisoblanadi.



**2.20-rasm. OTM va ish beruvchi tashkilot hamkorligida istiqbolda “talaba shtati” mexanizmini joriy etish jarayoni<sup>67</sup>**

<sup>67</sup> Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Fikrimizcha, quyidagi talaba shtati mexanizmini joriy etish orqali, mehnat bozoriga hamda boshqaruv kadrlar zahirasiiga yuksak ma'naviyatli va vatanimiz ravnaqi uchun xizmat qiladigan bitiruvchi kadrlar yetishib chiqishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ushbu OTM va ish beruvchi hamkorligida talaba shtati mexanizmini joriy etish orqali professor-o'qituvchilarda o'z ustida yanada ko'proq ishlashini talab etsa, talabalarda o'quv jarayonida zamonaviy bilimlarni egallash bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bayon etishi hamda mustaqil ta'lim berishda muhim hisoblanib, talabalarda bilim, ko'nikma, malaka shakllanishiga turtki bo'ladi (2.20-rasm).



### 2.21-rasm. So'rovnoma asosida talaba shtati mexanizmini joriy etish zaruriyati<sup>68</sup>

Tadqiqotlarimiz davomida talaba shtati mexanizmini joriy qilishda qanday afzalliklarga erishishimiz hamda yosh bo'lajak kadrlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishini ta'minlashni inobatga olgan holda talabalar hamda ishlab chiqarish korxonalarida ish faoliyatini olib borayotgan talaba kadrlar o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi (2-ilova). So'rovnomada ishtirok etgan 300 nafar respondentdan ko'rilgan asosiy muammolar keltirib o'tilib istiqbolda talaba shtati mexanizmini joriy etish va ishlab chiqarish korxonalarida tadbiq etish bo'yicha so'rov natijalariga ko'ra, 210 nafar (70%) respondent talaba shtati mexanizmini joriy etish zarurligini ko'rsatgan bo'lsa, 75 nafar (25%) respondent korxonalarda talaba shtati

<sup>68</sup> Muallif tadqiqotlari asosida tayyorlangan.

mexanizmini joriy etilishi OTM larda ta'lim sifatining oshishini ko'rsatib o'tgan, 15 nafar (5%) respondent esa talaba shtatini joriy etish shart emasligini ko'rsatib o'tgan (2.21-rasm).

Bundan tashqari, agrar soha uchun kadrlar tayyorlashda ish beruvchi tashkilotlar bilan hamkorlikda istiqbolda talaba shtatlarini mexanizmini joriy etishning quyidagi afzalliklari, ta'lim muassasasi va tashkilot mehnat bozori uchun malakali kadrlar tayyorlashga imkoniyati paydo bo'lishini ko'rishimiz mumkin bo'ladi (2.10-jadval).

**2.10-jadval**

**Talaba shtati mexanizmini joriy etishning afzalliklari va natijadorligi <sup>69</sup>**

<b>№</b>	<b>Afzallik tomonlari</b>	<b>Natijadorligi</b>
1	Nazariy bilimlarni mustahkamlash, bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash.	Talabalar uchun ishlab chiqarish va ta'lim integratsiyasini yo'lga qo'yish uchun optimal yechim hisoblanadi.
2	Haqiqiy ish jarayonini o'rganish, amaliy jihatdan tanlangan yo'nalishning afzalligini, ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qilish.	Talabalar bevosita tashkilotda ish jarayonini tashkil etilishi va vazifalar ijrosini ta'minlashda ishtirok etadi.
3	Jamoa bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish va muloqot qilish malakasini oshirish.	Tashkilotning rahbar va xodimlari, mijozlar bilan muomala qilish madaniyati shakllanadi.
4	Tajribali professional ustoz bilan hamkorlik qilish tajribasiga ega bo'lishi.	Haqiqiy ustoz-shogird tizimi shakllanishi, ish tajribasiga ega bo'lgan xodimlardan foydali ma'lumotlar oladi.
5	Tanlangan mutaxassisligi va kasbga qo'yiladigan talablarni erta tushunish, kasbga yo'naltirish va keyingi o'sish yo'nalishini tanlab olishi.	O'z tanlagan mutaxassisligining kelgusida jamiyatimizga qanchalik zarurligini erta tushunishiga sabab bo'ladi.
6	Mehnat bozorini o'rganish, qanday bilim va ko'nikmalar talab etilishi, malakali kadr bo'lishi uchun o'qish jarayonida qaysi jihatlariga ahamiyat qaratish imnokiyatini yaratilishi.	Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va raqamlashtirish davrida mehnat bozorida malakali kadrlar bo'lishi uchun asosiy ta'sir etuvchi omillarga e'tibor berish kerakligi to'g'risida ko'nikma shakllanadi.
7	Bitiruvchi o'z karerasi, tajriba orttirishi va martaba boshlash uchun yaxshi imkoniyatning mavjudligi.	O'qishni bitirgandan so'ng aniq ish joyiga va ish o'rniga ega bo'lishi.
8	Ish beruvchi tashkilotda zahira kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yilishi.	Korxonalar va tashkilotlar uchun malakali kadrlar zahirasi shakllantiriladi
9	Ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasining samarali yo'lga qo'yilishi.	OTM va ish beruvchi korxonalar va tashkilotlar o'rtasida samarali hamkorlik yo'lga qo'yiladi.
10	Ta'lim sifati va o'quv jarayonining samaradorligini oshishi.	OTMda malakali kadrlar tayyorlash, rahbar va pedagog xodimlarning samarali mehnat faoliyati yo'lga qo'yiladi.

<sup>69</sup> Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Talaba shtati mexanizmini joriy etish va unga talabalarni jalb etish tashkilot uchun juda qiyin ish bo'lishiga qaramay, kelgusida tashkilot uchun afzalliklari mavjud. Yosh mutaxassislarni o'zlari uchun tarbiyalash, ularni tashkilot talab qiladigan talab va o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan malakali kadr qilib tayyorlash, OTM o'quv reja va dasturlarini to'g'rilash, shu asosda manfaatli hamkorlik hamda ilm-fan ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi. O'qish davomida egallangan nazariy bilimlarini amaliy faoliyatda mohirona qo'llay olish uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi. "... Ular agrar sohada yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi." "...Ular o'zlarini malakali, raqobatbardosh, ijro etuvchi, aniq, berilgan vazifalarga mas'uliyat bilan munosabatda bo'ladigan qilib ko'rsatadilar". Bugungi kunda agrar oliy o'quv yurtlari bitiruvchilariga bo'lgan talab muammosi nafaqat kasbiy tayyorgarlik jihatdan, balki tashkilotning ishlab chiqarish va boshqaruv samaradorligiga ta'siri va uning rivojlanishiga turtki bo'lish imkoniyatlari ko'rib chiqilishi zarur hisoblanadi.

Bugungi kun bitiruvchisi mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishi, kasbiy fazilatlarga ega, bilim va zamonaviy orgtexnika bilan ishlash qobiliyati ham alohida ahamiyatga ega. (internet, kompyuterlar, fakslar, printerlar, skanerlar va boshqalar), haydovchilik guvohnomasi va mashina boshqaruvi, chet tillarini bilish, o'z-o'zini boshqarish va odamlarni boshqarish qobiliyati; yuqori rahbariyat tomonidan qo'yiladigan talablarni tushunish, jamoada ishlash qobiliyati, vazifalarni hal qilishda mas'uliyat va mustaqillikka ega bo'lish kabi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi muhimdir.

Shuningdek, agrar ta'lim muassasalarinining moliyaviy imkoniyatlarini tahlil qilish va jalb etish manbalarini ko'rib chiqqanimizda har bir muassasasining imkoniyati turlicha darajada ekanligini ko'rishimiz mumkin. Respublikamizda oliy ta'lim muassasalari reytingini aniqlash mezonlari va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlashda xorijiy grant mablag'larini jalb etish, agrar sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish hamda davlat grantlari asosida tadqiqotlar o'tkazish muhim hisoblanadi. Shu bois, agrar yo'nalishda kadrlar tayyorlash

bo'yicha tayanch hisoblangan Toshkent davlat agrar universitetiga so'nggi yillarda xorijiy grant va fondlar tomonidan ajratilgan mablag'lar, sohalar buyurtmalari asosida o'tkazilgan tadqiqotlardan olingan mablag'lar, davlat grantlari mablag'larining ajratilishi tahlil qilindi (2.11-jadval).

**2.11-jadval**

**Toshkent davlat agrar universitetiga so'nggi yillarda xorijiy grant va fondlar, sohalar buyurtmalari asosida o'tkazilgan tadqiqotlar va davlat grantlari asosida o'tkazilgan tadqiqotlardan olingan mablag'lar to'g'risida ma'lumot<sup>70</sup>**

Ko'rsatkichlar	Yillar			2022-yilda 2020-yilga nisbatan o'zgarishi (+,-)
	2020	2021	2022	
Xorijiy ilmiy tadqiqot markazlari grantlari va xorijiy ilmiy fondlari mablag'lar (mln, so'm)	6 871	1 406	3 045	-3 826
Sohalar buyurtmalari asosida o'tkazilgan tadqiqotlardan olingan mablag'lar (mln, so'm)	2 993	1 662	2 706	-287
Davlat grantlari asosida o'tkazilgan tadqiqotlardan olingan mablag'lar (mln, so'm)	2 508	5 037	1 942	-566
<b>Jami</b>	<b>12372</b>	<b>8105</b>	<b>7693</b>	<b>-4 679</b>

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, TDAUda xorijiy grant va fondlar, sohalar buyurtmalari asosida o'tkazilgan tadqiqotlar va davlat grantlari asosida o'tkazilgan tadqiqotlardan olingan mablag'lari 2022-yilda 7 693 mln.so'mni tashkil etgan bo'lib, 2020-yilga nisbatan 4 679 mln,so'mga kamayganligini ko'rishimiz mumkin. Bu yerda moliyaviy oqimlarni kamayishiga asosiy sabab sifatida Covid-19 pandemiyasi hamda boshqaruvni samarali yo'lga qo'yilmaganligi asosiy omil sifatida ko'rsatishimiz mumkin. Shundan kelib chiqib, agrar sohada samaradorlikni oshirish maqsadida agrar ta'lim tizimida boshqaruvni samarali innovatsion usullarini qo'llash, malakali kadrlar tayyorlash va ushbu jarayonga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish, xorijiy grant va fond mablag'larini

<sup>70</sup> Toshkent davlat agrar universiteti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

yo‘naltirish, qishloq xo‘jaligidagi muammolarni bartaraf etishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash talab etiladi.


Agrosanoat majmuasining respublikamiz iqtisodiyotidagi mavqeini mustahkamlashda malakali kadrlarni tarbiyalash, ta‘lim berish va o‘z sohasilarining yetuk mutaxassislari bo‘lib shakllantirishda mehnat amaliyoti nafaqat muhim, balki o‘quv jarayonining ajralmas qismidir. Aynan ishlab chiqarish jarayonida nazariy egallagan bilimlarini qo‘llash, tajriba orttirish, olingan bilimlarning voqelikka muvofiqligi ochib beriladi, aslida “u nimani o‘rganganligi” va eng muhimi “nima uchun” tushunchasi paydo bo‘ladi. Talaba uchun ishlab chiqarish korxonasiidagi ish jarayoni va amaliyot ko‘pincha uning kasbiy karerasining boshlang‘ich nuqtasiga aylanadi. Shu tarzda bitiruvchi kadrlar vaqt va kuchni sezilarli darajada tejab, o‘qishni tugatgandan so‘ng keraksiz harakatlar qilmasligi va aniq qaerga borishni bilib olish imkoniyati yaratiladi.

### **§ 2.3. Agrar ta‘lim tizimida malakali kadrlar tayyorlashda boshqaruv samaradorligini baholash**

Oliy ta‘lim muassasalarida kadrlar tayyorlashda boshqaruv jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish, har bir tarkibiy bo‘linma, fakultet, kafedralar va talabalarining erishgan natijalariga asosan baholanadi. Oliy ta‘lim tizimida bir qator ijobiy o‘zgarishlarni, ta‘lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillikni berilishi natijasida boshqaruv samaradorligini oshirish, o‘quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va raqamli texnologiyalardan samarali foydalangan holda olib borish orqali mehnat bozoriga raqobatdosh kadrlar tayyorlanayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Qishloq xo‘jaligi sohasida ko‘zlangan maqsadlarga erishish, jahon bozorida oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berishning zamonaviy usullaridan foydalanish, eksport hajmini oshirish, importni qisqartirish, qishloq joylarda aholini o‘z tomorqasidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini olishi yo‘lga qo‘yish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, aholigini bandligini ta‘minlashda agrar ta‘lim tizimida erishilgan ilg‘or yutuqlarni joriy etish, nazariy manbalarni tahlil qilish, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilgan holda malakali kadrlar



tayyorlash orqali erishishimiz mumkin bo‘ladi. Buning uchun oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoni va ta’lim sifati samaradorligini oshirishda zamonaviy usullardan foydalangan holda mehnat bozoriga raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni ilmiy asosda yo‘lga qo‘yish muhim hisoblanadi (2.22-rasm). Shuningdek, kadrlar tayyorlashda ta’lim yo‘nalishlarini optimallashtirish, mehnat bozorini o‘rganish, boshqaruvni raqamlashtirish, insonvarparlik va vatanga muhabbat tuyg‘ulari asosida kadrlar tayyorlashni ilmiy asosda tashkil etish muhim hisoblanadi.




### 2.22-rasm. Kadrlar tayyorlashni ilmiy tashkil etish asoslari<sup>71</sup>

Oliy ta’lim muassasalarining asosiy vazifasi mehnat bozoriga malakali kadrlar tayyorlash ekanligini hisobga olib, ushbu ko‘zlangan maqsadga erishish uchun albatta, kadrlar tayyorlashni ilmiy tashkil etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, OTM boshqaruvini raqamlashtirish, yo‘nalishlar va mutaxassisliklarni optimallashtirish, ta’lim muassasasi qadriyatlarini hisobga olish, iqtisodiyot tarmoqlarida faoliyat olib borayotgan tashkilotlar bilan manfaatli hamkorlik va integratsiyalashuv, rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish, mehnat bozorini tahlil qilish va boshqa muhim jihatlarga e’tibor bergan holda o‘quv jarayoni va ta’lim sifati samaradorligining ijobiy natijalariga erishish mumkin. Shuningdek, malakali kadrlar tayyorlashda erishilgan ilm-fan yutuqlarini, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, professor-o‘qituvchilar va talabalar tomonidan erishilgan yutuqlaridan samarali foydalanish, ularni amaliyotga tadbiiq

<sup>71</sup> Muallif ishlanmasi.

etish orqali o'quv jarayoni va ta'lim sifatini yaxshilash imkoniyati yaratiladi. Bundan tashqari, OTMning asosiy vazifasi hisoblangan mehnat bozoriga sifatli bitiruvchini tayyorlash va ishlab chiqarish jarayonlariga yangi ishlanma va loyihalarni amalga oshirish muhim hisoblanadi. Agrar ta'lim tizimida qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirish, innovatsiyalarni joriy etish, yerlardan samarali foydalanish, ekinlar hosildorligini oshirish, asosiysi malakali kadrlar tayyorlashda OTMning rahbar va pedagog kadrlar mehnati, asosiy kadrlar buyurtmachilarini talablari va salohiyatli bitiruvchi kadrlarga bog'liq bo'ladi (2.23-rasm).



**2.23-rasm. Mehnat bozoriga kadrlar tayyorlashda OTMning mehnatini baholash<sup>72</sup>**

Shu bilan bir qatorda, agrar soha bo'yicha kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini baholash hamda ishlab chiqarish korxonalarida ish beruvchi tashkilotlarda faoliyat yuritayotgan kadrlar mehnatini ham alohida baholash lozim. Bugungi kunda agrar ta'lim muassasalarida respublika bo'yicha 5 tani tashkil etib boshqaruv tuzilmasi deyarli bir xil hisoblanadi. Sohada faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar va xodimlarning bevosita boshqaruv faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga aloqasi borligini ko'rsatish mumkin.

<sup>72</sup> Muallif ishlanmasi.

Agrar ta'limni rivojlantirish birinchi navbatda zamonaviy boshqaruv uslubiga ega bo'lgan rahbar kadrlarga bog'liq bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri oliy ta'lim muassasasining ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan agrar ta'lim muassasalarining faoliyati tahlil qilinganda Toshkent davlat agrar universiteti tayanch oliy ta'lim muassasasi ekanligi boshqa agrar ta'lim muassasalaridan farqli ravishda salohiyat ko'rsatkichi, talabalar kontingenti, xalqaro reytinglardagi o'rni hamda kadrlarning ishga joylashishi ko'rsatkichi bo'yicha yetakchi hisoblanadi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, agrar ta'limning boshqaruvida asosan nimalarga e'tibor qaratish lozimligi va muammolar ularning yechimlari alohida baholanishini ko'rsatib beradi. Shu bois, Toshkent davlat agrar universiteti Agrologistika va biznes fakulteti rahbar va pedagog xodimlarini oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashda amalga oshirishi lozim bo'lgan asosiy vazifalari va ularning ijrosini quyidagi jadvalda tahlil etildi (2.12-jadval).

**2.12-jadval**

**Toshkent davlat agrar universiteti Agrologistika va biznes fakulteti  
boshqarishda rahbar va pedagog kadrlarini samaradorligini baholash  
(2022 yil ma'lumotlari)<sup>73</sup>**

<b>№</b>	<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>Belgilangan vazifalar (%)</b>	<b>Amalda (%)</b>	<b>Asosiy maqsadlar (%)</b>
1	Ilmiy salohiyat (%)	60	53	<b>70</b>
2	Chop etilgan maqolalar	97	100	<b>150</b>
3	Tijoratlashtirishdan tushgan tushumlar	95	66,6	<b>100</b>
4	Chop etilgan o'quv adabiyotlari soni	100	80	<b>100</b>
5	Moddiy-texnika ta'minoti bilan ta'minlanganlik darajasi	100	72	<b>100</b>
6	Xorijiy tillarni biladigan professor-o'qituvchilar soni	42	17,8	<b>75</b>
7	Professor-o'qituvchilarning malaka oshirish va stajirovkalarda ishtirok etishi	100	40	<b>100</b>
8	Ixtiro, foydali model, sanoat namunalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid dasturlar va elektron ma'lumotlar bazalari uchun olingan guvoohnomalar soni	10	7	<b>38</b>
9	Chet tillarda olib boriladigan mutaxassislik fanlarini soni	36	15,2	<b>70</b>

<sup>73</sup> Manba: Oliy ta'lim muassasasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, boshqaruvda aniq maqsad va strategiyaning qo'yilishi tashkilotning nufuzini hamda kadrlar tayyorlashdagi ulushini ham ko'rsatib beradi. Toshkent davlat agrar universiteti misolida qaraydigan bo'lsak, birgina ilmiy salohiyat ko'rsatkichi bo'yicha universitet respublikada birinchi o'rindaligi hamda agrar ta'lim muassasalari o'rtasida tayanch universitetligi kadrlar tayyorlashda ham yetakchiligini belgilab beradi. Bugungi kunda universitet boshqaruv tuzulmasini ko'rib chiqadigan bo'lsak, asosiy boshqaruvda rektor va prorektorlarning ish jarayonining tizimli yo'lga qo'yilishi uchun aniq strategiyaga ega boshqaruv uslubi tanlangan. Universitet boshqaruv strategiyasi aniq maqsad yo'lida sifatli, raqobatbardosh kadrlar tayyorlanishiga xizmat qiladi.

Boshqaruv samaradorligin baholashda yuqori bo'g'indan tortib quyi bo'g'ingacha bo'lgan hodimlar birdek hisobga olinadi va bu jarayonning natijasi doim tahlil qilib borilishi lozim bo'ladi. Bugungi kunda har bir tizimning natijasi uning samarasini belgilab beradi. Bunda natija doim ham yaxshi bo'lmasligi mumkinligi va umumiy natijaga ta'sir ko'rsatishini ko'rishimiz mumkin bo'ladi<sup>74</sup>.

$$X_{sam} = B_v / A_{sm} \quad (2.1)$$

Bu yerda  $X_{sam}$ - xodimlar samaradorligi, (%)da

$B_v$ -belgilangan vazifalar, (%)da

$A_{sm}$ -asosiy maqsadlar, (%)da

Xodimlar samaradorligini aniqlashda asosan belgilangan vazifalarning bajarilishi nazorat qilinsa, bunda asosiy maqsadga erishish natijalarini ham hisobga olish lozim. Shu bilan bir qatorda boshqaruv samaradorligini baholashda kafedralar reytingi ularning universitet reytingidagi o'rnini ham hisobga olinishi zarur. Tadqiqot ishimizda universitet boshqaruv tuzilmasini har bir bo'g'inini tahlil qilganimizda kadrlar tayyorlashda tuzilmaning o'rnini va asosiy rahbar kadrlarning to'g'ri tanlanishi asosiy omil sifatida keltirib o'tildi.


Universitet tashkiliy tuzilmasining kadrlar tayyorlashda qanday o'rnini bor degan savol tug'ilishi tabiiy holat, chunki rahbarning qaror qabul qilishidan tortib

---

<sup>74</sup> Muallif ilmiy izlanishlari natijalari asosida ishlab chiqilgan.

uning boshqaruv uslubi jarayonga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan agrar oliy ta'lim muassasalarining tashkiliy tuzilmasi tahlil qilinganda bugungi kungacha takomillashtirilib kelinmoqda, asosiy maqsadni belgilanishi har bir rahbar uchun boshqaruvning qulay va aniq uslubda bo'lishini ta'minlaydi. Shu asosida Toshkent davlat agrar universitetining boshqaruv tuzilmasi shakllantirilgan bo'lib, bunda universitet nufuzini oshirish, xalqaro reytinglarda o'z o'rnini egallash, kadrlar tayyorlashda va ishga joylashtirilishida ish beruvchi tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish maqsadni talab darajasidan kelib chiqqan holda belgilanishiga zamin yaratilgan (2.24-rasm). Boshqaruv tuzilmasida faoliyat yuritayotgan har bir bo'g'in o'z funksiyasiga ega bo'lib, prorektorlar, boshqarma, bo'lim, sektor boshliqlari rahbarga bo'ysinishi va bu chiziqli funksional tuzilmani tashkil etishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, ta'lim muassasasida belgilangan vazifalarni ijrosini ta'minlashda barcha bo'linmalarning uzviylikda faoliyat olib borishini ko'rish mumkin. Universitet tashkiliy tuzilmasini ishlab chiqishda davlat rahbari va hukumat tomonidan qabul qilingan me'yoriy hujjatlar ijrosini ta'minlashga ham e'tibor qaratilgan. Shu bois, oliy ta'lim sohasini korrupsiyasiz sohaga aylantirish vazifasini ijrosini ta'minlash maqsadida barcha oliy ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'linmasining ham faoliyati yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, yosh avlodni tarbiyalashda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni hisobga olish, talabalar orasida ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash maqsadida ham mas'ul lavozimlar kiritilganligi ko'rishimiz mumkin.

Toshkent davlat agrar universitetida zamonaviy boshqaruv tizimini joriy etish, tarkibiy bo'linmalarning faoliyatini yanada optimallashtirish, xalqaro reytinglarda universitet nufuzini oshirish, mehnat bozori talablariga javob bera oladigan malakali kadrlar tayyorlash, o'quv jarayoni va ta'lim sifati samaradorligini oshirish maqsadida yangilangan tashkiliy tuzilmasi ishlab chiqildi. Ushbu tasdiqlangan tashkiliy tuzilma birinchi navbatda mehnat bozoriga raqobatbardosh malakali kadrlar tayyorlash vazifasi asosida tayyorlangan va amaliyotga joriy etilgan.



2.24-rasm. Toshkent davlat agrar universitetining yangilangan boshqaruv tuzilmasi<sup>75</sup>

<sup>75</sup> Manba: Toshkent davlat agrar universiteti ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Tashkiliy tuzilmaga yangi kiritilgan tarkibiy bo‘linmalar (Qabul jarayonini tashkil etish va talabalar registrator bo‘limi, Kar’era markazi va talabalar amaliyotlarni tashkil etish bo‘limi, O‘quv-uslubiy ta’minot bo‘limi, Xalqaro reytinglarda ishtirok etish va loyihalarni jalb etish sektori va boshqalar) malakali kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Ushbu tashkiliy tuzilmalar asosida Toshkent davlat agrar universitetining Nukus, Termiz va Andijon filiallari hisoblangan va hozirda alohida institut bo‘lib, agrar soha uchun kadrlar tayyorlashdagi boshqaruv jarayonlari 2021/2022 o‘quv yili ko‘rsatkichlari asosida baholandi. Unga ko‘ra, bugungi boshqaruvni ixchamlashtirish va raqamlashtirish sharoitida ta’lim muassasalari tomonidan mehnat bozoriga kadrlar tayyorlashda asosiy hisoblangan ilmiy salohiyat, milliy reytingdagi o‘rni, hamkorlik olib borilayotgan xorijiy va asosiy ish beruvchi tashkilotlar soni, OTMdagi tarkibiy bo‘linmalar soni bo‘yicha tahlil qilingan (3-ilova).

Oxirgi yillarda olib borilgan keng ko‘lamli islohot dasturlari doirasida respublikamiz oliy ta’lim muassasalarida ham qator amaliy ishlar olib borildi. Xususan, Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimidagi oliy ta’lim muassasalarida kadrlar boshqaruv jarayonlarini yaxshilash, universitetlarning reyting ko‘rsatkichlarini tizimli baholash va shu asosida ko‘rsatkichlar orqali keyingi istiqbolli rejalar ishlab chiqilayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Tadqiqot ishimizda 3-ilova ma’lumotlaridan kelib chiqib, Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimidagi to‘rtta oliy ta’lim muassasalaridagi kadrlar tayyorlashdagi boshqaruv jarayonlarini baholash bo‘yicha ko‘p omilli ekonometrik modeldan foydalangan holda tahlillarni olib bordik<sup>76</sup>.

$$y_i = \beta_0 + \beta_1 x_1 + \beta_2 x_2 + \dots + \beta_n x_n + u_i \quad (2.2)$$

Bu yerda,

$y_i$  – natijaviy omil (milliy reytingdagi o‘rni);

$x_1$  – ilmiy salohiyati;

---

<sup>76</sup> Норт Д.К. Институты и экономический рост: историческое введение.// – М.: Фонд экономической книги. «Начало», 1997. –158 с.

$x_2$  – talabalarni ishga joylashish ko‘rsatkichi;

$x_3$  – xorijiy hamkor oliy va ilmiy muassasalar soni;

$x_4$  – hamkorlik olib borilayotgan ish beruvchi tashkilotlar soni;

$x_5$  – OTMdagi tarkibiy bo‘linmalar soni;

$x_1 \dots x_n$  – ta’*sir etuvchi omillar*;

$\beta_1 \dots \beta_n$  – *model parametrlari*;

$u_i$  – *standart xatolik*.

To‘plangan mavjud ma’lumotlarga asoslanib, oliy ta’lim muassasalarining milliy reytingidagi o‘rnini baholash maqsadida quyidagicha mezonlarni ishlab chiqdik va ularning tavsifiy statistikasini 2.13-jadvalda keltirdik.

Ushbu jadval natijalaridan shuni aytishimiz mumkinki, universitetlar milliy reytingini yanada yaxshilashda ilmiy salohiyatning, talabalarni ishga joylashish ko‘rsatkichi hamda hamkorlik olib borilayotgan ish beruvchi tashkilotlar soni o‘rni yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

## 2.13-jadval

### Tahlillarda foydalanilgan o‘zgaruvchilarning statistik tahlili (2021/2022 o‘quv yili bo‘yicha)<sup>77</sup>

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha qiymat	Standart og‘ish	Minimum qiymat	Maksimum qiymat
Milliy reytingdagi o‘rni	13,5	5,97	6	20
Ilmiy salohiyat	46,5	14,93	30,2	66,2
Talabalarni ishga joylashish ko‘rsatkichi	86,7	3,07	84	91
Xorijiy hamkor oliy va ilmiy muassasalar soni	31	3,1	28	35
Hamkorlik olib borilayotgan ish beruvchi tashkilotlar soni	54,25	5,73	49	62
OTMdagi tarkibiy bo‘linmalar soni	28	1,4	27	30

Shuningdek, berilgan omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilganimizda, ularning o‘zaro bog‘liqligi ijobiy va statistik jihatdan muhim ekanligi asoslandi.

<sup>77</sup> Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.



Ya'ni, ham bir o'zgaruvchilar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik 0.9 dan yuqori ekanligi va R qiymat ko'rsatkichi esa ( $r < 0.005$ ) dan kichik 0.000 ga teng ekanligi ilmiy asoslandi.

Ko'p omilli ekonometrik modelda ishlatilgan omillar normal taqsimot qonuniga tekshiriladi. Modelda normal taqsimot funksiyasi quyidagi formula orqali hisoblandi:

$$f(x|\mu, \sigma) = \frac{1}{\sqrt{2\pi}\sigma} e^{\left(-\frac{1}{2\sigma^2}(x-\mu)^2\right)} \quad (2.3)$$

Normal taqsimot funksiyasidan olingan natijalardan shuni aniqladikki, barcha omillar normal taqsimot qonuniga bo'ysunar ekan. Bu esa omillar o'rtasida bog'lanishlarni tadqiq etishga imkon beradi.

## 2.14-jadval

### Ko'p omilli ekonometrik modelning hisoblangan parametrlari<sup>78</sup>

O'zgaruvchilar	Koeffi-sient	Standart xato	t-statistik	p-qiymat
$X_1$	0.022	0.610	1.400	0.000
$X_2$	0.041	0.086	0.060	0.002
$X_3$	0.064	0.058	0.534	0.000
$X_4$	0.030	0.002	0.026	0.004
$X_5$	0.012	0.042	0.044	0.001
<i>R-kvadrat</i>	0.906	<i>Bog'liq o'zgaruvchi o'rtachasi</i>		264.03
<i>O'xshashlik funksiyasi qiymati</i>	214.05	<i>Ehtimollik (F-statistika)</i>		0.000
<i>Regressiyaning standart xatoligi</i>	56.7	<i>F-statistika</i>		332.7

\*  $p < 0.1$ , \*\*  $p < 0.05$ , \*\*\*  $p < 0.01$  tarzda olindi.

Shu maqsadda, nazarda tutilgan barcha omillarning modelda ishlatilishini ko'rib chiqadigan bo'lsak, barcha omillarning ortib borishi universitetning milliy reytingini yaxshilashga olib kelishi isbotlandi (2.14-jadval).

<sup>78</sup> Muallif hisob-kitobi.

2.14-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, modelda ishlatilgan barcha omillar (o‘zgaruvchilar) statistik jihatdan ahamiyatli va ijobiy ta’sirda ekanligini ko‘rishimiz mumkin, ya’ni, fisher mezonining jadval qiymati  $F=332,7$  ga tengligi modelning statistik ahamiyatli deyish mumkin bo‘ladi.

Ko‘p omilli ekonometrik model parametrlarining mohiyati shundaki, regressiya tenglamasining faktorlari, ya’ni ilmiy salohiyat ( $X_1$ ) bir birlikga oshsa, universitet milliy reytingining 2.2 birlikga ortishi ilmiy asoslandi. Shuningdek, talabalarni ishga joylashish ko‘rsatkichi ( $X_2$ ), xorijiy hamkor oliy va ilmiy muassasalar soni ( $X_3$ ), hamkorlik olib borilayotgan ish beruvchi tashkilotlar sonining ( $X_4$ ) bir birlikka ortishi ham milliy reytingini ijobiy tarafdin oshirishi mumkinligi ilmiy asoslandi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan ma’lumotlar asosida agrar ta’lim tizimini boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish orqali bozor sharoitiga mos kadrlarni ko‘paytirish hamda xalqaro standartlarga mos kadrlar uzliksizligini ta’minlashga xizmat qilishi belgilab berilgan.

Respublikada mavjud agrar ta’lim muassasalari o‘rganilganda, quyidagi xulosalarga kelindi:

- kadrlarning salohiyatini shakllantirishda universitet reytingi va professor-o‘qituvchilar ilmiy salohiyatini optimal darajada oshirish;
- ishlab chiqarish korxonalarini va kadrlar o‘rtasidagi integratsiya jarayonidagi muammolarni bartaraf etish, bunda, asosan, mehnat bozorining qat’iy belgilangan talablarini chuqur tahlil qilish;
- kadrlarni tayyorlashda oliy ta’lim tizimini boshqarishda zamonaviy menejmentdan foydalanish;
- boshqarishda innovatsion tizimdan foydalanish;
- kadrlar salohiyatini rivojlantirish va samaradorligini oshirish uchun, eng avvalo, agrar ta’lim tizimini SWOT-tahlilini amalga oshirish lozim bo‘ladi.

Kadrlar salohiyatiga omillar ta’sir etish darajasiga ko‘ra, ichki va tashqi omillarga, shuningdek, olinadigan natijaga ko‘ra, ijobiy va salbiy omillarga bo‘lingan holda o‘rganildi. Agrar ta’lim tizimida malakali kadrlar tayyorlashni

rivojlantirish va boshqarishning SWOT-tahlili quyida keltirilgan (2.14-jadval). O'rganishlar natijasida tizimda mavjud imkoniyatlar va unga ta'sir etuvchi salbiy tomonlar keng yoritib o'tilib tahlil qilindi. Tizimning kuchli tomonlari asosida sohada hali qilinishi kerak bo'lgan ishlarning talaygina ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Agrar sohani yetakchi kadrlar bilan ta'minlashda aholining doimiy o'zgarib turadigan kasbiy faoliyat sharoitlariga moslashish, individual intilishlarga muvofiq doimiy o'z-o'zini rivojlantirish imkoniyatini ta'minlash, jamiyatning ta'lim resurslarini oshirish tamoyillariga asoslangan holda faoliyat olib borishi zarur. Ammo, agrar ta'lim yo'nalishlarini raqobat muhitida to'la javob bera oladigan qilib o'qitish, bilim va ko'nikmalarini shakllantirish lozim. Shu bois, agrar ta'lim muassasalari oldida o'quv jarayonlarini olib borishda bir qator muammolar saqlanib qolmoqda.

**Birinchidan,** mashg'ulotlar olib borilishida haddan ziyod ko'p qismining nazariy yo'nalishga bog'liqligi. Bu ta'lim muassasasini bitiruvchisining bevosita ish joyida moslashish jarayonining murakkablashishiga ta'sir qiladi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, bitiruvchilarning ish joylarida moslashishining qiyinchilikka duch kelishi hamda nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashning asosiy yo'nalishlarini tushuna olmasligi.

**Ikkinchidan,** ta'limning boshlang'ich bo'g'ini maktabgacha ta'lim muassasasi, maktablar, texnikumlar, oliy ta'lim muassasalarida ham yuqori samarali, zamonaviy o'quv jarayonini olib borish uchun zarur bo'lgan asosiy vositalar, asbob-uskunalar, o'quv-laboratoriya jihozlari, o'quv adabiyotlarining yetishmasligi to'g'ridan-to'g'ri ta'lim sifatiga ta'sir qilishi aks etadi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'quv jihozlarining eskirganligi yangi texnologiyalarni o'rganish va o'zlashtirish jarayonini yildan-yilga pasayishiga olib keladi.

**Uchinchidan,** ta'lim tizimidagi korrupsion holatlarning vujudga kelishi natijasida talabalar o'rtasida nomutanosiblik va keskinlikni hamda turli ziddiyatlarning kelib chiqishi orqali ta'lim muassasalarining nufuzi va mavqeini

pasayishiga olib keladi. Shuningdek, mamlakatda yuqori sifatli intellektual salohiyatni shakllantirishga to‘sqinlik qiladi.

**To‘rtinchidan,** ta‘lim va fan sohasini yetarli darajada moliyalashtirmaslik, oliy ta‘lim muassasalaridan tortib eng pastki bo‘g‘ingacha ta‘sir ko‘rsatib yuqori malakali kadrlar tayyorlashda bir qator muammolar bilan birga ta‘lim muassasalarining nufuzini pasaytiradi. Bundan tashqari, ta‘lim tizimini yetarlicha moliyalashtirmaslik ta‘lim darajasining pasayishiga va buning natijasida kadrlar salohiyati va iqtisodiy o‘shishning pasayishiga olib kelishi bilan bir qatorda davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

**Beshinchidan,** oliy ta‘lim muassasalari va mehnat bozori o‘rtasida ko‘pincha bevosita va bilvosita yaqin munosabatlarning yo‘qligi, mamlakatda intellektual salohiyatli kadrlarning ishga joylashishda vujudga keladigan muammolarning ortishiga va inson mehnatidan foydalanish sifatini sarhisob qilishning yakuniy bosqichiga aylanadi. Bitiruvchilarning aksariyati o‘qishni tugatgandan so‘ng o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ishlamaydi, hattoki to‘liq qayta tayyorlanishadi, ba‘zida ikkinchi mutaxassislik yo‘nalishlarini qayta o‘qishni afzal ko‘radi. Bu esa ta‘lim tizimining samaradorligiga putur yetkazadi. Biroq, bitiruvchilar “mutaxassisligi bo‘yicha” ish qidirganda ham, kam maoshli boshlang‘ich bo‘sh ish o‘rinlarini tanlashga tayyor emaslar, lekin shu bilan birga, ish beruvchi tegishli ish tajribasi va zarur ko‘nikmalarga ega bo‘lmagan universitet bitiruvchisini ishga olishga tayyor emasligi ham yaqqol ko‘zga tashlanadi.

SWOT-tahlili nafaqat agrar ta‘lim muassasalarining faoliyatidagi ichki - tashqi va ijobiy tomonlarini shuningdek, salbiy omillar kuchli hamda zaif tomonlari yoki imkoniyat va tahdidlarini ko‘rsatadi, balki sohada o‘zaro raqobatlasha olish imkoni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni to‘plash hamda boshqarish tizimi orqali erishish mumkin bo‘lgan vazifalarni hal etishda ham muhim rol o‘ynaydi.

2.15-jadval

**Agrar ta'lim tizimida malakali kadrlar tayyorlashni rivojlantirish va boshqarishning SWOT-tahlili<sup>79</sup>**

ICHKI		TASHQI
S KUCHLI TOMONLAR		O IMKONIYATLAR
<b>IJOBIY</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ agrar ta'lim tizimini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotganligi, rivojlantirish islohotlarini izchil davom ettirilayotganligi va huquqiy asoslarining yaratilganligi;</li> <li>✓ agrar ta'lim muassasalarini faoliyatini yuritishda ularni boshqarishda davlat aralashuvini bosqichma-bosqich kamayayotganligi;</li> <li>✓ agrar sohaga muntazam ravishda oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarining kadrlariga ehtiyojning mavjudligini;</li> <li>✓ ta'lim xizmatlarini ko'rsatishda zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo'llashning imkoniyatini mavjudligini;</li> <li>✓ agrar soha aholining bandligini va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishi hamda bu orqali malakali kadrlarga ehtiyojning mavjudligi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yoshlarni oliy ta'limga qamrov darajasini oshirish maqsadida qabul kvotalarini oshirib borilayotganligi;</li> <li>✓ agrar ta'lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berilib, ta'lim shakllari, usullari, ta'lim berish davomiyligini va boshqa bir qator imkoniyatlarning kengayotganligi;</li> <li>✓ agrar oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishda qabul chegarasidan kam ball to'plagan abituriyentlar uchun oshirilgan to'lov-kontrakt miqdorini ikki baravarga kamaytirilganligi;</li> <li>✓ agrar ta'lim tizimiga davlat tomonidan e'tibor qaratilib, qo'llab-quvvatlovchi chora-tadbirlar, dasturlar qabul qilinayotganligi;</li> <li>✓ mahalliy va xalqaro moliya tashkilotlarining mablag'larini jalb etgan holda, ta'lim tashkilotlarini moddiy-texnika ta'minotini yaxshilayotganligi.</li> </ul>
<b>W ZAIF TOMONLAR</b>		<b>T TAHDIDLAR</b>
<b>SALBIY</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ moddiy-texnika bazasining eskirganligi;</li> <li>✓ agrar ta'lim muassasalarini rivojlantirish uchun zaruriy iqtisodiy mexanizmlarning takomillashmaganligi;</li> <li>✓ ta'lim muassasalarini zamonaviy menejment tamoyillari asosida boshqarishning aniq mexanizmlarining mavjud emasligini;</li> <li>✓ mehnat bozoriga kadrlar tayyorlashda ish beruvchi tashkilotlar bilan ta'lim muassasalarini uzviy integratsiyasi ta'minlanmaganligi;</li> <li>✓ ta'lim muassasalari va asosiy ish beruvchilar o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlarining takomillashmaganligi;</li> <li>✓ agrar ta'lim muassasalari abituriyentlarni o'qishga jalb etishning jozibador usullaridan foydalanmasligini;</li> <li>✓ agrar ta'lim muassasalari tomonidan kadrlar tayyorlashda marketing usullaridan foydalanish darajasining pastligi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ bugungi kun yoshlari asosan iqtisodiyot, axborot-kommunikatsiya, pedagogika, xorijiy tillar yo'nalishlarida o'qishga qiziqish darajasining oshib borayotganligi;</li> <li>✓ ta'lim berish jarayonida laboratoriya jizohlarining yangilanmaganligi;</li> <li>✓ mehnat bozorida agrar ta'lim tizimida tayyorlanayotgan kadrlarga talabning kamayib borishi;</li> <li>✓ yuqori malakali kadrlar tayyorlashda nodavlat va xususiy oliy ta'lim tashkilotlarining ko'payib borayotganligi;</li> <li>✓ akademik va moliyaviy mustaqillik berilgan ta'lim muassasalarida ham agrar soha bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilayotganligi;</li> <li>✓ barcha sohalarda boshqaruv jarayoni raqamlashtirish asosida tashkil etilayotganligi bois kadrlarga talabning kamayib borishi.</li> </ul>

<sup>79</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

## II bob bo'yicha xulosa

Tadqiqot ishimizning ushbu bobi bo'yicha agrar ta'lim tizimini boshqarish hamda rivojlantirishda kadrlar tayyorlashdagi asosiy muammolar va ularning yechimlari bo'yicha tahlillar o'tkazilishi quyidagicha xulosalarni chiqarishga imkon berdi:

istiqbolda agrar sohada kadrlar buyurtmachilari hisoblangan tashkilotlar shtat jadvalida "Talaba shtati" mexanizmini joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi. Buning natijasida, mehnat bozoriga OTM va ish beruvchi tashkilotning samarali hamkorligi yo'lga qo'yilib, talabalar o'quv davrida egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llash, sohadagi mavjud muammolarni tahlil qilish, kreativ fikrlash, qaror qabul qilish bo'yicha o'zlarida bilim, ko'nikma va tajribani shakllantirish imkoniyati paydo bo'ladi;

tadqiqot ishimizda agrar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning boshqarish jarayoniga turli omillar ta'siri o'rganilib, ular darajasiga ko'ra, ichki va tashqi omillar, shuningdek kadrlar salohiyatiga ko'ra, ijobiy va salbiy omillarga asoslanib SWOT-tahlili qilindi. Tadqiqot ishida SWOT-tahlilining agrar ta'lim muassasalarida malakali kadrlar tayyorlashda samarali yo'lga qo'yilishi va amaliyotga joriy etilishi belgilandi. Ushbu tahlil istiqbolda agrar ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni rivojlantirishi va boshqaruvdagi muammolarini bartaraf etishga xizmat qiladi;

mehnat bozorini oliy ma'lumotli malakali kadrlar bilan ta'minlashda ta'lim muassasalari tomonidan boshqaruvning uzviyligini quyidagi boshqaruv usullarini joriy etish, takomillashtirib borish hamda doimiy ravishda qo'llash talab etiladi: **birinchidan**, OTMni tamomlagan kadrlarni ishga joylashtirishda yo'nalish va mutaxassisligidan kelib chiqib, korxonalar, tashkilot boshqaruv personaliga asoslangan tashkiliy-ma'muriy usullarini qo'llash; **ikkinchidan**, kadrlarni moddiy-ma'naviy tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun tashkilotlarda ijtimoiy-iqtisodiy me'yorlashtirishga asoslangan iqtisodiy usullarni joriy etish; **uchinchidan**, kadrlarni ish jarayoniga to'liq moslashishi uchun OTMlari bilan hamkorlikda

ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida qo'llaniladigan ijtimoiy – psixologik usullarni ishlab chiqish;

tadqiqot davomida so'rovnoma o'tkazildi va so'rovnomada ishtirok etgan 300 nafar respondentdan ko'rilgan asosiy muammolar keltirib o'tilib istiqbolda talaba shtatini joriy etish va ishlab chiqarish korxonalarida tadbiq etish bo'yicha so'rov natijalariga ko'ra, 210 nafar (70%) respondent talaba shtatini joriy etish zarurligini ko'rsatgan bo'lsa, 75 nafar (25%) respondent korxonalarda talaba shtati joriy etilishi OTM larda ta'lim sifatini oshishini ko'rsatib o'tgan, shu bilan bir qatorda 15 nafar (5%) respondent talaba shtatini joriy etish shart emasligini ko'rsatib o'tdi;

oliy ta'lim muassasalarida ilmiy salohiyat darajasi, talabalarni ishga joylashish ko'rsatkichi, xorijiy hamkor oliy va ilmiy muassasalar soni, hamkorlik olib borilayotgan ish beruvchi tashkilotlar sonining bir birlikka ortishi ham milliy reytingini ijobiy tarafdin oshirishi mumkinligi ilmiy asoslandi.

### **III BOB. AGRAR TA'LIM TIZIMIDA KADRLAR TAYYORLASHNING BOSHQARUV MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI**

#### **§ 3.1. Agrar ta'lim tizimida bozor mexanizmlari asosida kadrlar tayyorlashning asosiy yo'nalishlari**

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar asosida ta'lim tizimida ham bir qator ijobiy natijalarga erishilmoqda. Shu bilan birga, ta'limda ro'y berayotgan integratsiya jarayonlari xalqaro standartlarga javob bera oladigan yangi ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni taqozo etadi.

Bugungi kunda ta'lim jarayoni bilan bog'liq bo'lgan yangi yondashuvlar, umrbod ta'lim, ta'lim natijalari texnologiyasiga e'tibor qaratgan holda bitiruvchining fazilatlarini modellashtirishga kompetensiyaga asoslangan yondashuv, kredit tizimi, masofaviy o'qitish usullari va turli darajadagi metodlardan foydalangan holda amalda qo'llash ijobiy natijalarni keltirib chiqaradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ushbu yangiliklarning barchasi mamlakatimizda faol joriy etilmoqda va ularni rivojlantirish davlat ta'lim siyosatining muhim qismi bo'lib hisoblanadi. Ushbu jarayonda malaka tizimini shakllantirish va uning elementlarini (milliy va tarmoq malaka kvalifikatsiyalari, kasbiy standartlar va malakani baholash tizimi) ishlab chiqishdan iborat bo'lib, bu ish sohalar o'rtasidagi integratsiyani yanada chuqurlashtiradi.

Yangi O'zbekistonning asosiy maqsadi ta'lim jarayonlarini rivojlantirish va sifat bosqichiga olib chiqish, mehnat bozori talablariga javob beradigan malakali kadrlarni tayyorlash, o'quv jarayoni va ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, yangi ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish, mamlakatda ta'lim tizimini isloh qilish yuzasidan ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirishdir. Shu bilan birga, professional ta'lim dasturlari YuNESKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (TXST) darajalari bilan uyg'unlashtirish, o'quv jarayoniga O'zbekistonning Milliy



kvalifikatsiya tizimini to'laqonli joriy etish, kadrlarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash, ilg'or xorijiy tajribalar asosida professional ta'lim tizimini takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish hamda mazkur jarayonlarga ish beruvchi tashkilotlarni keng jalb qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-sonli Farmoni qabul qilindi.<sup>80</sup> Farmonga asosan Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (TXST) darajalari bilan uyg'unlashgan yangi boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini joriy etish, ilg'or xorijiy tajribalar asosida O'zbekiston Respublikasida milliy kvalifikatsiya ramkasini va Milliy professional standartlarni ishlab chiqish vazifalari yuklatildi.

Zamonaviy kasblar bo'yicha mutaxassislarni salohiyatli qilib tarbiyalashda asosiy omillarni hisobga olish kadrlarning potensialiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli har bir kasbiy faoliyatni to'liq tahlil etishimiz hamda kasbga yo'naltirishda kadrlarning bilim darajasini baholash va tizim tashkilotlarning ish uslubini o'quv jarayonlariga tadbiq etish samarali yechim hisoblanadi.

O'zbekistonda ta'lim tizimida keng ko'lamli islohotlarning amalga oshirilishi, mamlakatimiz qishloq xo'jaligida tub islohotlarning amalga oshirilishi, shuningdek, ko'plab xususiy oliy o'quv yurtlari va xorijiy universitetlar filiallarining tashkil etilishi agrar ta'lim tizimida bozor mexanizmlari asosida kadrlar tayyorlashni taqozo etadi. Shu bois, boy tarixga ega va mamlakatimiz qishloq xo'jaligi rivojiga katta hissa qo'shgan agrar ta'lim tizimida faoliyat olib boruvchi muassasalarda bozor mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy ta'lim muassasalari sifatida tan olish uchun yetarli shart-sharoitga ega. Xususan, Toshkent davlat agrar universiteti O'zbekiston Respublikasining qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi eng yirik va yetakchi oliy o'quv yurtlaridan biridir. Davlat

---

<sup>80</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-sonli Farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

universitetlarini o'zini o'zi boshqarish va o'zini o'zi moliyalashtirishga o'tkazish bo'yicha davlat siyosati doirasida universitet va uning huzuridagi texnikumlarni transformatsiyaga tayyorlash zarur, bu esa o'z navbatida uni boshqarishdagi mavjud yondashuv va amaliyotlarni to'liq qayta ko'rib chiqish, malakali kadrlar tayyorlashda bozor mexanizmlarini joriy qilishni bo'yicha ustuvor yo'nalishlari hamda amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqishni talab qiladi (3.16-jadval). Bu o'z navbatida, har bir ta'lim muassasasi bugungi izchil o'zgarib borayotgan davrda yetuk mutaxassislar tayyorlashi uchun muhim hisoblanadi.

### 3.16-jadval

#### Agrar ta'lim tizimini samarali boshqarishda bozor mexanizmlarini joriy qilishning asosiy yo'nalishlari<sup>81</sup>

№	Ustuvor yo'nalishlar	Kutilayotgan natija
1	Ta'limning xalqaro standartlari asosida ochiqligini ta'minlash	Oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga erishiladi
2	Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini optimallashtirish	Mehnat bozorida raqobatbardosh, yangi mutaxassisliklarga ega bo'lgan malakali kadrlar tayyorlanadi.
3	Masofaviy va dual ta'lim uchun elektron axborot manbalarini taqdim etish maqsadida "Media-markaz" faoliyatini yo'lga qo'yish	Agrar sohada zamonaviy ta'lim olish shakllari orqali ish beruvchilar va OTM o'rtasida samarali hamkorlik vujudga keladi.
4	Axborot-resurs markazidagi o'quv adabiyotlarini to'liq raqamlashtirish va Virtual agroaxborot-resurs tarmog'ini yaratish	Ta'lim oluvchilarga va ishlab chiqaruvchilar uchun yangi bilimlarni egallashi uchun yagona agroaxborot ma'lumotlar bazasi yaratiladi.
5	Agrar ta'lim tizimida malakali rahbar va pedagog kadrlarni TOP-1000 talik reytingga ega nufuzli oliy va ilmiy ta'lim tashkilotlarida malaka oshirish va stajirovkalarini tashkil etish	Rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini oshirishga erishiladi va ta'lim berishda xorijiy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.
6	Xodimlarni boshqarishning zamonaviy jarayonlari bo'yicha trening (yollash, tanlash, iste'dodlarni boshqarish, iste'dodlar fondi) tizimini yo'lga qo'yish	Kelgusida rahbar kadrlar zahirasi shakllantiriladi va is'tedodli yoshlarni ilm-fanga yo'naltiriladi.
7	Ta'lim sifatini oshirish maqsadida «Feedback» tizimini takomillashtirish	Talabalar va pedagog xodimlar o'rtasida vujudga kelayotgan muammolarni bartaraf etish imkoniyati yaratiladi.
8	Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirish hamda ekologik savodxonlikni yaxshilashga e'tibor qaratish	Besh tashabbus doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash va yashil iqtisodiyotga o'tishning ustuvor vazifalari ijrosi ta'minlanadi.

<sup>81</sup> Муаллиф ишланмаси.

<b>№</b>	<b>Ustuvor yo‘nalishlar</b>	<b>Kutilayotgan natija</b>
9	Mehnat bozoriga yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga ish beruvchi tashkilotlarni faol jalb etish va hamkorlik olib borish	O‘quv jarayonini tashkil etishda ish beruvchi tashkilotlarda yuqori malakaga ega bo‘lgan xodimlar jalb etiladi va ilm-fan ishlab chiqarish integratsiyasi ta‘minlanadi.
10	Ta‘lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta‘minlash, moddiy-texnik ta‘minotini mustahkamlash, investitsiyalarni jalb etish	Ta‘lim xizmatlari ko‘rsatishning turli usullari yordamida OTM moddiy-texnika bazasi mustahkamlanadi va OTMdagi bo‘sh turgan bino-inshoatlardan samarali foydalaniladi.
11	Pedagogik xodimlarning me‘yoriy-uslubiy xujjatlarini raqamlashtirish (QR tizimida) va avtomatik boshqarish tizimi bo‘yicha taqsimlash	O‘quv yili uchun mo‘ljallangan yuklamani taqsimlashda turli xil muammoli vaziyatlarni oldini olish, yaratgan adabiyot va o‘quv qo‘llanmalarini yuklab olishda qo‘laylik yaratiladi.
12	Ilm va innovatsiyaga asoslangan agrotexnologiya va ekologik barqarorlik amaliyotlarini rivojlantirish	Zamonaviy agrar ta‘lim tizimida kadrlar tayyorlashning boshqaruv mexanizmlari takomillashtiriladi va atrof-muhit muhofazasini ta‘minlash imkoniyati yaratiladi.
13	Milliy va xalqaro reytinglarda OTM o‘rnini mustahkamlash	Ta‘lim xizmatlari ko‘rsatishning globallasuvi jarayonida xorijiy va mahalliy abituriyentlarni OTMga jalb etish imkoniyati, xorijiy oliy va ilmiy ta‘lim tashkilotlari bilan hamkorlik qilish imkoniyati yanada oshib boradi.

Mazkur ustuvor yo‘nalishlar va kutilayotgan natijalar asosida agrar ta‘lim tizimini samarali boshqarish jarayonida oliy, o‘rta maxsus va professional ta‘lim muassasalariga izchillik bilan joriy etish, innovatsion boshqaruv usullari yordamida kadrlar tayyorlash va xodimlarni boshqarish jarayoni olib borilishi bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Shu bois, mehnat bozorida ham erkin raqobat muhiti shakllanadi va bu jarayon iqtisodiyotni barqarorlashuvi hamda agrar sohani yanada rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Respublikamiz ta‘lim tizimida olib borilayotgan ulkan islohotlar natijasida ta‘limning uzviyligini ta‘minlashga alohida e‘tibor berilishi natijasida bir qator ijobiy o‘zgarishlar bilan birga, amaldagi ta‘lim dasturlari va ta‘limning xalqaro standart tasniflagichi (TXST) darajalariga moslashtirish talab etiladi. Mazkur ta‘limning xalqaro standart klassifikatori darajalarini mamlakatimiz ta‘lim tizimiga joriy etish xalqaro ta‘lim tashkilotlarini bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamkorlik aloqalarini o‘rnatish orqali jahon andozalari asosida ta‘lim berishning zamonaviy usullarini joriy etish, mehnat bozorini malakali raqobatbardosh kadrlar bilan

ta'minlash, ta'lim tizimiga investitsiyalarni jalb etishning jozibadorligini oshishiga xizmat qiladi (3.17-jadval).

### 3.17-jadval

#### O'zbekistonda amaldagi ta'lim dasturlari va ta'limning xalqaro standart klassifikatori darajalari<sup>82</sup>

MSKO	Xalqaro tajriba asosida taklif	Respublikada amaldagi holat
MSKO 8	Doktorantura	Doktorantura
MSKO 7	Magistratura	Magistratura
MSKO 6	Bakalavriat	Bakalavriat
MSKO 5	oliy ta'lim tizimi bilan integrallashgan, ta'lim dasturlari asosidagi o'rta maxsus professional ta'lim (texnikum)	O'rta-maxsus professional ta'lim
MSKO 4	O'rta maxsus professional ta'lim (kollej)	O'rta professional ta'lim
MSKO 3	Boshlang'ich professional ta'lim (kasb-hunar maktabi)	Boshlang'ich professional ta'lim
MSKO 2	Umumiy o'rta ta'lim	Umumiy o'rta ta'lim
MSKO 1	Boshlang'ich ta'lim	Boshlang'ich ta'lim
MSKO 0	Kichik yoshdagi bolalar ta'limi	Kichik yoshdagi bolalar ta'limi

Mazkur ta'limning xalqaro standarti tasniflagichiga (TXST) ko'ra, mamlakatimizning alohida strategik hujjatlarida malaka tizimi elementlarini ishlab chiqish zarur hisoblanadi. Milliy malaka tizimini rivojlantirish va rivojlantirish muammolari, shuningdek, tegishli masalalar ko'rib chiqish orqali O'zbekistonda amaldagi ta'lim dasturlari va ta'limning xalqaro standart klassifikatori darajalarini joriy etishni taqozo etadi. Albatta, darajalarni joriy etish jarayonida har bir darajaning alohida vazifalarni bajarishi, bu vazifalar o'z navbatida 8 ta daraja bo'yicha uzviyligini ta'minlash muhim hisoblanadi. Bunda, biz ko'rib chiqayotgan oliy ta'lim tizimi bilan integrallashgan, ta'lim dasturlari asosidagi o'rta maxsus professional ta'lim, o'rta maxsus va boshlang'ich ta'lim shakllarida bitiruvchilarga alohida kasblar va malakalar berish orqali mehnat bozorini o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan talabini qondirish imkoniyati yaratilib, yangi tashkil etilayotgan ishlab chiqarish korxonalarini mahsulot ishlab chiqarishda ijobiy natijalarga erishish mumkin bo'ladi.

<sup>82</sup> Manba: Qishloq xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Shuningdek, agrar yoʻnalishdagi oʻrta maxsus, boshlangʻich, professional taʼlim muassasalarida tahsil olayotgan oʻquvchilarga agrar oliy oʻquv yurtlarida joriy etilgan taʼlim berish usullari, oʻquv reja va dasturlarini integratsiya qilish, ish beruvchi tashkilotlar bilan manfaatli hamkorlikni yoʻlga qoʻyish, zamonaviy kasblarga boʻlgan talabni oʻrganish yoʻli bilan agrar taʼlim tizimida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimi vujudga keladi. Shu bilan birgalikda, agrar taʼlim tizimida kadrlar tayyorlashning boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishda mehnat bozorida raqobat muhitini shakllantirish, kadrlarda oʻz sohasiga boʻlgan qiziqishni yanada yaxshilash yoʻllari, asosiysi taʼlimning xalqaro standart talablari asosida kadrlar tayyorlash yoʻlga qoʻyiladi.

Agrar taʼlimni rivojlanishiga asosiy turtki boʻladigan va hududlarda qishloq xoʻjaligi korxonalarida sifatli mahsulot ishlab chiqarish, korxonalar samaradorligini oshishida oʻrta boʻgʻin kadrlari, yaʼni oʻrta maxsus va professional taʼlim tizimida tahsil olayotgan oʻquvchilariga bevosita bogʻliq boʻladi. Oʻrta maxsus va professional taʼlim muassasalari moddiy-texnik taʼminotini yaxshilash, malakali oʻqituvchilar bilan taʼminlash, ularga yetarli shart-sharoitlar yaratish zarur hisoblanadi. Shu bilan birga, Oʻzbekistonda amaldagi taʼlim dasturlari va taʼlimning xalqaro standart klassifikatori darajalari asosida professional taʼlim yoʻnalishlari kasblar klassifikatori va kasbiy mutaxassislik standartlarini ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

Qishloq xoʻjaligi boʻyicha professional taʼlimning tayyorlov yoʻnalishlari, kasblar va mutaxassisliklar klassifikatorining yangi kasblarni egallagan bitiruvchilar (kadrlar) oʻz kvalifikatsiyalari asosida ishlab chiqarish korxonalarida samarali mehnat faoliyatini tashkil etishi, agrar sohani barqarorligini taʼminlashi va oliy taʼlim muassasalariga oʻqishga qabul qilinishi, shu asosda oliy, oʻrta maxsus va professional taʼlim tizimining uzviy integratsiyasini taʼminlashga erishiladi (3.18-jadval). Shu bois, agrar sohani oʻrta boʻgʻin kadrlari bilan taʼminlash doirasida amalga oshirilayotgan barcha zarur chora-tadbirlarni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlanishi ham bejiz emasligini koʻrishimiz mumkin boʻladi. Chunki aholi bandligini taʼminlashda agrar sohaning oʻrni beqiyos hisoblanadi.

**Qishloq xo‘jaligi bo‘yicha professional ta‘limning tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va mutaxassisliklar klassifikatorining yangi tahrirdagi loyahasiga kiritilgan kasblar soni**<sup>83</sup>

№	3-daraja (Boshlang‘ich professional ta‘lim)		4-daraja (O‘rta professional ta‘lim)		5-daraja (O‘rta maxsus professional ta‘lim)	
	Kasblar soni	Malakalar soni (kvalifikatsiyalar)	Kasblar soni	Malakalar soni (kvalifikatsiyalar)	Kasblar soni	Malakalar soni (kvalifikatsiyalar)
1	<b>36</b>	<b>86</b>	<b>43</b>	<b>64</b>	<b>35</b>	<b>46</b>

*Izoh: 3,4,5 – darajalar bo‘yicha mehnat bozori ehtiyojlaridan kelib chiqib jami 114 ta kasb doirasida 196 ta malakalar (kvalifikatsiya) bo‘yicha kadrlar tayyorlash mumkin.*

Ushbu jadval ma‘lumotlarini tahlil qilganimizda, boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha mehnat bozori talablaridan kelib chiqib, 114 ta kasblar doirasida 196 ta malakalar (kvalifikatsiyalar) ishlab chiqilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bundan ko‘rinib turibdiki, agrar sohani o‘rta bo‘g‘in mutaxassislariga bo‘lgan talabini qondirish uchun zamonaviy bilimlarga va kasblarni egallagan mutaxassislar talab etiladi.

Tadqiqotimiz davomida qishloq xo‘jaligi ko‘p qirrali ekanligini hisobga olib, iqtisodiyotning bir tarmog‘i sifatida u boshqa tarmoqlardan sezilarli darajada farq qilishi va qishloq xo‘jaligi sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlashda quyidagi mehnatdan foydalanishga ta‘sir qiluvchi xususiyatlarga ega:

mehnat unumdorligi tabiiy-iqlim sharoitiga, korxonaning joylashishiga va tuproq unumdorligiga bog‘liq bo‘lib, bu ishlab chiqarishning mehnat zichligi va mehnat rentabelligida sezilarli farqlarga olib kelishi;

qishloq xo‘jaligidagi mehnat jarayoni yaqqol mavsumiy xususiyatga ega (ayniqsa, qishloq xo‘jaligida), bu yil fasliga qarab mehnatdan notekis foydalanishni oldindan belgilab beradi, ya‘ni mavsumiylik ekish, o‘simliklarni parvarish qilish paytida ishchi kuchiga bo‘lgan ehtiyojning keskin oshishi;

bir nechta tegishli mutaxassisliklar bo‘yicha ishchilarni tayyorlash uchun moliyaviy resurslarning qo‘shimcha xarajatlariga olib keladi va nisbatan past malaka darajasini keltirib chiqarishi;

<sup>83</sup> Manba: Qishloq xo‘jaligi vazirligi ma‘lumotlari asosida tayyorlangan.

dehqonchilik tarmog'ining o'ziga xosligi ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va kompleks mexanizatsiyalashning keng qo'llanilishini cheklashi;

ish turlarining xilma-xilligi va ularni amalga oshirishning qisqa muddatlari ishchilarning universal malakasini talab qilishi;

tirik organizmlar bilan ishlash nafaqat jismoniy, aqliy, balki ma'naviy stressni vujudga keltirishi;

qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish davri bilan ish vaqti to'g'ri kelmaydi, shuning uchun mehnat natijasi uzoq vaqtdan keyin o'zini namoyon qilishi.

Shunga ko'ra, qishloq xo'jaligida mehnatning mavsumiyligini hal qilish, yil davomida mahsulot ishlab chiqarish, xodimlar bandligini ta'minlash, xo'jaliklarni barqaror rivojlantirish muhim hisoblanadi. Sanoatdagi mehnatning mavsumiyligini to'liq bartaraf etib bo'lmasligi, qishloq xo'jaligi korxonalarining mahalliy va xorijiy tajribasi orqali mavsumiylikni qisqartirish yo'nalishlarini aniqlashga imkon beradi:

1) eng ko'p mehnat talab qiladigan jarayonlarni maksimal darajada mexanizatsiyalash va yuqori unumdor uskunalardan foydalanish;

2) turli xil ish davriga ega bo'lgan ekinlar va navlarning, shuningdek, mehnat xarajatlarini tenglashtirishga yordam beradigan tarmoqlarning kombinatsiyasi;

3) qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish joylarida qayta ishlash va uzoq muddatli saqlashni tashkil etish, ya'ni agrosanoat integratsiyasini rivojlantirish.

Mehnatning mavsumiyligini bartaraf etishda mehnat sifatini oshirish, ishchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tashkil etish, malakali kadrlar tayyorlash muhim rol o'ynaydi.

Shunday qilib, agar qishloq xo'jaligi tashkilotlarida kasbiy mehnat taqsimoti yetarlicha chuqurlashgan bo'lsa, agrar soha xo'jaliklarida ularning a'zolarining analitik hisobdagi kasbiy mansubligi "toifasi" bilan belgilanadi. Shu bilan birga, xo'jalik rahbarining kasbiy vazifalari yetakchilik funksiyalaridan, traktorchi va

hatto eng oddiy uskunalar yordamida ishlarni bajaradigan chorvachi sifatida ishlashdan iborat. Shu bois, “Qishloq xo‘jaligida raqamli texnologiyalar” yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash muhim hisoblanadi. “Qishloq xo‘jaligida raqamli texnologiyalar” yo‘nalishi uchta malakani o‘z ichiga oladi: Raqamli axborotni qayta ishlash analitigi, Qishloq xo‘jaligida raqamli texnologiya, Qishloq xo‘jaligida dronlarni boshqarish operatori.

“Qishloq xo‘jaligida raqamli texnologiyalar” yo‘nalishi bugungi kunda agrar sohani raqamlashtirish jarayonida asosiy mutaxassislarga bo‘lgan talabni qondirishga imkon beradi. Ushbu yo‘nalish qishloq xo‘jaligini isloh qilish va mehnat unumdorligini oshirish maqsadida professional ta‘lim yo‘nalishlari, mutaxassisliklar va kasblar klassifikatoriga kiritilgan bo‘lib, u quyidagi kasblarni qamrab oladi: Ma‘lumotlar bazasi analitik assistenti, Operator-analitik, “Aqlli” qishloq xo‘jaligi texnikalari operatori, “Aqlli” chorvachilik fermasi operatori, Qishloq xo‘jaligi texnikalarini masofadan boshqarish operatori, Qishloq xo‘jaligida dronlarni boshqarish operatori.

Qishloq xo‘jaligida raqamli texnologiyalar yo‘nalishining shakllanishining asosiy jihati, ya‘ni mehnat sarfini kamaytirish, rentabellikni oshirish, mahsulotlarni yetishtirish va ishlab chiqarishda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish, masofadan turib kasalliklarga qarshi kurash choralarini qo‘llash, jahon standarti talablariga javob beradigan organik mahsulotlar yetishtirish va boshqa bir qator ijobiy tomonlarini ko‘rishimiz mumkin. Qishloq xo‘jaligidagi texnik taraqqiyot, texnologik jarayonlarni mexanizatsiyalash va ishlab chiqarishni tashkil etishning ilg‘or shakllarini joriy etish, yangi texnikaga ega bo‘lish, keng ko‘lamli kasbiy ko‘nikma va maxsus qishloq xo‘jaligi tayyorgarligiga ega bo‘lgan operator, analitik mutaxassislarni tarbiyalashga mehnat bozorida ehtiyoj mavjudligini hisobga olish zarur hisoblanadi. Kasbiy standartga kiritilgan mehnat funksiyalarining tavsifi, (kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi):

“Aqlli issiqxona”da mobil ilova va dasturlar yordamida boshqarish jarayonini muntazam kuzatib borish;



“Aqlli dala” texnikalarini mobil ilova va dasturlar yordamida boshqarish jarayonini muntazam kuzatib borish;

“Aqlli ferma” texnikalarini mobil ilova va dasturlar yordamida boshqarish jarayonini muntazam kuzatib borish;

“Aqlli ferma”da sifatli va xavfsiz oziqlantirish jarayonida me’yorning saqlanib turishini ta’minlash;

Qishloq xo’jaligining “Aqlli” ob’ektlarida ma’lumotlarni to’plash, baholash va tahlil qilish, masofadan boshqarish dasturlarini o’rganish;

Qishloq xo’jaligida dronlarni boshqarish.

Binobarin, agrar sohada o’xshash kasblar ro’yxati ko’p bo’lganligi sababli, bu ishchilarga yuqori ixtisoslashgan faoliyat bilan shug’ullanish imkonini beradi. Qishloq xo’jaligi uchun kadrlar tayyorlash qiyin, chunki qishloq xo’jaligi tashkilotlarining ishchi kuchi “universal” bo’lishi kerak. Masalan, operator-analitik ish kuni davomida bir nechta qishloq xo’jaligi mashinalari va asbob-uskunalari bilan shug’ullanishi, bir nechta ishni o’zgartirishi mumkin. Bundan tashqari, qishloq xo’jaligida operator-analitik kasbining xususiyatlari nafaqat keng ko’lamli bajariladigan ishlarda namoyon bo’ladi. Kasb mazmunidagi o’zgarishlarga texnik va texnologik taraqqiyotning ta’siri katta hisoblanadi (3.19-jadval).

### 3.19-jadval


#### Qishloq xo’jaligini raqamlashtirish va mehnat unumdorligini oshirish uchun professional standarti asosida xodimlarga qo’yiladigan talablar<sup>84</sup>

Yo’nalish	Kasbiy faoliyat turlari	Ta’lim va o’qishga qo’yiladigan talablar	Mehnat vazifalari
Qishloq xo’jaligida raqamli texnologiyalar	“Aqlli” qishloq xo’jaligi texnikalaridan tarmoqlar bo’yicha foydalanishning texnologik jarayonini tashkil etish. Ulardan qishloq xo’jaligida samarali foydalanish	O’rta kasbiy ma’lumot – malakali ishchi (xizmatchi)larni tayyorlash dasturlari	Raqamli qishloq xo’jaligi texnologiyalari, mobil ilova va dasturlar yordamida boshqarish jarayonini muntazam kuzatib borish, ishlarni bajarish, xizmat ko’rsatish

<sup>84</sup> Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Shunday qilib, kasbiy malakalar xodimlarga qo'yiladigan talablar va qishloq xo'jaligining o'ziga xosligi tarmoqni yangi professional kadrlar tarkibi bilan ta'minlash zaruriyatiga olib keladi. Yangi ish o'rinlari uchun kadrlarni tayyorlash yangilangan kasbiy tayyorgarlik standartlariga muvofiq amalga oshirilishi kerak (4-ilova). Yangi kasbiy standartlarni ishlab chiqish qonun bilan mustahkamlangan va tegishli vazirlik va idoralar, shuningdek ish beruvchi tashkilotlar va kasaba uyushmalari bilan hamkorlikda ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.


Shuning bilan birga, davlat boshqaruvini ma'muriy tomondan isloh qilish, ixcham va samarali boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va xorij tajribasining ilg'or yutuqlarini hisobga olgan holda, 2023 yildan boshlab bir qator vazirlik, qo'mita, agentlik va boshqa idoralar boshqaruv jarayonini bir bo'g'inda olib borish belgilandi. Ta'lim tizimini shaffofligini ta'minlash, korrupsiyasiz sohaga aylantirish bo'yicha ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Yoshlarni bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, ta'lim muassasalari bitiruvchilarini bandligini ta'minlashda boshqaruv jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish muhim hisoblanadi. Shunday ekan, agrar ta'lim tizimida tayyorlanayotgan kadrlarni kelgusida samarali mehnat faoliyatini yo'lga qo'yish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish zaruriyati talab etiladi. Shu bois, tadqiqotimiz davomida raqamlashtirish asosida agrar ta'lim tizimida malakali kadrlar tayyorlash tizimi ishlab chiqildi (3.25-rasm). Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida mehnat bozorida raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha turli xil modellarni kirib kelishi asosida, agrar ta'lim tizimida kadrlar bandligini ta'minlashda raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish imkoniyati yaratiladi. Bu esa, kadrlarda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish bo'yicha tizimlarni ishlarni olib borish zarurligini bildiradi.



3.25-rasm. Raqamlashtirish asosida agrar ta'lim sohasida malakali kadrlar tayyorlash tizimi<sup>85</sup>

<sup>85</sup> Muallif ishlanmasi.

Ushbu tizim orqali ta'lim muassasasi, ish beruvchi tashkilotlari va boshqa ochiq ma'lumotlar bazasi asosida bitiruvchi kadrlarga keng imkoniyatlar yaratilishi oqibatida qisqa muddatlarda ish bilan bandligini ta'minlanishiga erishiladi. Shuningdek, iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida tashkilot o'z strategiyasi asosida malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish imkoniyati vujudga keladi. Zamonaviy kasblarga bo'lgan ehtiyojni o'rganish, ta'lim muassasasida o'quv jarayonini tashkil etishda nazariya va amaliyotni bog'lash, mehnat bozori talablarini o'rganish, marketing siyosatini amalga oshirish asosida malakali kadrlar tayyorlashga ahamiyat berishi lozim bo'ladi.



**3.26-rasm. Ish beruvchilar va bitiruvchi kadrlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik uchun maxsus platformaning bo'limlari<sup>86</sup>**

Mehnat bozorida malakali kadrlar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratish, ta'lim, ilm-fan ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash, ish beruvchilar va ta'lim muassasalari o'rtasida manfaatli hamkorlik ishlarini tashkil etish maqsadida zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida platforma O'zbekiston

<sup>86</sup> O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoatni raqamlashtirish markazi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoatni raqamlashtirish markazi tomonidan joriy etilgan. Ushbu platforma yordamida 2021-2022 yillarda Toshkent davlat agrar universitetining 600 dan ortiq kadrlar (talabalar) xorijiy davlatlarda va respublikamizda ilg'or ish beruvchi tashkilotlarda amaliyotlarini olib borishdi. Bunda, kadrlar (talabalar) o'z portfoliosiga o'zlari to'g'risida ma'lumotlarini kiritishadi, ish beruvchi tashkilot esa tashkilot rivoji uchun hissa qo'sha oladigan malakali kadrlarni tanlab oladi. Bu esa, mehnat bozorida shaffoflikni ta'minlashiga hamda kadrlar o'rtasida o'zaro ta'lim olishga bo'lgan qiziqishni, shuningdek, o'qishni bitirmasdan bandligi ta'minlanishiga erishiladi (3.26-rasm).

### **§ 3.2. Agrar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish**

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, ilk yillardayoq islohotlar yangi mulk shakllarini ko'paytirishga yoki ko'p ukladli iqtisodiyotni barpo etishga qaratildi. O'zbekistonni har tomonloma rivojlantirish, turli mulkchilik shakllari asosida ishlab chiqarishni tashkil etish, xalqaro hamjamiyatda respublikamiz nufuzini oshirish, xalqaro ta'lim standartlari asosida kadrlar tayyorlash, aholi daromadlarini oshirish, investitsiyalarni jalb etish bo'yicha davlatimizda bir qator ijobiy o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin. Xususan, respublikamizda ma'muriy islohotlarni amalga oshirish, Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, sohalar kesimida boshqaruvni bir bo'g'inda olib borish, ixcham va samarali boshqaruv tizimiga o'tishdan boshlash kerak bo'ladi.

Xuddi shunday ekan, agrar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga ham, eng avvalo, davlatning agrar sohadagi iqtisodiy-ijtimoiy siyosati ta'sir etadi. Shu tufayli oxirgi o'n yilda agrar ta'lim tizimida malakali kadrlar bo'yicha bir qator normativ hujjatlar qabul qilinib, zamonaviy ta'lim kampusiga aylantirish, agrar sohani malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, ta'lim muassasalarida yangi ilm-fan yutuqlarini joriy etish orqali o'z o'rni va nufuziga ega bo'ldi.

Mehnat bozorida sog'lom raqobat muhitini yaratish, ta'lim tizimining mavqeini va nufuzini yanada oshirish, aholini oliy ma'lumot olish darajasini yaxshilash yuzasidan normativ-huquqiy hujjatlar takomillashtirildi. Oliy ta'lim tizimini isloh qilish, mavjud salohiyatni yanada oshishiga va boshqaruv faoliyatini samarali yo'lga qo'yish uchun davlat ko'magini ko'rsatish, kadrlar tayyorlashda bevosita qatnashish, resurslar ta'minotini yaxshilash va qo'shimcha resurslar ajratish kabi omillar ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu jihatlar mashhur iqtisodchi olimlar K.Makkonell, S.Bryu asarlarida keltirilgan<sup>87</sup>. Ular o'z asarlarida davlat bosh islohotchi ekanligini quyidagi vazifalari orqali amalga oshirishini ta'kidlaganlar:

1. Davlat biror-bir tizim vazifalarining samaradorligini ta'minlovchi huquqiy asosni va ijtimoiy muhitni ta'minlaydi;

2. Davlat monopoliyaga qarshi (antimonopol) siyosatni amalga oshirib, raqobatni himoya qiladi;

3. Davlat daromad va boyliklarni qayta taqsimlaydi (bu bilan davlat budjeti hosil bo'ladi);

4. Davlat milliy mahsulot tarkibini o'zgartirish maqsadida resurslar taqsimoti uchun javobgar bo'ladi va kerak vaqtda tuzatishlar kiritadi;

5. Davlat o'z e'tiborini ko'proq iqtisodiyotni barqarorlashtirishda malakali kadrlar orqali amalga oshirishga e'tibor qaratadi.

Shuning bilan birga, agrar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va dastaklarini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin bo'ladi (3.20-jadval).

Har bir jarayonni to'g'ri baholash davlatning qo'llab-quvvatlashini aniq maqsad bilan yo'naltirish qishloq xo'jaligining normal faoliyat ko'rsatishi uchun qonuniy-me'yoriy shart-sharoitlarni vujudga keltirish bilan bog'liq chora-tadbirlar majmuasini o'z ichiga oladi.

---

<sup>87</sup> Макконелл К., Брю С. Экономикс: принципы, проблемы и политика в 2 т.: Пер. с англ. Таллин, 1993 г.

### 3.20-jadval

#### Agrar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning shakllari, usullari, mexanizmlari va dastaklari (regulyatorlari)<sup>88</sup>

Asosiy tushunchalar	Asosiy tushunchalar mazmuni	Turlari
<b>Shakllari</b>	Boshqaruv obyekti tomonidan boshqariluvchi ob'ektga ta'sir ko'rsatishning asosiy xususiyatlari	<ol style="list-style-type: none"> <li><b>1. Bevosita</b> – davlat boshqaruvi organlari tomonidan agrar ta'lim muassasalarini boshqariluvchi ob'ektga to'g'ridan-to'g'ri tashkiliy ta'sir ko'rsatish orqali rivojlantirish imkoni mavjudligi.</li> <li><b>2. Bilvosita</b> – kadrlar tayyorlashda agrar ta'lim muassasalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash akademik mustaqillikni berilishi.</li> </ol>
<b>Usullari</b>	Ma'lum bir qoidalar va tamoyillar asosida agrar ta'lim muassasalarini boshqaruv sub'ektining ob'ektga ta'sir o'tkazish yo'llari tizimini takomillashtirish yo'llari	<ol style="list-style-type: none"> <li><b>1. Ma'muriy-huquqiy</b> – agrar ta'lim faoliyatini me'yoriy-huquqiy xujjatlar orqali tartibga solish va nazorat qilishni vazirlik tizimidan universitet tizimiga o'tkazilishi.</li> <li><b>2. Iqtisodiy</b> – akademik mustaqillik berilishi natijasida iqtisodiy manfaatlari tizimga ta'sir o'tkazish orqali qo'llab-quvvatlash choralari ishlab chiqish.</li> <li><b>3. Ijtimoiy</b> – boshqaruvni tubdan isloh qilish natijasida kadrlar tayyorlashning ijtimoiy faoliyatini tartibga solishning ijtimoiy mexanizmlari yig'indisi, ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.</li> <li><b>4. Tarkibiy-institutsional</b> – mehnat bozori va kadrlar tayyorlashni qayta ko'rib chiqish, optimallashtirish, institutsional tuzilmalar orqali tartibga solishni yo'lga qo'yish.</li> </ol>
<b>Mexanizmlari</b>	Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash siyosatini amalga oshirishning turli dastaklari (regulyatorlari) yig'indisi	<ol style="list-style-type: none"> <li><b>1. Ma'muriy-huquqiy usul mexanizmlari:</b> qonuniy-huquqiy tartibga solish, tashkiliy ta'sir o'tkazish, reglamentlash, standartlash, nazorat, kvotalash, me'yorlash, litsenziyalash.</li> <li><b>2. Iqtisodiy usul mexanizmlari:</b> budjet-soliq, moliya-kredit, shartnoma, sug'urta, tashqi iqtisodiy aloqalar, maqsadli dasturlash va investitsiya.</li> <li><b>3. Ijtimoiy usul mexanizmlari:</b> mehnatni tartibga solish, ijtimoiy himoya, ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy sug'urta, ijtimoiy infratuzilmalar.</li> <li><b>4. Tarkibiy-institutsional usul mexanizmlari:</b> optimallashtirish, ilmiy-texnik, kadrlar va axborot-maslahat, institutsional qo'llab-quvvatlash.</li> </ol>
<b>Dastaklari (regulyatorlari)</b>	Boshqaruv ob'ektiga yoki ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta'sir qilish	qonunlar, farmonlar, qarorlar, nizomlar, yo'riqnomalar, standartlar, kvotalar, tariflar, litsenziyalar, hisobot shakllari, me'yorlar, sanksiyalar, shartnomalar, qayta moliyalash stavkasi, lizing, kredit, foiz stavkalari, davlat buyurtmasi, ijara, xarid narxlari, soliq stavkalari, amortizatsiya me'yorlari, maqsadli dasturlar, subsidiya, dotatsiya, investitsiyalar, indikativ rejalar, infratuzilmalar, ilmiy markazlar, institutsional tuzilmalar

<sup>88</sup> Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

**Iqtisodiy tomondan qo'llab-quvvatlash natijasida** bozor jarayonlarining rivojlanishini davlatning iqtisodiy siyosatiga mos yo'nalishga solish uchun ta'sir etish choralarini qo'llaydi. Bunda iqtisodiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solishning ma'muriy usullari negizida agrar ta'limni o'z-o'zini boshqarish mexanizmiga qarshilik qilsa, iqtisodiy usullar ulardan faol foydalanishni rag'batlantiradi.

Agrar sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy usullari quyidagi tizimlardan tashkil topadi:

**Budjet–soliq tizimi** – agrar ta'limni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning samarali dastaklaridan biri hisoblanadi. Davlat budjetining harajatlar qismi orqali moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ta'lim sifatini yaxshilash tadbirlarini moliyalashtirish, universitet ehtiyojlari uchun o'quv jihozlarini xarid etish, fan-texnika taraqqiyotini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy sohani rivojlantirish, agrar tarmoqda amalga oshiriladigan maqsadli davlat dasturlarini moliyalashtirish va markazlashgan investitsiyalarni yo'naltirish mumkin bo'ladi. Soliq tizimi davlat budjetini shakllantirishning eng asosiy manbai bo'lishi bilan birga, uning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantiruvchi (soliq imtiyozlari va boshq.) vazifasi ham mavjud. Agrar ta'limni rivojlantirishda bir qancha soliq imtiyozlarini tadbir etish lozim bo'ladi.

**Iqtisodiy rejalashtirish, dasturlash hamda istiqbolni belgilash (prognozlash)** orqali davlat iqtisodiy jarayonlarga bilvosita ta'sir ko'rsatadi va universitetlar uchun muhim ahamiyatga egadir.

Davlat istiqbolni prognoz qilish orqali kelgusida ko'zda tutilgan vazifalarni samarali ochishning optimal variantlarini izlasa, iqtisodiy dasturlar orqali ma'lum bir soha, ta'lim yo'nalishlarini yoki ustuvor vazifalarni rivojlantirish masalalarini hal etadi. Xususan, agrar sohada so'ngi yillarda amalga oshirilgan bir qator maqsadli davlat dasturlari ta'lim sifatini yaxshilashga hamda moddiy texnika ta'minotini yaxshilash maqsadlariga xizmat qilmoqda.

Respublikamiz agrar ta'limida davlatimiz agrar siyosatining ustuvor yo'nalishlari hamda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning bu boradagi ilg'or




tajribalarini umumlashtirish asosida mamlakatimizda agrar ta'lim tizimini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning eng asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni tavsiya etamiz:

- me'yoriy-huquqiy hujjatlar aylanishini raqamlashtirish va ta'minotini to'liq ta'minlash;
- mehnat bozorining ochiqligi va adolatli raqobat muhitini ta'minlash;
- qishloq xo'jaligining barqaror daromad olishlarini qo'llab-quvvatlash;
- maqsadli davlat dasturlari va investitsiyalari orqali qo'llab-quvvatlash;
- moddiy-texnikaviy ta'minotni to'liq qo'llab-quvvatlash;
- ijtimoiy ta'minotni talabalar hamda professor-o'qituvchilar uchun motivatsion ko'rinishda ishlab chiqish;
- ilmiy va axborot-maslahat ta'minotini yaratib berish va h.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligida yuqori samaradorlikka erishishda yuqori malakali kadrlar tayyorlash orqali ushbu muammoni yechimini topish kerak bo'ladi. Bu esa o'z navbatida, birinchidan, qishloq xo'jaligida mavjud resurslar salohiyatidan samarali foydalanish orqali aholini foydali mehnat bilan band qilish; ikkinchidan, aholi sifatli oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi va sanoatni xom-ashyo bilan yanada yaxshiroq ta'minlashga erishilgan bo'lar edi.

Agrar sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi asosida agrar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, mehnat resurslaridan samarali foydalanishga ahamiyat qaratish lozim (3.27-rasm).

Mazkur agrar ta'lim tizimida mehnat resurslaridan samarali foydalanish yo'llari orqali ta'lim berish davomida talaba-o'quvchilarga singdirish orqali, ularda o'z kasbiga bo'lgan mas'uliyat bilan yondashish, javobgarlik hissini yaxshilash, kreativlik fikrlash, etika va estetika qoidalariga amal qilishi, yuqori samaradorlikka erishish kompetensiyalarini shakllantirish, ish samaradorligiga va foydalilik darajasiga ahamiyat qaratish, xodimlarga berilayotgan moliyaviy va ma'naviy yordamning natijadorligiga erishish muhim ekanligi zarur hisoblanadi.



**3.27-rasm. Agrar ta'lim tizimida mehnat resurslaridan samarali foydalanish yo'llari<sup>89</sup>**

Shu bois, agrar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashda asosiy muammo ish beruvchilar va universitet bitiruvchilari o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, ish beruvchilar tomonidan oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini olgan nazariy va amaliy bilimlarini, ularning salohiyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish bugungi kunning talabi hisoblanadi. Biz o'z tadqiqotlarimizdan kelib chiqib, kadrlar salohiyatini baholash mezonlari ishlab chiqdik (3.21-jadval). Ushbu kadrlar salohiyatini baholash mezonlari orqali o'quv jarayoni va ta'lim sifatini oshirish darajasiga ta'sir ko'rsatishi, kadrlarda (talabalar) ta'lim olish jarayonida ish beruvchilarning talabiga javob bera olishga e'tibor qaratishi, kadrlar (talabalar) bugungi kunda mustaqil ta'lim olish imkoniyatidan to'liq foydalanishi va o'z ustida tinimsiz mehnat qilish orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkinligi hisobga olingan.

<sup>89</sup> Muallif ishlanmasi.

Agrar sohada kadrlar salohiyatini baholash mezonlari<sup>90</sup>

№	Baholash mezonlari	Baho ko'rsatkichlari				
		5	4	3	2	1
<b>1</b>	<b>Bitiruvchining diplomi bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari (Db)</b>					
1.1	O'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi (reyting balli 90-100) bo'lsa	5				
1.2	O'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi (reyting balli 80-89) bo'lsa		4			
1.3	O'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi (reyting balli 70-79) bo'lsa			3		
1.4	O'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi (reyting balli 60-69) bo'lsa				2	
1.5	O'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi (reyting balli 50-59) bo'lsa					1
<b>2</b>	<b>Agrar sohada o'quv davrida amaliyotlarni o'tagan ob'ektlari (davlat, xususiy va boshqa tashkilotlar) (Ao')</b>					
2.1	Mutaxassisligi bo'yicha xorijda, vazirlik, qo'mita, uyushma yoki klaster bo'lsa	5				
2.2	Mutaxassisligi bo'yicha vazirlik, qo'mita, uyushmalarning tarkibiy yoki hududiy bo'linmalarida bo'lsa		4			
2.3	Mutaxassisligi bo'yicha xususiy tashkilotlarda bo'lsa			3		
2.4	Mutaxassisligiga qisman yaqin tashkilotlarda bo'lsa				2	
2.5	Mutaxassisligiga umuman yaqin bo'lmagan tashkilotlarda bo'lsa					1
<b>3</b>	<b>Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va xorijiy tillarni bilish darajasi (At)</b>					
3.1	Xorijiy tilni bilish darajasi bo'yicha xalqaro yoki milliy darajadagi sertifikatga ega bo'lsa va AKT vositalaridan bemalol foydalana olsa	5				
3.2	Xorijiy tillarda erkin gaplasha oladi, lekin sertifikatga ega emas va AKT vositalaridan foydalana olsa		4			
3.3	Xorijiy tillarda lug'at yordamida muloqot qila oladi va AKT vositalaridan qisman foydalana olsa			3		
3.4	Xorijiy tillarda muloqot qila olmaydi va AKT vositalaridan qisman foydalana olsa				2	
3.5	Xorijiy tillarda muloqot qila olmaydi va AKT vositalaridan foydalana olmasa					1
<b>4</b>	<b>Agrar sohada ish yuritish, me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ishlash darajasi (Mh)</b>					
4.1	Mutaxassisligi bo'yicha qabul qilingan me'yoriy-hujjatlarni mazmun-mohiyatini 70% bilsa	5				
4.2	Mutaxassisligi bo'yicha qabul qilingan me'yoriy-hujjatlarni mazmun-mohiyatini 60% bilsa		4			
4.3	Mutaxassisligi bo'yicha qabul qilingan me'yoriy-hujjatlarni mazmun-mohiyatini 50% bilsa			3		
4.4	Mutaxassisligi bo'yicha qabul qilingan me'yoriy-hujjatlarni mazmun-mohiyatini 40% bilsa				2	
4.5	Mutaxassisligi bo'yicha qabul qilingan me'yoriy-hujjatlarni mazmun-mohiyatini 20% bilsa					1
<b>5</b>	<b>Yoshi, kreativ fikrlashi, ishbilarmonlik muzokoralarini tashkil etishi, qaror qila olishi, liderlik xususiyatlari, boshqalar bilan</b>					

<sup>90</sup> Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

№	Baholash mezonlari	Baho ko'rsatkichlari				
		5	4	3	2	1
	<b>munosabatga kirishuvchanligi (Qkf)</b>					
5.1	25 yoshgacha bo'lsa hamda xushmuomala, kirishimli, liderlik xususiyatlari mavjud, teran fikrlay olsa	5				
5.2	30 yoshgacha bo'lsa hamda kirishimli, qisman liderlik xususiyatlari mavjud va o'zining fikrlarini aniq bayon eta olsa		4			
5.3	40 yoshgacha bo'lsa hamda kirishimli, qisman liderlik xususiyatlari mavjud va o'zining fikrlarini qisman bayon eta bo'lsa			3		
5.4	40 yoshdan yuqori bo'lsa hamda o'zining fikrlarini qisman bayon eta bo'lsa				2	
5.5	Yoshi katta bo'lsa hamda o'zining fikrlarini bayon etishga qiynalsa					1
<b>6</b>	<b>O'quv davrida erishgan yutuqlari (ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy, sport, olimpiada va boshqalar) (Yuo')</b>					
6.1	Prezident stipendiati, nomli stipendiyalarga erishgan, jahon miqyosida sport yoki olimpiada sovrindori bo'lsa	5				
6.2	OTM yoki hudud miqyosida stipendiat, sport musobaqalari sovrindori bo'lsa		4			
6.3	Xalqaro yoki respublika miqyosida ilmiy anjumanlar, sport musobaqalari va boshqa tadbirlarda ishtirok etgan bo'lsa			3		
6.4	Turli xildagi ilmiy va sport tadbirlarida ishtirok etmagan bo'lsa				2	
6.5	Umuman ishtirok etmagan bo'lsa					1
<b>7</b>	<b>OTMning respublika va xalqaro reytingi (Or)</b>					
7.1	OTM xalqaro reytinglarda TOP-1000 talikda bo'lsa	5				
7.2	OTM respublika miqyosida 20 talik va boshqa xalqaro reytinglarda o'rni va nufuzi yaxshi bo'lsa		4			
7.3	OTM respublika miqyosida oxirgi 50 talikda va boshqa xalqaro reytinglarda qisman ishtirok etayotgan bo'lsa			3		
7.4	OTM respublika miqyosida oxirgi 30 talikda va boshqa xalqaro reytinglarda ishtirok etmayotgan bo'lsa				2	
7.5	OTM respublika miqyosida oxirgi 10 talikda va boshqa xalqaro reytinglarda ishtirok etmayotgan bo'lsa					1
<b>8</b>	<b>Bitiruvchining qo'shimcha kvalifikatsiyaga ega ekanligi (Bq)</b>					
8.1	Bitiruvchi qo'shimcha 4 ta kvalifikatsiyaga ega bo'lsa	5				
8.2	Bitiruvchi qo'shimcha 3 ta kvalifikatsiyaga ega bo'lsa		4			
8.3	Bitiruvchi qo'shimcha 2 ta kvalifikatsiyaga ega bo'lsa			3		
8.4	Bitiruvchi qo'shimcha 1 ta kvalifikatsiyaga ega bo'lsa				2	
8.5	Bitiruvchi qo'shimcha kvalifikatsiyaga ega bo'lmasa					1
<b>9</b>	<b>OTMdagi professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyati (S)</b>					
9.1	Ilmiy salohiyat (60-70 %) bo'lsa	5				
9.2	Ilmiy salohiyat (50-60 %) bo'lsa		4			
9.3	Ilmiy salohiyat (40-50 %) bo'lsa			3		
9.4	Ilmiy salohiyat (40 %) past bo'lsa				2	
9.5	Ilmiy salohiyat (30 %) past bo'lsa					1
	<b>Jami</b>					

$$Kb = \frac{Db+Ao'+At+Mh+Qkf+Yuo'+Or+Bq+S}{9} \quad (2.4)$$

Bunda:

$K_b$  — Kadrlar salohiyatini baholash

$K_{b1} = 4,5-5$  (samarali)

$K_{b2} = 3,5-4,4$  (o'rtacha samarali)

$K_{b3} = 2,6-3,4$  (past samarali)

$K_{b4} = 1-2,5$  (samarasiz)

Mazkur kadrlar salohiyatini baholash mezonlari asosida agrar ta'lim muassasalari ta'lim jarayonining eng muhim jihatlariga e'tibor berish imkoniyatlari ortadi. Ushbu kadrlar salohiyati baholash mezonlaridan yuqori samarali (4,5-5 baho), o'rtacha samarali (3,5-4,4 baho), past samarali (2,6-3,4 baho), samarasiz (1-2,5 baho) ko'rsatkichlari asosida oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan kadrlarga ularning salohiyatini ish beruvchilar tomonidan yoki boshqa tashkilotlarning malakali mutaxassislarini jalb etgan holda aniqlash imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari kelgusida kadrlar tayyorlashda yuqoridagi kadrlar salohiyatini baholash mezonlari tahlil qilgan holda, qaysi jihatlariga e'tibor berish kerak, kelgusidagi ishlarni yo'lga qo'yishda hamda rivojlantirishga ahamiyat berishiga olib keladi. Bu o'z navbatida, ta'lim muassasalarida talabalar o'z ustida ishlashi, bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishi, shu bilan birga professor-o'qituvchilar ham kadrlar tayyorlash jarayonida ushbu baholash mezonlari asosida o'quv reja va dasturlarini ishlab chiqishi talab etiladi. Shu bilan birga, talabalar o'qishni tugatgandan so'ng ish beruvchilar tomonidan ushbu baholash mezonlari asosida sinovlarini o'tkazishini bilgan holda tinimsiz mehnat qilishiga, sohani malakali mutaxassislar bilan ta'minlashga hamda ta'lim sifatini oshishiga xizmat qiladi.

Agrar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashni rivojlantirishda sohaning tashkiliy-huquqiy jihatlariga alohida to'xtalib o'tish lozim. Bunda, ta'lim muassasalarining asosiy vazifalari va uzoq muddatga mo'ljallangan aniq strategiyalari belgilab olishni taqozo etadi. Shuningdek, ta'lim tizimida olib

borilayotgan islohotlardan kelib chiqib, ko‘zlangan maqsadga erishishda asosiy vazifalarni belgilab olish zarur. Quyidagi vazifalar agrar ta‘lim tizimida malakali kadrlar tayyorlashning asosiy vazifalarini hal qilish uchun ta‘lim muassasalari tomonidan amalga oshirilishi lozim hisoblanadi:

1) Malakali kadrlar tayyorlashning aniq maqsadini belgilash:

agrar ta‘lim tizimida malakali kadrlar tayyorlashning aniq vazifalari va maqsadlarini belgilash;

jahon andozalari doirasida tizimni rivojlantirishning uzoq va qisqa muddatli strategiyasini ishlab chiqish;

malakali kadrlar tayyorlashda ta‘sir etuvchi omillarni bashorat qilish va prognozlash.

2) Ta‘limning uzviyligini boshqarish:

boshqaruvda sohani rivojlantirishning aniq maqsadga erishishini nazorat va monitoring qilish;

boshqaruv jarayonida erishilgan yutuqlarni baholab borish;

oldingi va keyingi boshqaruv natijadorligini baholash;

rahbar tomonidan tezkor qaror qabul qilish va rejalashtirishning aniqligining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash;

ilmga asoslangan holda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish hamda muntazam ravishda xorijiy tajribalarni o‘rganish;

o‘quv jarayoni va ta‘lim sifatini oshirishda boshqaruv qarorlarini qabul qilishni quyi bo‘g‘inga o‘tkazish.

3) Malakali kadrlar tayyorlashda mintaqalarning iqlim sharoitini baholash:

respublika hududlarini iqlim sharoitini hisobga olgan holda o‘quv reja va dasturlarini ishlab chiqish;

mintaqalarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda eksport va import ko‘rsatkichlarini baholash;

raqamli texnologiyalar asosida masofaviy va dual ta‘lim berish usullarini joriy etish;

hududlarning qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish ixtisoslashuvini inobatga olish hamda hududlarga mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish;


Yuqorida keltirib o'tilgan vazifalarni ta'lim tizimidagi hukumat tomonidan qabul qilingan qonun va qonun osti hujjatlari bilan belgilab olinishi bilan alohida ajralib turadi.

Agrar ta'lim tizimini rivojlantirish va uning boshqaruv tizimini takomillashtirishda, avvalambor, uning huquqiy asoslariga e'tibor qaratishimiz lozim. Agrar soha uchun o'rta maxsus va oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash bo'yicha qabul qilingan qonun, qaror va farmonlarga, asosan, bu tizimni rivojlantirish orqali aholini bandligini va sifatli oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish, sanoatni xom ashyo bilan ta'minlash, import qilinadigan mahsulotlar hajmini qisqartirish va eksport hajmini oshirishga yo'naltiriladi. Bu esa mamlakat miqyosida agrar ta'lim tizimida malakali kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish va kelgusida mehnat bozori talablari asosida raqobatbardosh, xalqaro standartlar asosida kadrlar tayyorlash, agrar sohaning kadrlarga bo'lgan talabani qondirishdagi muammolarini bartaraf etishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash orqali erishish mumkinligini belgilab beradi. Yaratilgan ta'lim tizimi agrar sohasidagi muammolarni kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etishda muhim qarorlarni qabul qilish imkoniyatini yaratib beradi.

Bizning fikrimizcha, agrar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning boshqaruv tizimi mehnat bozori talablari asosida hamkorlik qilishi, har bir bo'g'inda uzviy bog'lanishi, zamonaviy ta'lim berish va olish shakllarining vujudga kelishi, iqtisodiy-ijtimomiy islohotlar natijasida malakali kadrlar bilan ta'minlanishi zarur hisoblanadi. Shu bois, salohiyatli kadrlar tayyorlash tizimini innovatsion muhitda birlashtirish, har bo'g'inning samarali ijro etuvchi sifatida faol ishtirokini ta'minlash yuqori samara berishini ko'rishimiz mumkin bo'ladi (3.28-rasm).

Ushbu hamkorlik tizimida asosida OTMda zamonaviy bilimlarni egallagan kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yiladi.

**Qishloq xo'jaligi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Ilmiy tadqiqot institutlari, qo'mitalar, agentliklar, hokimliklar, klasterlar, sanoat korxonalari va tashkilotlari, tadbirkorlar, fermer xo'jaliklari, jamoat tashkilotlari, xorijiy oliy va ilmiy ta'lim muassasalari va grant ajratuvchi tashkilotlar**



**3.28-rasm. Zamonaviy agrar ta'lim tizimida sifat menejmenti asosida malakali kadrlar tayyorlashning hamkorlik tizimi<sup>91</sup>**

<sup>91</sup> Muallif ishlanmasi.



Har bir sohaning aniq vazifalarini belgilab olish orqali mehnat bozori uchun nostandart qarorlar qabul qila oladigan, kreativ fikrlay olish qobiliyatiga ega malakali mutaxassislarni tayyorlash imkoniyati yaratilib, ta'lim muassasalarini mavqei va nufuzini oshirishga xizmat qiladi. Har bir sohaning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish zarur hisoblanadi. Ya'ni, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida ustuvor yo'nalishlardan chetga og'ishmaslikni talab etadi. Ta'lim tizimiga uzviy aloqasi bor har bir organ faoliyatini bir maqsad yo'lida birlashtirish muhim vazifa hisoblanadi.

Zamonaviy agrar ta'lim tizimida sifat menejmenti asosida malakali kadrlarni tayyorlashda hamkorlik tizimini tubdan yaxshilash hamda sohaga aloqador bo'lgan barcha tashkilotlarni tizimli va raqamlashtirilgan aloqani yo'lga qo'yish lozim. Shu orqali agrar ta'limni rivojlantirish, agrar soha va iqtisodiyot tarmoqlari uchun yetuk kadrlarni tayyorlashda ish beruvchi korxonalar va tashkilotlarning quyidagi vazifalarini belgilab olish lozim bo'ladi:

- agrar soha uchun oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan ta'lim muassasalari faoliyatini pedagogik va uslubiy jihatdan muvofiqlashtirish, agrar ta'lim muassasalari va uning filiallari tuzilmalarida kadrlar tayyorlash va ishga joylashtirishni monitoring qilish uchun maxsus bo'limlar tashkil qilish;

- agrar ta'lim muassasalari faoliyatiga ta'sir etuvchi va hamkorlikdagi muammolarni yechishda boshqaruv uslublarini zamonaviylashtirishni yo'lga qo'yishda rahbar kadrlarni qayta tayyorlash kurslarini joriy etish;

- kasbiy faoliyatidan tashqari zamonaviy texnologiyalar asosida bilim ko'nikmalarga ega bo'lish asnosida qo'shimcha kasbiy faoliyatga ega bo'lishini ta'minlanishi tashkil etish;

- ta'lim muassasalarini ta'lim yo'nalishlari bo'yicha zarur bilim va malakaga ega yuqori malakali kadrlar uchun yil davomida ish beruvchi tashkilotlar tomonidan tanlovlar e'lon qilish. Tanlov yakunlari bo'yicha ishga kabul kilingan kadrlarni malaka oshirish, qayta tayyorlash hamda ish xaqi bilan ta'minlash masalalarini hal qilish;

- agrar ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqil bo'lganligini inobatga olgan holda to'lov kontrakt miqdorlarini mustaqil belgilash, dual ta'lim tizimida ishlash bo'yicha tasdiqlangan yagona tartib va Nizom ishlab chiqilib qabul kilinishini tezlashtirish;

- Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan hamkorlikda qishloq xo'jaligi uchun ishchi kasblari bo'yicha mutaxassislar tayyorlashda kasblar klassifikatorini takomillashtirish va kasbiy-mutaxassislik standartlarini ishlab chiqish;

- agrar soha bo'yicha joriy qilinayotgan investitsion loyihalarning tarkibida koida tarikasida ularning umumiy qiymatining kamida 2 foizigacha bo'lgan miqdorda ta'lim komponenti bo'lishini ko'zda tutish, bu mablag'larni markazlashgan holda pedagog xodimlarning ilg'or xorijiy tajribani o'rganish, moddiy-texnika bazasini modernizatsiyalash, yangi avlod o'quv darsliklarini maqsadli yaratish;

- Oliy ta'limni 2020-2030 yillarda rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan professor-o'qituvchilarning talabalar soniga nisbati o'zgartirilishi, ta'limning kredit-modul tizimi joriy etilishi munosabati bilan ular sonining makbullashtirilishi sababli bir qism oliy ta'lim xodimlarini o'rta maxsus ta'limga jalb qilish uchun zarur motivatsiyalar yaratish maqsadida ularga belgilangan ish xaki to'lash tizimini saqlab kolish hamda joylarda ijtimoiy imtiyoz (arzon uy-joylardan ajratish, imtiyozli kreditlar yoki lizing asosida avtomashinalar)lar berilishi.

Har bir sohada bo'lgani kabi ta'lim tizimida ham hamkorlikda faoliyatning yo'lga qo'yilishi kelgusida ma'lum natijadorlikka olib kelishini kuzatishimiz mumkin bo'ladi. Shu bois, agrar ta'lim tizimida ham asosiy ish beruvchi tashkilotlar bilan doimiy hamkorlikni yo'lga qo'yish, ularning malakali mutaxassislarini o'quv jarayoniga jalb etish, yakuniy nazorat imtixonlarida ishtirok etishlariga shart-sharoit yaratib berish, professor-o'qituvchilarni stajirovkalarga yuborish, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, ilmiy loyihalar tayyoshlash, startaplarda ishtirok etish, sayyor darslar tashkil etish kabi manfaatli hamkorlik

ishlarini tashkil etish zarur hisoblanadi. Bu albatta, mehnat bozori uchun malakali kadrlar tayyorlash ishlarni yanada rivojlashtirishga zamin yaratadi.

### **§ 3.3. Istiqbolda agrar ta'lim muassasalarining boshqaruv samaradorligini oshirish yo'llari**

Mamlakatning barqaror taraqqiy etishi, rivojlanishini ta'minlovchi islohotlarning ishlab chiqilishi, amalga oshirilishi, ko'zlangan natijalarga erishilishi bevosita mazkur jarayonlarni tashkil etuvchi mutaxassis kadrlar va ularning innovatsion menejment bo'yicha egallagan bilimlari bilan uzviy bog'liqdir. Chunki, islohotlarning yo'nalishlarini va erishiladigan natijalarni to'g'ri belgilash mutaxassis kadrlardan yuksak bilim, salohiyat, professional ko'nikmalar kabi sifatlarni talab qiladi. Bundan tashqari har bir soha, yo'nalish bo'yicha har bir korxonada va tashkilotda kadrlar menejmentini to'g'ri tashkil etilishi, har bir ish o'rniga eng malakali, zarur bilim hamda salohiyatga ega kadrlarni joylashtirishi muhimdir.

Hozirgi kunda jahon bo'ylab har bir yo'nalish bo'yicha tarkibiy o'zgarishlar, yangilanishlar yuz bermoqda, shunga monand yangi kasblar va mutaxassisliklar yuzaga kelishi bilan bir qatorda, ayrim kasblar va mutaxassisliklarga talab yo'qolib bormoqda.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimidagi eng muhim ustuvor, pirovard maqsad ham aynan zamon talablariga mos mutaxassisliklar bo'yicha zamonaviy bilimlarni mukammal egallagan, yuksak salohiyatli mutaxassislarni tayyorlash va yetkazishdan iboratdir. Bizning tadqiqotimiz ham aynan mana shu yo'nalishga bag'ishlangan bo'lib, agrar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgandir.

Bilamizki, agrar sohada juda keng yangilanishlar va o'zgarishlar yuz bermoqda va bu zamon talabidir. Chunki, agrar sohada jamiyatning oziq-ovqat hamda aksariyat birlamchi ehtiyojlarini qondiruvchi mahsulotlar yaratiladi. Agrar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning boshqaruv mexanizmlarini

takomillashtirishning obyektiv zarurati shundaki, hozirda aholi soni muttasil ortib bormoqda, shu bilan birga ularning oziq-ovqat va boshqa birlamchi ehtiyojlari ham ortib bormoqda, biroq bunday mahsulotlar yaratuvchi yer resurslari esa cheklangandir. Agar yer resurslaridan foydalanishdagi rentabellik darajasi hozirgi holatda qoladigan bo'lsa, kun kelib insonning birlamchi ehtiyojlarini qondirishning iloji bo'lmay qoladi. Shuning uchun ham yerdan foydalanishning samaradorligini oshirish, rentabellikni ko'tarish davr talabidir. Bunga esa malakali, zamonaviy, yetuk bilimli kadrlarni tayyorlash, kerakli sohalar bo'yicha mutaxassislarni tarbiyalash, kadrlar menejmentini samarali tashkil etish orqali erishiladi.

Shu nuqtai nazardan, "agrar ta'lim tizimida tayyorlanayotgan kadrlarga hozirgi kunda qanchalik zarurat bor?", "ular ta'limni yakunlagach ish joylariga ishga joylashishmoqdami?" kabi savollar orqali agrar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning amaldagi holatiga baho beriladi, mavjud kamchiliklar aniqlanadi va tahlil qilinadi. Tahlillardan olingan natijalar bo'yicha esa rivojlanish yo'nalishlari va strategiyalari belgilanadi.

Tadqiqotning muhim usullaridan biri ekonometrik modellashtirishdir. Quyida tadqiqot mavzuumiz bo'yicha ekonometrik modellashtirish tahlillarini Toshkent davlat agrar universiteti ma'lumotlari asosida amalga oshiramiz. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, agrar ta'lim muassasalarida kadrlar menejmentining samarali va optimal tashkil etilganligi bevosita bitiruvchi kadrlarning ish bilan ta'minlanganligi ko'rsatkichi bilan baholanadi. Bitiruvchilarning ishga joylashishiga esa bevosita ularning bilim darajasi, salohiyati, xorijiy tillarni bilishi, o'zlashtirish ko'rsatkichlari va boshqa ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi.

Ekonometrik tahlilning muhim jihati shundaki, u natijaviy o'zgaruvchi o'zgarishiga bevosita emas, balki bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ta'sirini baholash asosida tahlil qilishdir. Ya'ni tahlilimizda bitiruvchi kadrlarning ish bilan ta'minlanganligi ko'rsatkichini natijaviy belgi sifatida belgilab olsak, uning o'zgarishiga bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida bitiruvchiga dars beruvchilarning ilmiy salohiyati, bitiruvchi ta'lim oladigan muassasaning qanchalik darajada amaliyot bilan uyg'unligi, ta'lim muassasasida ilmiy

tadqiqotlarning saviyasi, xalqaro tajribalar bilan uyg'un holda ta'lim berilishi kabi omillar bilvosita ta'sir qiladi.

Ekonometrik modellashtirishning asosi korrelyatsion va regression tahlilga qurilgan bo'lib, korrelyatsion tahlilda natijaviy belgi o'zgarishiga omillarning ta'siri qay darajada ekanligi baholansa, regression tahlilda natijaviy belgiga omillarning ta'sirini ko'rsatuvchi modellar quriladi va u ekonometrik testlar orqali tekshirilib, optimal va eng to'g'ri model aniqlanadi hamda model orqali prognozlash amalga oshiriladi.

Tadqiqotimizda TDAUning turli yillardagi bitiruvchilarining bandlik darajasini (foizda) natijaviy ko'rsatkich sifatida belgilab olamiz, uning o'zgarishiga esa professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyati (foizda), OTM tomonidan nufuzli jurnallarda chop etilgan maqolalar soni (dona), chet tilida o'qitiladigan fanlar soni (dona), xorijda malaka oshirgan yoki stajirovka o'tagan professor-o'qituvchilar soni (nafar) va boshqalar bilvosita ta'sir ko'rsatadi degan gipotezani qo'yamiz (5-*ilova*).

Dastlab ma'lumotlarni tavsifiy statistikasini 3.22-jadvalda ko'rib chiqamiz. 3.22-jadvaldagi shartli o'zgaruvchilarning nimalarni ifodalashi quyidagicha:

BD – bitiruvlarning bandlik darajasi (%);

IS – ilmiy salohiyat (%);

MS – xalqaro nufuzli jurnallarda chop etilgan maqolalar soni;

ChTF – chet tillarda olib boriladigan mutaxassislik fanlarini soni;

XS – xorijda malaka oshirgan yoki stajirovka o'tagan professor-o'qituvchilar soni;

RT – o'quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etilganlik darajasi (%);

AT – o'quv adabiyotlari bilan ta'minlanganlik darajasi (%);

AS – asosiy ish beruvchi tashkilotlardan ta'lim jarayoniga jalb etilgan malakali mutaxassislar soni.

**2010-2021 yillarda Toshkent davlat agrar universitetida bitiruvchilarning bandlik darajasi va unga ta'sir etuvchi omillarning tavsifiy statistikasi**

Ko'rsatkich	O'rtacha	Mediana	Minimum	Maksimum
BD	88,458	88,400	84,300	93,500
IS	48,125	46,150	38,900	66,100
MS	144,33	40,500	18,000	384,00
ChTF	10,750	7,5000	2,0000	30,000
XS	29,583	7,0000	2,0000	82,000
RT	49,250	49,500	36,000	62,000
AT	79,967	78,800	72,100	90,100
AS	46,667	38,000	31,000	75,000
Ko'rsatkich	Standart chetlanish	Variatsiya	Asimmetriya	Ekssess
BD	2,9262	0,033080	0,24756	-1,0524
IS	8,2604	0,17165	0,89104	-0,16898
MS	151,18	1,0474	0,55772	-1,4932
ChTF	8,8227	0,82072	1,0805	-0,079018
XS	33,784	1,1420	0,62942	-1,4473
RT	8,4329	0,17123	-0,075347	-1,1017
AT	5,5644	0,069584	0,39540	-0,82737
AS	16,200	0,34713	0,83403	-0,87771

*Izox: Hisob-kitoblar Gretl dasturiy majmuasida hisoblab chiqildi*

Bitiruvchilarning bandlik darajasi (BD)ning o'rtachasi 88,5 foizni tashkil etib, deyarli mediana bilan bir xildir, minimumi 84,3 foizni, maksimumi esa 93,5 foizni tashkil etgan. Standart chetlanish 2,93 ga teng bo'lib, juda kichikdir. Universitet professor-o'qituvchilarining ilmiy salohiyati (IS)ning o'rtachasi 48,1 foizga teng, minimumi 46,2 foizni, maksimumi esa 66,1 foizni tashkil etgan. Standart chetlanish ko'rsatkichi (8,26) esa birmuncha yuqoridir. Universitet xodimlari tomonidan xalqaro nufuzli jurnallarda chop etilgan maqolalar soni o'rtachasi 144,3 tani, minimumi 18 tani va maksimumi 384 tani tashkil etgan. Standart chetlanish ko'rsatkichi 151,2 ga teng, bu juda yuqoridir. O'quv adabiyotlari bilan ta'minlanganlik darajasi (AT) o'rtachasi 80 foizi tashkil etib, 72 foizdan 100 foizgacha oraliqda o'zgarib turgan. Chet tillarda olib boriladigan mutaxassislik fanlarini soni (ChTF) 2 tadan 30 tagacha ortgan. Xorijda malaka oshirgan yoki stajirovka o'tagan professor-o'qituvchilar soni (XS) ham 2 tadan 82

tagacha ortgan. O‘quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etilganlik darajasi (RT) ham yaxshilanib 72 foizdan 90 foizgacha ko‘tarilgan.

Asosiy ish beruvchi tashkilotlardan ta‘lim jarayoniga jalb etilgan malakali mutaxassislar soni minimum 31 nafardan maksimum 75 nafargacha o‘zgargan va h.k.z.

Haqiqatda omillarning bitiruvchilarning bandlik darajasi (BD)ga bog‘liqligi mavjudligini va bog‘lanishning qay darajada kuchli ekanligini korrelyatsiya koeffitsienti orqali aniqlaymiz (3.23-jadval).

(3.23-jadval)

**Toshkent davlat agrar universitetida bitiruvchilarning bandlik darajasiga ta‘sir etuvchi omillarning korrelyatsiya matritsasi**

BD	IS	MS	ChTF	XS	RT	AT	AS	Ko‘rsatkichlar
1,0000	0,7951	0,9198	0,9352	0,8643	0,9907	0,9889	0,9434	<b>BD</b>
	1,0000	0,9017	0,9088	0,8282	0,7447	0,8443	0,9203	<b>IS</b>
		1,0000	0,8997	0,9695	0,8937	0,9246	0,9641	<b>MS</b>
			1,0000	0,8243	0,8990	0,9629	0,9687	<b>ChTF</b>
				1,0000	0,8495	0,8722	0,9020	<b>XS</b>
					1,0000	0,9813	0,9104	<b>RT</b>
						1,0000	0,9590	<b>AT</b>
							1,0000	<b>AS</b>

*Izox: Hisob-kitoblar Gretl dasturiy majmuasida hisoblab chiqildi.*

Korrelyatsiya matritsasi asosida modellashtirishni amalga oshirish uchun bizga kerakli bo‘lgan ko‘rsatkichlarni tanlab olamiz. Bunda biz amalga oshiradigan tahlilimizda natijaviylikni ifodalovchi belgi sifatida BD ko‘rsatkichini belgilab olamiz. Korrelyatsiya ko‘effitsientidagi omilning boshqa bir omilning o‘zgarishiga qanchalik darajada ta‘sir ko‘rsatishini ifodalovchi muhim ko‘rsatkich hisoblanib, u -1 va 1 oralig‘ida o‘zgaradi. Agar ko‘rsatkich 0 va 1 oralig‘ida bo‘lsa, omil belgi natijaviy belgi o‘zgarishiga to‘g‘ri, -1 va 0 oralig‘ida bo‘lsa, omil belgi natijaviy belgi o‘zgarishiga teskari ta‘sir ko‘rsatishini ifodalaydi. Korrelyatsiya koeffitsienti qanchalik 1 yoki -1 yaqin bo‘lsa, bog‘liqlik shu darajada kuchli bo‘ladi. Tahlillarni davom ettirish uchun omillarni tanlashda korrelyatsiya koeffitsientining 0,7 dan

yuqori yoki -0,7 dan kichiklarini tanlab olishimiz zarur, chunki mazkur holda omillar natijaviy belgiga kuchli ta'sir ko'rsatayotganligini ifodalaydi.

3.23-jadvaldan ko'rinadiki bandlik darajasi bilan tahlilda olingan barcha omillarning o'zaro korrelyatsiya koeffitsientlari 0,7 dan yuqori (3.22-jadvalning birinchi qatori ma'lumotlari), bundan xulosa shuki, tahlilda olingan barcha omillar o'zgarishi bitiruvchilar bandlik darajasiga to'g'ri, kuchli bog'lanishda.

Tadqiqotning navbatdagi bosqichida bitiruvchilar bandlik darajasi o'zgarishi (BD)ga omillar ta'sirining ekonometrik modellari eng kichik kvadratlar usulini qo'llash orqali quramiz hamda eng to'g'ri modelni tanlab olamiz.

Chiziqli funksiyaga qurilgan modelda tavsiflaymiz. Ya'ni umumiy holdagi formula quyidagicha:

$$Y = a_1x_1 + a_2x_2 + \dots + a_nx_n + const + e \quad (2.5)$$

Bu yerda:

Y – natijaviy belgi;

$a_1, a_2 \dots a_n$  – erkli o'zgaruvchilar oldidagi koeffitsientlar;

$x_1, x_2 \dots x_n$  – erkli o'zgaruvchilar;

const – Y ning boshlang'ich qiymati;

e – hisobga olinmagan qism.

Dasturiy majmuada hisob-kitoblarni amalga oshirib, natijalarni olamiz. Modellashtirish jarayonida misolimizdagi aynan bir yildagi bandlik darajasiga ilmiy salohiyat, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi darajasi, adabiyotlar bilan ta'minlanganlik darajasi kabilarning oldingi yillardagi ko'rsatkichlari ta'siri hisobga olingan holda tahlilni amalga oshirmiz, chunki bandlik darajasi bitirgandan keyin ma'lum bo'ladi, biroq ta'limni ilgarigi yillarda olgan bo'ladi, shu nuqtai nazardan omil o'zgaruvchilarning oldingi yillardagi ko'rsatkichlarini modelga kiritish zarurdir.

Tahlillar natijasida hosil qilingan modellar natijalarini ANOVA jadvaliga joylashtiramiz (3.24-jadval).



## 3.24-jadval

**Toshkent davlat agrar universiteti bitiruvchilarning bandlik darajasiga  
omillar ta'sirini baholovchi modellarning taqqoslama jadvali<sup>92</sup>**

O'zgaruvchilar	1-model <sup>93</sup>	2-model <sup>94</sup>	3-model <sup>95</sup>	4-model <sup>96</sup>	5-model <sup>97</sup>
IS <sub>t</sub>					
IS <sub>t-1</sub>	0,0556939**		0,0741237***		
IS <sub>t-2</sub>				0,0845593***	
RT <sub>t</sub>					
RT <sub>t-1</sub>	0,319895***	0,171700* *			
RT <sub>t-2</sub>			0,321783***	0,331189***	0,160534**
AT <sub>t</sub>					
AT <sub>t-1</sub>		0,294076* *			0,334402***
AT <sub>t-2</sub>					
const	70,8630***	57,3338** *	70,6297***	69,8359***	55,0058***
Model ishonchliligi	***	***	***	***	***
R-kvadrat	0,989854	0,989249	0,992069	0,991782	0,992016
O'rtacha kvadratik chetlanish	2,744548	2,744548	2,598718	2,598718	2,598718
Modelning standart xatoligi	0,309089	0,318161	0,262412	0,267121	0,263289
Darbin-Vatson statistikasi	1,493454	1,197321	2,253471	2,037376	2,337482

Izox: Gretl dasturiy majmuasi hisob-kitoblari asosida tuzildi.

\*\*\* 1% lik muhimlik darajasida statistik jihatdan ahamiyatli, \*\* 5 % lik muhimlik darajasida statistik jihatdan ahamiyatli, \*10 % lik muhimlik darajasida statistik jihatdan ahamiyatli.

3.24-jadvalda beshta optimal modelning tavsifi keltirilgan. Jadvaldagi  $t$  o'zgaruvchilarning joriy yildagi qiymatlari,  $t-1$  va  $t-2$  lar esa o'zgaruvchilarning mos ravishda bir va ikki yil oldingi qiymatlari. Ko'rinib turibdiki, barcha modellardagi erkli o'zgaruvchilar oldida turgan koeffiientlar korrelyatsiya koeffitsientiga mos holda to'g'ri bog'lanishda. Keltirilgan 5 ta modelning barchasining ishonchliligi eng yuqori darajada (1% lik muhimlik darajasida statistik jihatdan ahamiyatli), 1-modeldagi  $t-1$  davrdagi IS<sub>t-1</sub> 5 % lik muhimlik darajasida statistik jihatdan ahamiyatli, qolgan o'zgaruvchilar 1% lik muhimlik darajasida statistik jihatdan ahamiyatli. 2-modeldagi  $t-1$  davrdagi RT<sub>t-1</sub> va AT<sub>t-1</sub> 5 %

<sup>92</sup> Korrelyatsion tahlilda olingan barcha omil belgilarning ta'sirini ifodalovchi modellar Studentning t-mezoni bo'yicha ishonchlilik darajasi 90 foizdan past bo'lganligi sababli jadvalga kiritilmadi.

<sup>93</sup> 6-ilova

<sup>94</sup> 7-ilova

<sup>95</sup> 7-ilova

<sup>96</sup> 8-ilova

<sup>97</sup> 9-ilova

lik muhimlik darajasida statistik jihatdan ahamiyatli, qolgan o'zgaruvchilar 1% lik muhimlik darajasida statistik jihatdan ahamiyatli. 3- va 4-modeldagi barcha o'zgaruvchilar 1% lik muhimlik darajasida statistik jihatdan ahamiyatli. 5-modeldagi t-2 davrdagi  $RT_{t-2}$  5 % lik muhimlik darajasida statistik jihatdan ahamiyatli, qolgan o'zgaruvchilar 1% lik muhimlik darajasida statistik jihatdan ahamiyatli. Modelning amaldagi vaziyatni qanchalik ifodalab berishini ko'rsatuvchi R-kvadrat qiymati barcha modellarda 98 foizdan yuqoridir. O'rtacha kvadratik chetlanish qiymati 3, 4, 5 modellarda bir xil 2,599 ga, 1 va 2 modellarda 2,745 ga teng. Standart xatolik 3-modelda 0,2624 ga teng bo'lib, eng kichik, 1-modelda 0,309 ga teng bo'lib, eng kattadir.

Vaqtli qatorlarda modellarning qo'llashga yaroqli ekanligini ko'rsatuvchi muhim ko'rsatkich avtokorrelyatsiyaning mavjud emasligi testidir. U Darbin-Vatson statistikasi deb yuritiladi. Bizning misolimizda avtokorrelyatsiya mavjud bo'lmaslik oralig'i 1,58 va 2,42 oraliqdir. Demak faqat 3, 4 va 5-modellarimizda avtokorrelyatsiya mavjud emas va qo'llash uchun yaroqli. Barcha mezonlarni umumlashtirgan holda xulosa qilsak, R-kvadrat qiymati eng katta, standart xatolik eng kichik, o'rtacha kvadratik chetlanish eng kichik bo'lgan oqtimeal model 3-modeldir, 4-model ham shu mezonlarga javob beradi. Tahlillarimizning keyingi bosqichi uchun, 3-modeldan foydalanishni ma'qul topdik. Optimal modelni quyidagi ko'rinishda tasvirlaymiz:

$$BD_t = 0,0741237 * IS_{t-1} + 0,321783 * RT_{t-2} + 70,6297 + e \quad (2.6)$$

Bu yerda:

$BD_t$  – t davrdagi bitiruvlarning bandlik darajasi (%);

$IS_{t-1}$  – t-1 davrdagi ilmiy salohiyat (%);

$RT_{t-2}$  – t-2 davrdagi o'quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etilganlik darajasi (%);

ye – hisobga olinmagan omillar.

Modelning induktiv tahlili. Modelda Fisher-Snedekor F-kriteriysining qiymati 0,01 dan kichik, shuning uchun model statistik jihatdan yaroqli. Olingan mustaqil o'zgaruvchilar ( $IS_{t-1}$  va  $RT_{t-2}$ )ning statistik jihatdan

ahamiyatligi Studentning t-kriteriyi bo'yicha tekshirilganda 0,01 dan kichikligi va statistik jihatdan ahamiyatligi tasdiqlandi. Demak mazkur model induktiv tahlil bo'yicha qo'llash uchun yaroqli.

Tuzilgan tenglamaning determinatsiya koeffitsienti (R-kvadrat) 0,992 ga teng bo'lib, hosil qilingan model orqali bitiruvchilarning bandlik darajasining natijadorligi 99,2 foizni tushuntirish mumkin. Korrelyatsiya koeffitsientiga mos ravishda, modelning mustaqil o'zgaruvchilari to'g'ri bog'lanishda.

$IS_{t-1}$  ning oldida turgan koeffitsient (0,0741237) – boshqa omillar o'zgarish bo'lganida,  $t-1$  davrda ilmiy salohiyatning 1 foizga oshishi(kamayishi),  $t$  davrdagi bitiruvchilarning bandlik darajasining 0,074 foizga oshishi(kamayishi)ga olib keladi.  $RT_{t-2}$  ning oldida turgan koeffitsient (0,321783) – boshqa omillar o'zgarish bo'lganida,  $t-2$  davrda o'quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etilganlik darajasining 1 foizga oshishi (kamayishi),  $t$  davrdagi bitiruvchilarning bandlik darajasining 0,322 foizga oshishi(kamayishi)ga olib kelishini ifodalaydi.

Tadqiqotning navbatdagi bosqichida modellashtirishda olingan regressiya tenglamasi (2.6-formula) orqali ko'rsatkichlarning 2022-2027 yillardagi prognozlarini amalga oshiramiz. Buning uchun dastlab modelda olingan omil o'zgaruvchilarni 2022-2027 yillardagi prognozlarini va mazkur prognoz ma'lumotlari bo'yicha model asosida bandlik darajasining prognozlarini shakllantiramiz (3.25-jadval).

### 3.25-jadval

#### Toshkent davlat agrar universiteti bitiruvchilarning bandlik darajasiga omillar ta'sirining 2022-2027 yillardagi prognoz ko'rsatkichlari<sup>98</sup>

Yillar	Bitiruvchilarning bandlik darajasi (%)	Ilmiy salohiyat (%)	O'quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etilganlik darajasi (%)
2022	92,8	68,1	62,2
2023	93,6	70,1	62,3
2024	93,8	72,1	62,5
2025	94,0	74,1	62,6
2026	94,2	76,1	62,8
2027	94,4	78,1	63,0

<sup>98</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

3.25-jadvaldan ko‘rinadiki, prognozlarda ilmiy salohiyat ko‘rsatkichi va o‘quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etilganlik darajasi o‘shish tendensiyasiga ega bo‘ladi. Bu esa kelgusi davrlarda bitiruvchilarning bandlik darajasi ham oshib borishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Modelimiz bo‘yicha o‘quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etilganlik darajasining t-2 yildagi ko‘rsatkichi hamda professor-o‘qituvchilar ilmiy salohiyatining t-1 yildagi ko‘rsatkichi t yildagi bitiruvchilarning bandlik darajasiga ta‘siri bo‘yicha baholanadi. Shu nuqtai nazardan baholaganda, 2022-2027 yillarda ilmiy salohiyat darajasi 68,1 foizdan 78,1 foizga hamda o‘quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etilganlik darajasi 62,2 foizdan 63,0 foizga, shu davrlarda bitiruvchilarning bandlik darajasi 92,8 foizdan 94,4 foizga oshishi prognoz qilindi.

Ta‘lim jarayonini rivojlantirish va sohani tubdan isloh qilish yillar kesimida agrar ta‘limni bosqichma-bosqich sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash eng maqbul yechim hisoblanadi. Istiqbolda agrar ta‘lim tizimida kadrlar tayyorlashda bir nechta omillarning ta‘sirini to‘liq o‘rganish hamda sohani davlat tomonidan qo‘llab quvvatlanishini nazorat qilish lozim bo‘ladi. Tadqiqotlar natijasida mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan agrar ta‘lim muassasalarining boshqarish mexanizmlariga ta‘sir qiluvchi omillar tahlil qilinib, ularning istiqboldagi rivojlanishi kadrlar tayyorlashda zarur bo‘lgan imkoniyatlarni to‘liq o‘rganish hamda zarur yo‘nalishlarni tadbiq etish lozimligini ko‘rsatib berdi.

### **III bob bo‘yicha xulosa**

Tadqiqotimiz natijasida mamlakatimiz agrar ta‘lim tizimida kadrlar tayyorlashning boshqaruv mexanizmlariga ta‘sir qiluvchi omillar tahlil qilinib, ularning istiqbolda rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha quyidagi xulosalarga kelindi va ilmiy-nazariy ahamiyatga ega bo‘lgan tavsiyalar ishlab chiqildi:

agrar ta‘limni rivojlanishiga asosiy turtki bo‘ladigan va hududlarda qishloq xo‘jaligi korxonalarida sifatli mahsulot ishlab chiqarish, korxonalar samaradorligini oshishida o‘rta bo‘g‘in mutaxassislarining amaldagi ta‘lim

dasturlari va ta'limning xalqaro standart klassifikatori darajalari asosida professional ta'lim yo'nalishlari kasblar klassifikatori takomillashtirilib, kasbiy mutaxassislik standartlarini ishlab chiqildi;

